

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**TARIX FAKULTETI**  
**“TARIX” KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida*

**701101101-Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix)**  
**mutaxassisligi magistranti**  
**Toshpo‘latov Mamadali Zayniddin o‘g‘lining**

***“FUQAROLIK JAMIYATI: TARIXIY VA ZAMONAVIY MODELLARI”***  
mavzusidagi

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: s.f.d J.Y.Mavlonov**

**Navoiy-2023**

## MUNDARIJA

**Kirish .....3**

### **I Bob Fuqarolik jamiyati genezisi**

1.1. Fuqarolik jamiyati tarixi .....9

1.2. Qadimgi g'arb va sharq mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari .....25

### **II Bob Fuqarolik jamiyati modellari klassifikatsiyasi**

2.1. Fuqarolik jamiyati modellari tasnifi .....44

2.2. Fuqarolik jamiyatining tarixiy modellari .....70

### **III Bob Fuqarolik jamiyati modellari evolyutsiyasi**

3.1. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy modellari .....77

3.2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish istiqbollari .....83

**XULOSA .....103**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....106**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat» deb ta'kidlagan edi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati ma'lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy) yaratilgandagina shakllanishi mumkin. Bular quydagilardan iborat:

*iqtisodiy asos* - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiylikiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysiki jamiyatda uning har bir a'zosi, qandaydir mulkka ega bo'lishi, o'z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste'mol faoliyati erkinligining ta'minlanganligi;

*ijtimoiy-siyosiy asos* – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining namoyon bo'lishi;

*huquqiy asosi* – inson uchun ahamiyatli bo‘lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi yuridik tenglikning ta’minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo‘li bilan tan olinishi;

*ma’naviy asos* – insonlar o‘z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug‘ilganda ular uchun kurasha oladigan bo‘lishlari, vijdon erkinligi, axloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi. “Tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi”.

O‘zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, fuqarolik jamiyatining buprogressiv jihatlari (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e’tiborga olishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Aslini olganda “fuqarolik jamiyati” atamasi turli xorijiy adabiyotlarda alohida mazmun kasb etgan tushuncha bo‘lib, u hozirgi davr talqinda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolari hal etish bilan chambarchas tarzda o‘zaro bog‘liqdir.

Zamonaviy sharoitda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat asoslarini barpo etish jarayoni davom etmoqda, bunda jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlari

yangi shakl va mazmun kasb etadi<sup>1</sup>. Bu, odatda, jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqot madaniyatini va shaxslararo o'zaro munosabatlar qoidalarini rivojlantirish va takomillashtirish zaruratida namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar an'ana va urf-odatlar o'rniga huquqiy va estetik shaklda kiyingan insonparvarlik, axloqiy mazmun bilan to'ldiriladi. Shunday qilib, insoniyat jamiyatining hozirgi holati odamlarning ishlab chiqarish, kundalik hayot va dam olish sohasidagi ishbilarmonlik aloqalari madaniyatini shakllantirdi va takomillashtirmoqda.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Fuqarolik jamiyatining kelib chiqishi sivilizatsiyalar taraqqiyoti tarixida o'z aksini topgan bo'lib, uni har bir davrning mutafakkir va olim shaxslarining aql, erkinlik, farovonlik va adolat asosiy omillari bo'lgan ideal ijtimoiy tuzum modelini tashkil etishga intilishi sifatida tavsiflash mumkin. Bunday jamiyatni barpo etish har doim davlatni takomillashtirish, huquq va qonun rolining ustunligi masalalari bilan bog'langan.

Masalan, antik dunyoda bu fikr Platonning eydos nazariyasida ifodalangan. Bundan tashqari, Aristotelning davlat fuqarolardan tashkil topgan o'zini-o'zi ta'minlaydigan birlik, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati degan ifodasini hisobga olish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Sitseron odamlarning tengligi g'oyasini qo'llab-quvvatlab, qonun fuqarolik jamiyatining bog'lovchi bo'g'ini ekanligini va qonun tomonidan yaratilgan huquq hamma uchun bir xil ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Jamiyatdagi munosabatlarning yanada rivojlanishi fuqarolik jamiyati olimlari qarashlarining yanada o'zgarishini belgilab berdi. XVI-XVII asrlarda N.Makiavelli, G.Grotsiy, T.Gobbs, J.Lokk, C.Monteskye, J.J. Russo hukumat shakllari va fuqarolik jamiyatini farqlash pozitsiyalarini aniq ko'rsatib o'tishadi. Fuqarolik jamiyati, agar u tabiiy huquq va shartnoma tamoyillariga asoslangan bo'lsagina, fuqarolik jamiyati sanalishi aytiladi.

Fuqarolik jamiyati barpo etishning nazariy va amaliy jihatlari, ushbu jamiyatning huquqiy madaniyati, ma'naviy-ahloqiy asoslariga oid muammolar

---

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasi 2020-yil 24-yanvar //http://toshvil.uz/oz/pdf?id=15521

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillarida barcha ijtimoiy gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Mazkur muammolar xususida tadqiqot olib borgan ko‘pgina huquqshunos, faylasuf, siyosatshunos olimlarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Ular qatorida akademiklar Sh.Z.O‘razayev, M.Sharifxo‘jayev, professorlar A.A.Azizxo‘jayev, Z.M.Isломov, X.T.Odilqoriyev, S.Jo‘rayev, Sh.I. Jalilov, A.X.Saidov, R.Maxmudov, U.Tadjixanov, M.A.Rajabova, M.M.Fayziyev, E.H.Xalilov, fan doktorlari A.Hamrayev, F.X.Raximov, F.Musayev, M.Qirg‘izboyev va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin<sup>2</sup>

**Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari.** Fuqarolik jamiyatining paydo bo‘lishi va uning turli – tarixiy va zamonaviy shakllarini to‘g‘ri ochib berish va tahlil qilish imkonini beradigan fuqarolik jamiyati tarixi va shakllarini o‘rganishning eng maqbul metodologik yondashuvini yoritib berish.

Ushbu maqsadga muvofiq ravishda quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- 1) Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning kelib chiqish tarixini yoritib berish;
- 2) Fuqarolik jamiyati borasida qadimgi g‘arb va sharq mutafakkirlari qarashlarini tavsiflab berish ;
- 3) Fuqarolik jamiyati modellari klassifikatsiyasini ochib berish, tarixiy va zamonaviy modellarni tahlil qilish;
- 4) Bugungi kunda mamlakatni taraqqiy ettirishda to‘g‘ri qaror toptirilgan fuqarolik jamiyatining rolini izohlab berish;
- 5) Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini tizimli tahlil qilib, bu borada takliflar ishlab chiqish.

---

<sup>2</sup> Ўразаев Ш.З. Мустақил Ўзбекистоннинг Конституцияси. – Т., 1993; Ўша муаллиф. Власть и закон. – Т., 1991; Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. – Т.: Шарқ. 1997; Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага – Т., 2002; Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002; Одилқориев Х., Фойибназаров Ш. Сиёсий маданият. – Т., 2004; Жалилов Ш.И. Кучли давлатдан кучли жамият сари. – Т., 2001; Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003; Жўраев С. Фуқаролик жамияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003, Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 1 – 2 том. – Т. 1998; Умарова К. Политическая культура народов Узбекистана и Каракалпакстана: исторический опкт формирования. – Нукус, 1995; Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг конун чикарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Т., 2001; Мусаев Ф. Демократик давлат қуришининг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т., 2007; Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т., 2006 ва бошқ.

**Tadqiqot ishining obyekti** sifatida fuqarolik jamiyati shakllarining vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni olindi.

**Tadqiqot ishining predmeti** fuqarolik jamiyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va shart-sharoitlari sanaladi.

Dissertatsiya tadqiqotining nazariy va uslubiy asosini fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishi, rivojlanishi va muammolarini hal qilishda ishlab chiqilgan mahalliy va xorijiy siyosatshunoslik, huquqshunoslik, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlarining metodologik yondashuvlari, paradigmalari va kontseptual qoidalari tashkil etdi.

**Tadqiqot usullari.** Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida tarixiylik, tizimlashtirish, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.** Tadqiqot ishining ilmiy yangilik xususiyatlariga ega jihatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- 1) Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning kelib chiqish tarixini yoritib berilgan;
- 2) Fuqarolik jamiyati borasida qadimgi g'arb va sharq mutafakkirlari qarashlarini tavsiflab berilgan;
- 3) Fuqarolik jamiyati modellari klassifikatsiyasini ochib berish, tarixiy va zamonaviy modellarni tahlil qilingan;
- 4) Bugungi kunda mamlakatni taraqqiy ettirishda to'g'ri qaror toptirilgan fuqarolik jamiyatining rolini izohlab berilgan;
- 5) Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini tizimli tahlil qilib, bu borada takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati.** Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda va bu borada zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan turli xildagi qo'llanma va adabiyotlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi.** Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.





# I BOB. FUQAROLIK JAMIYATI GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

## 1.1 FUQAROLIK JAMIYATINING TARIXI

Bugungi kunga kelib dunyoning aksariyat davlatlarida huquqiy-demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi sifatida qaror topayotganligi fuqarolik jamiyatini barpo etish insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb etayotganligi fuqarolik jamiyatini fan sifatida o'rganishni taqozo etmoqda. «Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p-ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib etib kelgan, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov. – Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz» . SHuni ta'kidlash lozimki, insoniyat taraqqiyotining Aristotel, Platon, Sitseron va boshqa mutafakkirlar yashagan tarixiy bosqichida fuqarolik jamiyati deganda davlatni tushungan. Bu hol ancha uzoq vaqt mavjud bo'lgan va iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanish darajasi (mehnat taqsimotining primitiv shakllari, tovar-pul munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi, jamiyat hayotini davlat tasarruf etishi, ijtimoiy tuzilmaning tabaqaviyligi) bilan bog'liqdir. <sup>3</sup>Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari antik dunyoning ayrim mamlakatlarida mavjud bo'lib (Yunoniston, Rim), bu yerda hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi xususiy huquqning ayrim institutlari (ayniqsa, Rim xususiy huquqi)da mustahkamlangan tovar-pul ishlab chiqarishini vujudga keltirdi. Biroq, holat faqat fuqarolik jamiyatining ayrim mintaqalarda vujudga kelgan va tabaqalashgan vertikal tuzilmalari va ularning bilan uyg'unlashgan unsurlaridan iborat edi, xolos. Ijtimoiy-siyosiy fanlarda fuqarolik jamiyati va «davlat» tushunchalari uzoq vaqt uchalik farqlanmay keldi, ular aynan tushunchalar sifatida qabul qilindi. Biroq, XVII asr o'rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, ularni davlat hokimiyati boshqaruvidan

---

<sup>3</sup> Boboyev X.B. va Odilqoriyev X. T. Umumiy tahriri ostida. "Davlat va huquq nazariyasi". "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. 34-bet.

chiqarish, uzviy huquq va erkinliklarga ega bo'lgan erkin va mustaqil individni kamol toptirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyiliniyuzaga keltirdi va ularni ijtimoiy ong va fanda aks ettirish zarurati paydo bo'ldi. <sup>4</sup>Davlatda hokimiyatning uchga bo'linishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlari (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo'lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiy maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshladi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi absolyutizm ag'darilganidan so'ng shakllangan yangi hayotni, ya'ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettiradi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatda mansbdorlar fuqarolar bilan o'zaro muomalalarda qonunga qat'iy rioya qilishi g'oyalari ilgari surildi. Tarixda davlatdan mustaqil ravishdagi jamiyat amalda doimo namoyn bo'lgan davrla ham bo'lgan, biroq u doimo ham fuqarolik jamiyati mazmunini kasb etavermagan. Fuqarolik jamiyati 5 Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 1999, 7-жилд. 304-б. 12 davlatning ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, u ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqil jabhasiga aylanish natijasi o'laroq paydo bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida hozirgi davr huquqi va davlati vujudga keldi. Ko'rib turganimizdek, fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo'nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o'ziga xos mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi. <sup>5</sup>Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati kategoriyasi, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, XVIII-XIX asrlarga kelib

---

<sup>4</sup> Odilqoriyev X.T. va G'oyibnazarov Sh.G'. hammuallifligida. "Siyosiy madaniyat". Toshkent, IIV Akademiyasi nashryoti, 2004 42-43 bet.

<sup>5</sup> "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi". Mualliflar jamoasi. Toshkent, "Moliya", 2002. 72-73 bet.

o'rganila boshlandi. Yevropa va Amerika mamlakatlarining, katta mintaqalarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi yangi davrda boshlandi. Olimlar va mutaxassislar fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishda jamiyat va davlat tuzumida katta o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, sinflarning to'qnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub o'zgarishlar yuz bergan. Birinchi bosqich shartli ravishda XVI-XVII asr. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovarpul munosabatlarining rivojlanishi kiritish mumkin. SHuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo'lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga e'tibor berila boshlandi. Ikkinchi bosqichi XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy yuridik tenglik va erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi. Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o'rnini erkin odamlarning huquqiy tengligi va o'zaro bitimlariga asoslangan gorizental munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb e'tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.<sup>6</sup> Ular har kimga o'zini erkin xohish-irodaga ega bo'lgan, o'z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlari uchun javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan e'tirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga egabo'la boshladi. Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSH, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng

---

<sup>6</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi. Jamiyat a'zolari yuridik nuqtai nazardan fuqarolik huquq va erkinliklarga ega bo'ldi. Fuqarolik - insonning muayyan davlatga barqaror tarzdagi mansubligi, inson va davlatning o'zaro huquqiy aloqasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Bu ikki tomonlama aloqalar, bir tomondan, davlat o'z fuqarolariga muayn huquq va erkinliklarni kafolatlaydi, ularning o'zini va mol-mulkini zo'ravonlik va o'zboshimchaliklardan himoya qiladi, xorijiy mamlakatlarda istiqomat qiyotgan o'z fuqarolariga homiylik qiladi. Boshqa tomondan, fuqarolar davlat qonunlariga rioya qilishlari, u belgilagan majburiyatlarni bajarishlari, o'z mehnati bilan davlatni mustahkamlashga ko'maklashishlari, uning obro'sini saqlashlari, zarur bo'lgan holatlarda uni himoya qilishlari lozim. Bu huquq va burchlar majmui fuqarolarning siyosiy-huquqiy maqomini tashkil etadi. Fuqarolik - bu nafaqat shaxsning huquqiy maqomi, balki uning ijtimoiy holati hamdir. Huquqiy davlatda qonun oldida tenglik va bu bilan bog'liq holda fuqarolik huquqlariga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar qo'shiladi. Jamiyatda haqiqiy erkinlikni ta'minlash har bir inson nafaqat yuridik va siyosiy ma'noda, balki iqtisodiy va ijtimoiy ma'noda ham fuqaroga aylanishini nazarda tutadi. <sup>7</sup>XX asrda fuqarolik jamiyati g'oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarining paydo bo'lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo'ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan, demokratik jamiyatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: - fuqarolar totuvligiga erishish yo'llarini izlash; - aholining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olish; - qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish. Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi. SHaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi bo'lib xizmat qiladi. SHunday qilib, "huquqiy davlat" va "fuqarolik jamiyati" tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini

---

<sup>7</sup> Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet

aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiy ahamiyatga molik manfaatlari o'raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro'yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi. SHuni ta'kidlab o'tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko'ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo'lgan. Buning uchun odamlarning yuridik tengligi ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olindi. <sup>8</sup>Tabaqaviy tengsizlik o'rnini egallagan umumiy yuridik tenglik shaxsning mutlaqo yangi ijtimoiy holatini belgilab berdi. Endi individlar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, erkin hamda ijtimoiy hayotning to'laqonli ishtirokchilari deb e'tirof etildi. Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir. Fuqarolik jamiyati – murakkab tarkibli va plyuralistik tizim. Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm tizimning muayyan xossalari majmuiga ega bo'ladi, biroq fuqarolik jamiyatiga ularning to'liqligi, barqarorligi va samaraliligi xosdir. Rang-barang ijtimoiy shakllar va institutlar (kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar, klublar va h.k.)ning mavjudligi individlarning turli tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro'yobga chiqarish, odamzotning barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi. Fuqarolik jamiyati – o'zini o'zi rivojlantiruvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi tizim. Individlar har xil tashkilotlarga birlashib, bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan

---

<sup>8</sup> Rukavishnikov V. O. Politicheskiy kulturni i sotsialniye izmeneniya. Mujdunarodniye otnosheniye. – M., 1998..82-bet.

qarama-qarshi manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyat kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydilar. Fuqarolik jamiyati o'zining davlatdan mustaqil o'zini o'zi rivojlantirish ichki manbalariga egadir. Fuqarolik jamiyati – huquqiy demokratik davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu erda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish bog'lovchi omil sifatida amal qiladi. Fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolarni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va hokazolarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.<sup>9</sup> SHu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni ajratish, haqiqiy fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyat bilan qo'shilganida muqarrar tarzda iqtisodiy hokimiyatning bir markaz, bir odam yoki shaxslar guruhi qo'lida jamlanishi yuz beradi. Agar siyosiy va iqtisodiy hokimiyatlar turli markazlar, qo'llarda jamlansa, ular bir-birini cheklab turadi. 3. Fuqarolik jamiyati - taraqqiyotning yuqori bosqichi. "Fuqarolik jamiyati" va "huquqiy davlat" tushunchasi birgalikda XVIII asrda paydo bo'lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvori davlatning xohish-irodasiga bo'ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalar bilan ifodalandi. Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir. Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o'zini o'zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq vaqt davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Har bir davlatda bo'lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning

---

<sup>9</sup> Блумер Г. Коллективное поведение. /Американская социологическая мысль: тексты. М.: Изд-во МГУ, 1994. - С. 168 -215.

barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'ladi. Etuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. SHunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi. Totalitar davlatda xavfsizlikni ta'minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvori davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta'minlash faoliyatidan iborat bo'ladi, davlat hokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish muammosi yuzaga kelmaydi.<sup>10</sup>

Fuqarolik jamiyati haqidagi ta'limotlarning rivojlanish tarixi juda uzoqlarga borib taqaladi, mohiyati esa murakkab va serqirradir. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi va uning mohiyati haqidagi ta'limotlarni ko'rib chiqishda e'tiborni, avvalo, ularning turlicha talqin etilganiga qaratamiz. Fuqarolik jamiyati mohiyati haqidagi ta'limotlarning bir-biridan farq qilishi, birinchidan, uni o'rganishda turlicha metodologik yondashuvlar bo'lganligi, ikkinchidan, bu ta'limot insoniyat rivojlanishining qaysi davrida amalga oshirilganligi, ya'ni fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyatini talqin qilish o'sha vaqtda hukmron bo'lgan g'oyalarga asoslangan holda amalga oshirilganligi bilan bog'liqdir. «Jamiyat» va «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini aynan bir xil talqin qilmaslik lozim. Fuqarolik

---

<sup>10</sup> Бородина Т.В. Социальный диалог: коммуникативные стратегии личностной репрезентации общественных отношений. Автореф. дисс. к.ф.н., Ростов-на-Дону, 2003, 26 с.

jamiyatining shakllanishi va rivoji insoniyat, davlat, huquq tarixining muayyan sivilizasiyalashgan davri bilan bevosita bog'liq. Davlatdan farqli o'laroq, jamiyat hamisha mavjud bo'lgan. Lekin har doim ham u fuqarolik jamiyati maqomiga ega bo'lmagan<sup>1</sup>. Huquqiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, fuqarolar mustaqil shaxs, jamiyatning mustaqil a'zosi sifatida muayyan huquq va erkinliklarga ega bo'lgan, o'z xatti-harakati uchun mas'uliyatni his qila olganlaridagina fuqarolik jamiyati haqida so'z yuritish mumkin. <sup>11</sup>Fuqarolik jamiyati haqida yaratilgan adabiyotlarda ko'rsatilishicha, insoniyat, xususan G'arb sivilizatsiyasining fuqarolik jamiyat sari rivojlanishi ma'lum ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, jumladan inqiloblar orqali kechgan. Albatta, bu jarayon jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarida o'zgarishlar yuz berishiga olib kelgan. Fuqarolik jamiyatida xususiy mulkchilik g'oyat katta ahamiyatga ega, chunki shaxs mulkdor bo'lsagina davlat hokimiyatiga nisbatan o'zini mustaqil sezadi, qonunda ko'rsatilgan asoslarda o'z manfaatlarini hisobga olib, xohlagan ishi bilan shug'ullanishi, istalgan kasbni egallashi, o'zi tanlagan joyda yashashi mumkin. Ma'lumki, fuqarolik jamiyatida davlat insonni munosib hayot kechirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklar bilan ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyatida inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligi amalda ta'minlanadi. Shu bois ham fuqarolik jamiyatida uning a'zolari – «inson», ularning huquq va erkinliklari esa «inson huquqlari» deb ataladi. Ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyati insonlarning huquq va erkinliklarini, jamiyatning tarkibiy qismi bo'lgan davlat esa fuqarolarning huquqlarini ta'minlaydi. Har ikki holda ham gap shaxsning huquq va erkinliklari to'g'risida boradi. Lekin birinchi holatda har bir shaxsning alohida inson sifatida yashash, erkinlik va daxlsizlik, baxtli hayot kechirish va boshqa tabiiy huquqlari haqida, ikkinchi holatda esa shaxsning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etishini ta'minlovchi siyosiy huquqlari to'g'risida so'z yuritiladi. Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga va uning doimo taraqqiy etib borishiga juda katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi insonning munosib

---

<sup>11</sup> Вебер М. Харизматическое господство. 1988, №6, С.139-137.



hayot kechirishini, barcha hayotiy orzu-maqсадlari shu jamiyatdagi siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institut, guruh, oila va boshqa jamoat birlashmalari orqali amalga oshirilishini ta'minlashdir. Bu siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar va guruhlar har bir insonga uning o'zi yashayotgan jamiyatda hokimiyatning manbai ekanligini, huquq va erkinliklari, qobiliyati va harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar<sup>1</sup>. Fuqarolik jamiyati davlatning fuqarolari, ularning ixtiyoriy ravishda birlashgan guruh, jamoa va tashkilotlari, ya'ni o'zaro huquq va majburiyatlari bilan bog'liq, yuksak siyosiy va huquqiy madaniyatga ega bo'lgan kishilardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning bevosita o'zlari, ularning jamoalari orqali ongli ravishda boshqarib turiladigan va qat'iy tartib-intizom qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat boshqa jamiyatlardan o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi va boshqarib turishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Unda davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari keng jamoatchilik nazoratida bo'ladi, chunki davlat fuqarolar jamiyatining «yollanma xizmatkori»ga aylanadi. Ma'lumki, davlat fuqarolardan, ular mehnat qiladigan tashkilot, korxonalar va muassasalardan olinadigan soliqlar hisobiga yashaydi. Shu bois fuqarolik jamiyatida fuqarolar va ularning birlashmalari nafaqat jamiyatning siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotini ham boshqarishda faol ishtirok etadi. Binobarin, barcha kishilik jamiyatlarini ham fuqarolik jamiyati deb atab bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyati, avvalo, yuksak darajadagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan jamiyatdir<sup>1</sup>. Fuqarolik jamiyati – insoniyat jamiyatining oliy ko'rinishi, oliy shakli<sup>2</sup>. Huquqiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sobiq Ittifoq davlati, shu jumladan o'sha vaqtda uning tarkibida bo'lgan O'zbekistonda ham XX asrning 70-yillaridan boshlab «fuqarolik jamiyati» tushunchasi haqida fikrlar keng tarqala boshladi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidan

borayotgan bugungi kunda fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyati, uni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ko'plab munozaralarga mavzu bo'lmoqda. Ayrim olimlar «fuqarolik jamiyati» tushunchasini, uning mazmuni va mohiyatini tushuntirishda fuqarolik jamiyati va siyosiy jamiyat o'rtasidagi farqni ko'rsatishga harakat qilsalar, boshqa olimlar keng ma'nodagi fuqarolik jamiyatini davlatga qarama-qarshi hodisa sifatida talqin qiladilar. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, «jamiyat» tushunchasi fuqarolar uyushmasi sifatida fuqaro haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan davrlarda – Qadimgi Sharqda, xususan Bobilda «Hammurabi qonunlari», Turon zaminida «Avesto» kabi manbalarda, keyinchalik esa qadimgi Rimda – shakllana boshlaganiga guvoh bo'lamiz. Huquqiy va tarixiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimda davlat bilan fuqarolik jamiyati bir ma'noni anglatgan, ular o'rtasida farq bo'lmagan. <sup>12</sup>Buyuk yunon faylasufi Arastuning fikricha, davlat fuqarolarning, fuqarolar jamiyatining uyushmasidan boshqa narsa emas. U «davlat» bilan «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini bir ma'noda ishlatadi<sup>3</sup>. Bunday talqin XVIII asrgacha, ya'ni fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyatini to'liq aks ettiruvchi bugungi tushuncha shakllangunicha davom etgan. Fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlar Uyg'onish davrida G. Grotsiy, T. Gobss, J. Lokk, SH. Monteskyo, J. J. Russo asrlarida ham rivojlantirilgan. Lekin «fuqarolik jamiyati» atamasi faqat XVII asrning oxirlariga kelib muntazam va keng qo'llanila boshlandi.

Fuqarolik jamiyatining nazariy asoslarini mukammal ilmiy ta'limot sifatida ilk bor Gegel o'zining «Huquq falsafasi» nomli mashhur asarida yaratdi. Gegel fuqarolik jamiyati ikki asosiy prinsipga asoslanishini isbotlab beradi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyatida, birinchidan, individlar, ya'ni odamlar faqat va faqat o'z xususiy manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadilar; ikkinchidan, jamiyat a'zolari hisoblangan odamlar o'rtasida ijtimoiy aloqalar yuzaga keladi va ular tabiiy ravishda bir-birlariga muhtojlik his etishadi. Fuqarolik jamiyati haqidagi Gegel ta'limotiga asosan, inson, ya'ni fuqaro o'z ijtimoiy mavqei, shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlari

---

<sup>12</sup> Горелов И.Н. Невербальные компоненты гражданского общества. -М., 1980, 348 с.

bilan bunday jamiyatning asosini tashkil qiladi. Akademik M. Sharifxo‘jayev ta’kidlaganidek, Gegelning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari «fuqarolik jamiyati» atamasi hamda bu so‘z birikmasining etimologiyasidan kelib chiqqan. Nemischa «Bürgerliche Gesellschaft» (Bürgerliche Gesellschaft) ikki ma’noga ega, ya’ni burger (burjua) – ham fuqaro, ham burjua demakdir<sup>1</sup>. Gegelning fikricha, «fuqarolik jamiyati – eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek oila, tabaqa, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta’lim-tarbiya, qonunlar va ulardan kelib chiqadigan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalardan iborat». Uning ta’biri bilan aytganda, tabiiy, «madaniyatsiz» holatdan odamlar fuqarolik jamiyatiga kirib kelishlari kerak, zero, ana shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqatga aylanadi<sup>1</sup>. Inson, uning jamiyatdagi roli, funksiyalari, maqomi Gegel ta’limotining asosiy unsuri sifatida maydonga chiqadi. Gegel qarashlariga muvofiq, alohida shaxs o‘zi uchun o‘zi maqsad bo‘lib, uning faoliyati eng avvalo o‘zining (tabiiy va ijtimoiy) ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Ayni paytda, u o‘z ehtiyojlarini faqat boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlarda bo‘lgan holatdagina qondira oladi. «Fuqarolar jamiyatida har kimning o‘z munosabati o‘zi uchun maqsad bo‘lib, qolganlar uning uchun hech narsa emas. Lekin inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lmasdan o‘z maqsadlariga to‘la erisha olmaydi»<sup>2</sup>. Fuqarolik jamiyati kishilik jamiyatining eng yuksak shakli hisoblanib, u o‘z ichiga a’zolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlash maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashgan turli guruhlar, uyushmalar, birlashmalar kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Ular, o‘z mohiyatiga ko‘ra, jamiyatda insonparvarlik va adolatlilik prinsiplariga asoslangan hamjamiyatni ifoda etadi. Faqat shunday jamiyatgina har bir insonga o‘zi uchun oliy farovonlik topish imkonini yaratib beradi. Inson huquq va erkinliklari yuqori darajada ta’minlangan rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati shaxsiy hokimiyat rejimiga, o‘zboshimchalik, sinfiy nafrat, totalitarizm, odamlar ustidan zo‘ravonlikka o‘rin bo‘lmagan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat tamoyillarini hamma hurmat qiladigan erkin, demokratik, huquqiy, sivilizatsiyalashgan jamiyatdir. Bu – aralash iqtisodiyotga ega bo‘lgan ko‘p ukladli

raqobatli bozor jamiyati, tashabbuskor tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar munosabatlarining oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyat. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, fuqarolik jamiyatida fuqarolarning davlat oldidagi majburiyatlari asosan amaldagi qonunlarga itoat qilish, qonunlarda belgilangan soliq va yig'implarni to'lash hamda boshqa insonlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishdangina iborat bo'ladi.<sup>13</sup> Albatta, hayotda muayyan vaziyat va munosabatlarda fuqarolarning o'z ijtimoiy, mehnat, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyatlari, shuningdek xizmat, harbiy, oilaviy burchlarini ado etishlari bilan bog'liq boshqa majburiyatlari ham yuzaga keladi. Lekin bunday jamiyatda insonlar o'rtasida pastdan yuqoriga (vertikal) emas, balki tengma-teng (gorizontal) aloqalar ko'proq bo'ladi. Fuqarolik jamiyati fuqaro va uning erkinliklaridan boshlanadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish ehtiyojlari, avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va ularning hayotda amal qilishini mukammal ravishda tashkil etish zaruratidan kelib chiqqan. «Fuqaro» so'zining o'zi shaxsning mustaqilligi, teng huquqliligi, sha'ni va o'z-o'zini hurmatlashining sinonimi sifatida yangraydi. Bunday jamiyat hamisha turli tabaqaviy bo'linishlar, odamlarning tengsizligi, huquqlarining cheklanishiga qarshi qo'yilgan. Fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan insonning «fuqaro» maqomiga ega bo'lishi unga shu jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan burch, mas'uliyat yuklaydi. Bu esa avvalo xalqqa, Vatanga xizmat qilish bilan bog'liqdir. Shuning uchun jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekiston fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni har bir fuqaro o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar ayni mana shu oliy maqsadga – har bir kishining hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy jihatdan boyroq qilishga bo'ysundirilgan. Huquqiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, fuqarolik jamiyati uchun yana ikki prinsip – «aybsizlik prezumpsiyasi» va «qonunda taqiqlamagan hamma narsaga ijozat beriladi» degan qoidalar mavjud. Mazkur prinsiplarning birinchisiga

---

<sup>13</sup> Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации //Человек, 1992, № 2, С. 51 -65.

muvofig, odam belgilangan tartibda aybi isbotmanlagunicha, halol, aybsiz hisoblanadi. Boz ustiga, isbotlash mashaqqatlari ham ayblovchilar zimmasiga tushadi. Ikkinchi prinsip erkin fuqaro qonun va axloqqa zid kelmaydigan har qanday harakatlarni qilishga haqli degan ma'noni bildiradi. Fuqarolik jamiyati siyosiylashuv va mafkuralashuvdan holi jamiyatdir. <sup>14</sup>Biroq, bu mazkur jamiyat hech qanday siyosat yuritmaydi, aniq g'oya yoki qarashlardan foydalanmaydi yoxud ulardan qaysi birlarinidir afzal ko'radi yoki ko'rmaydi, degan ma'noni aslo bildirmaydi. Fuqarolik jamiyatiga mafkuraviy yakkahokimlik begona ekanligi boshqa masala. Hech bir mafkura, agar u yagona va eng to'g'ri, nuqsonsiz va tanho yashashga haqli deb taqdim etilgan taqdirda ham, istisnolikka da'vo qilolmaydi<sup>2</sup>. Fuqarolik jamiyatining mohiyati to'g'risida bugungi kunda ham olimlar o'rtasida bir-biridan farq qiluvchi turli fikr va mulohazalar mavjud. Akademik M. Sharifxo'jayev fuqarolik jamiyati to'g'risidagi fikr va mulohazalarni quyidagi yo'nalishlarga ajratadi: a) fuqarolik jamiyatining shakllanishi davlatga bog'liq bo'lmagan holda, demokratik taraqqiyotning ilk davri, bozor munosabatlarining birinchi bosqichi; b) demokratiya sharoitida davlat bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar bartaraf etilgan bo'lib, demokratik-huquqiy maqomga ega davlat – fuqarolik jamiyatining normal bir ko'rinishiga aylangan siyosiy institut; d) fuqarolik jamiyati, umuman, hozirgi taraqqiy etgan jamiyatning aynan o'zi; e) jahon hamjamiyatining kelajakdagi tarkibiy asoslarini yaratish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir<sup>3</sup>. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi mazkur fikr-mulohazalarda uning mohiyatini ochib berish uchun umumlashtirilgan yagona bir mezon yo'q. Bugungi kunda falsafiy, siyosiy, huquqiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyatiga ta'rif berish, uning mohiyatini tushuntirish va O'zbekistonda bunday jamiyatni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishga faol harakat qilinmoqda. Huquqshunos H. T. Odilqoriyev fuqarolik jamiyatiga ta'rif berish va uning

---

<sup>14</sup> Cogley, Paul (2008-06-05), "*Sivil society: Definitions and Concepts*", in Donsbach, Wolfgang (ed.), *The International Encyclopedia of Communication*, Chichester, UK: John Wiley & Sons, Ltd, pp. wbiecc071, [doi:10.1002/9781405186407.wbiecc071](https://doi.org/10.1002/9781405186407.wbiecc071), ISBN 978-1-4051-8640-7, retrieved 2021-07-20

mohiyatini yoritishda bunday jamiyatda davlat, inson hamda nodavlat tashkilotlar tizimining o'rnini, ularning o'zaro munosabati va aloqalarini ilmiy asoslangan holda batafsil tushuntirib beradi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil munosabatlar va vositalar tizimi bo'lib, u shaxs hamda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi sifatida ta'riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko'pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqadi. Biroq, bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligi, begonalashganligini anglatmaydi. Fuqarolik jamiyati – shaxslarning oddiy yig'indisi emas, balki ular o'rtasidagi rang-barang aloqalar, hamkorlik, hamjihatlik ifodasi. Mazkur mushtaraklik va hamjihatlik tashkiliy-institutsiyaviy ko'rinishga ega bo'lib, unga turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalarning mavjudligi xos<sup>1</sup>. Rossiyalik olim L. A. Morozova fuqarolik jamiyatiga insonlarning turli-tuman manfaatlarini ifodalovchi, madaniy, milliy, diniy, hududiy va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar, birlashmalar harakat qiladigan, davlatga qaram bo'lmagan, nisbatan mustaqil jamiyat deb ta'rif beradi<sup>2</sup>. Shuningdek, Rossiyada chop etilgan boshqa adabiyotlarda yozilishicha, fuqarolik jamiyati davlatga qarshi tura oladigan, uning faoliyatini nazorat qila oladigan, jamiyatdagi o'rnini belgilab bera oladigan, boshqacha aytganda, o'zining davlatini huquqiy davlat sifatida saqlay oladigan jamiyatdir<sup>3</sup>.

Taniqli olim M. Qirg'izboyev hozirgi zamon ilg'or demokratik davlatlar hududida shakllangan fuqarolik jamiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarga asoslangan holda fuqarolik jamiyatini quyidagicha tavsiflaydi: birinchidan, jamiyat hayoti va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini qamrab olgan insoniy birlik; ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarishga oid, shaxsiy va nodavlat

munosabatlar majmuasi; uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashuvlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar<sup>1</sup> . «Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviymadaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat»<sup>2</sup> . To'g'ri, fuqarolik jamiyatiga ta'rif berish bilan uning mohiyatini to'liq ochib berib bo'lmaydi. Shu bois bunday jamiyatni barqaror rivojlanishi va a'zolarining erkin yashashi hamda faoliyat ko'rsatishini, shu bilan birga, konstitutsiyaviy majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydigan asosiy prinsiplar va umumiy g'oyalarni aniqlash orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir.<sup>15</sup> Bu borada akademik M. Sharifxo'jayev fuqarolik jamiyati qayerda, qachon mavjud bo'lishidan qat'i nazar, uning quyidagi umumiy g'oya va prinsiplarga asoslanishini ta'kidlaydi: iqtisodiy erkinlik, turli mulk shakllari, bozor munosabatlari; inson va fuqarolarning tabiiy huquqlarini so'zsiz tan olish hamda himoya qilish; hokimiyatning erkinligi va demokratik xususiyati; qonun va odil sudlov oldida hammaning tengligi, shaxsning zaruriy huquqiy himoyasi; hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqaga asoslangan huquqiy davlat; siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, ochiq muxolifatning mavjudligi; so'z va matbuot erkinligi; davlatning fuqarolar hayotiga aralashmasligi, ular o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat va majburiyatlar; ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, hamkorlik va milliy totuvlik; odamlarga munosib hayot sharoiti yaratib berilishini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat<sup>1</sup> . O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi davrda respublikamizda yangi huquqiy demokratik davlat va

---

<sup>15</sup> Harper, Douglas. "communication". [Online Etymology Dictionary](#). Retrieved 2013-06-23

erkin fuqarolik jamiyati qurish borasida yuqorida sanab o‘tilgan umumiy g‘oya va prinsiplarning nazariy asoslarini yaratish hamda hayotga tatbiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda o‘z aksini topayotgan iqtisodiy siyosat pirovard natijada demokratik islohotlar qilish, kuchli suveren huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam moddiy negiz yaratishga yo‘naltirilgan. Maqsadimiz – demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish. Bu bizning ezgu orzuimiz, strategiyamizdir<sup>2</sup>. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining mohiyati, biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat bilan munosabati, biz orzu qilayotgan erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy omillari, o‘ziga xos jihatlari va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha nazariy hamda amaliy masalalar bo‘yicha Prezidentimiz Islom Karimovning ilmiy asoslangan g‘oyalari, fikr-mulohazalari va ko‘rsatmalari ushbu mavzuni o‘rganayotgan falsafa, siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologik asos sifatida shakllandi, desak adashmaymiz. Biz buning tasdig‘ini Islom Karimovning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq ayrim masalalar bo‘yicha aytgan quyidagi fikr-mulohazalarida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishdan iboratdir<sup>3</sup>. Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari umummilliy manfaatlarga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir. Biz jamiyatni qonunlar yordamida boshqarishni o‘rganib olishimiz kerak. Qonun ijtimoiy hayotni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositasi bo‘lib qolishi lozim. Buning uchun biz chuqur o‘ylab ishlangan, har tomonlama asoslangan, uzoq muddat amal qiladigan qonunlarga ega bo‘lishimiz darkor.<sup>16</sup> Qonunga amal qilgan holda yashash va mehnat qilishni o‘rganishimiz, o‘z

---

<sup>16</sup> Boboyev X.B. va Odilqoriyev X. T. Umumiy tahriri ostida. “Davlat va huquq nazariyasi”. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2000. 34-bet.



huquq va erkinliklarimizni qonun orqali himoyalashni, o‘z majburiyatlarimizni og‘ishmay bajarishni o‘rganib olishimiz zarur. Boshqa odamlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganib olish lozim. Qonun ustuvorligi tantana qilishiga, unga og‘ishmay rioya etish esa har bir kishining muqaddas burchi bo‘lib qolishiga erishishimiz kerak. Biz islohotlarni chuqurlashtirish, demokratik tub o‘zgarishlar yo‘lidan olg‘a siljish, hayotimizda asl demokratik qadriyatlar qaror topayotgani to‘g‘risida gapirganda, avvalo, fuqarolik jamiyati asoslariga o‘tish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish muassasalarini butun choralar bilan kengaytirishni nazarda tutamiz. Bu barcha islohotlarimizning asosiy mohiyati va bosh mantig‘idir<sup>3</sup>. Bugun erishilgan marralardan turib, o‘z oldimizga demokratik siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifasini qo‘yar ekanmiz, pirovard maqsadga erishish – fuqarolik jamiyati qurish zaruratidan kelib chiqib ish tutmog‘imiz darkor. Ya‘ni, shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki, unda kuchli markaziy hokimiyat o‘z sa‘y-harakatlarini mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizom, tashqi siyosat, valutamoliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umummilliy vazifalarga qaratmog‘i zarur. Boshqa masalalarni hal etish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat birlashmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazilishi lozim .

## **1.2 QADIMGI G‘ARB VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FUQAROLIK JAMIYATI HAQIDAGI QARASHLARI**

Ko‘pgina mashhur olimlar bu ta‘limotning tarkibiy qismlariga murojaat etib, mazkur muammoning turli-tuman ma‘nolarini ilgari surganlar. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga olib keldi va ming yillik falsafaning tarixiga qiziqishini borgan sari oshirib, uni o‘rganuvchilar doirasini kengaytirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov haqli ravishda ta‘kidlab o‘tganidek: “Ma‘rifatli dunyoda “fuqarolik davlati” deb gapirilmaydi.

“Fuqarolik jamiyati deyiladi”. Davlat -boshqa narsa, fuqarolik jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko‘ra jamoat tas hkiotlarining qadri balandroq turadi. Kuch ishlatuvchi tuzilmalar, vazirliklar, mahalliy hokimiyat, davlat tashkilotlari tizimiga kiradi”.

Fuqarolik jamiyati - fuqarolarning o‘zaro chambarchas bog‘langan huquqiy va siyosiy madaniyatiga ega bo‘lgan jamiyatdir; davlatning majbur qiluvchilik kuchi bilangina emas, ayni vaqtda fuqarolarning ixtiyoriy kuch-g‘ayratlari bilan ham ta‘minlanib turadigan barqaror tartibli jamiyatdir.

Ushbu mavzuga oid qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar juda qadimda shakllangan bo‘lib, ularning asoschilari yunon faylasuflari Aflotun va Arastu asarlarida ham qayd etilgan. <sup>17</sup>

Aflotunning ustози Suqrot (miloddan avvalgi 470-399 yillar) ijtimoiy taraqqiyot masalalarida haqiqatni topish mumkin va lozim, haqiqat faqat bahsda aniqlanadi, deb hisoblagan edi. Suqrotning jamiyat to‘g‘risidagi ta‘limotiga zakovatli kishilar (intellektuallar) anglab yetadigan obyektiv mavjud g‘oya to‘g‘risidagi fikr asos qilib olingan edi. U har qanday sohadagi muvafaqqiyatli faoliyat uchun chuqur bilim zarurligini ta‘kidlar edi. Shu fikrga asoslanib, davlatga rahbarlik qilish o‘ziga xos kasb bo‘lib, bu kasb bilan asosan va qoida tariqasida donishmandlar, davlatni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilar shug‘ullanishi lozim, degan asosiy xulosa chiqarilar edi. Bu nazariya polisni boshqarish - har bir fuqaroni ishi deb ta‘kidlaydigan Afina demokratiyasini asosiy qoidalariga zid edi.

Shunday qilib, Suqrotning ta‘limoti eng badavlat fuqarolarning harakatlarini oqlovchi negizni yaratib bergan, bu esa mutafakkirni Demos bilan qarama-qarshi turishga olib borgan va nihoyat olimning qoralanishi va o‘limi bilan yakunlangan edi.

---

<sup>17</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

Aflotun o'z asarlarida jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishini keng tadqiq etgan mutafakkirdir. Aflotun asarlarini tadqiqotchilar to'rt qismga ajratishgan:

Birinchi qismni: "Sukrotchilar dialogi" deb atashgan, ushbu qismda Suqrot qarashlari haqida keng ma'lumotlar berilgan, jumladan, "Laxes" (Jasurlik haqida), "Xarmid" (Donolik haqida), "Kriton" (qadriyat haqida), "Kichik Gippiy" (Fazilatlar haqida), "Davlat" (Adolat haqida), haxamda "Suqrot Apologiyasi" asarlari shular jumlasidandir.

Ikkinchi qism – suqrotchilarning Aflotun qarashlariga yon bosish davrida yozilgan asarlar bo'lib, bular: "Gorgiy", "Kritiy", "Katta Gippiy" asarlar kiradi.

Uchinchi qism- "Meneksen", "Bazm", "Fedr", "Fedon", "Davlat" (III-X kitoblar)dan iborat.

To'rtinchi qism - Aflotunning "Tetet", "Sofist", "Parmenid", "Siyosatchi", "Timey" kabi asarlarini o'z ichiga olgan. Ma'lumki, VI-IX asrlarda yaqin va O'rta Sharqda Arastuning deyarli barcha asarlari arab tiliga tarjima qilingan va ularga sharhlar bitilgan edi. Uning ko'pgina g'oyalari tahlil etilgan, tanqidiy qayta ishlab chiqilgan va o'zlashtirilgan edi.

Atoqli qadimiy yunon olimining obro'-e'tibori O'rta asr Sharqida shu qadar yuksak ko'tarildiki, boshqa buyuk olimlarning asarlari ham unga nisbatan beriladigan, bu asarlarnig ko'pdan-ko'p soxta nusxalari tarqatiladigan bo'lib qoldi. Antik davr mutafakkirlarining asarlari bilan tanishmay turib, falsafani o'rganish va umuman dunyoviy ta'lim olish mumkin bo'lmay qoldi. Deyarli barcha yirik olimlar (al-Kindi va boshqalar) Stagirit merosini muntazam va izchil o'rganish vazifasiga bag'ishlab maxsus risolalar yozishdi. O'z ustozini Aflotundan farqli o'laroq, Arastu ijtimoiy dunyo birlamchi, uning mazmuni bilan shaklini bir-biridan ajratib bo'lmaydi, deb hisoblagani ma'lum. Stagiritning ijtimoiy qarashlari rivojlanish nazariyasidan iboratdir, chunki mualliflarning o'zi rivojlanishining dialektik metodi tarafdorlaridan biridir". Arastuning fanlar xususidagi tasnifi Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino ijodiga qanday ta'sir o'tkazganligi alohida mavzudir.

Arastu fanlarni uch turga nazariy, amaliy va she'riy turlarga ajratgani ma'lum. Iqtisodiyot, amaliy fanlarga kiritilgan. Bu haqda quyidagi kitobda batafsilroq ma'lumot olish mumkin: Ideal davlat to'g'risidagi ta'limot muallifi bo'lmish Arastu: "polis insonlar uyushmasining eng yaxshi shakli," degan xulosaga kelgan: shu polisda yashovchi odamlarning maqsadi ne'mat olishdan iborat, Aflotundan farqli o'laroq Arastu oilani jamiyatning zarur bo'lagi, bo'g'ini deb hisoblagan. Bunda Arastuning fikricha, "qulchilik qanday tabiiy bo'lsa, oila ham shunday tabiiydir", ba'zi kishilar hukmronlik qilishi, boshqalar esa bo'ysunishi tabiat tomonidan belgilab qo'yilgan degan paradoksga asoslanadi. Ya'ni, Arastuning fikricha, davlat tarkibiga ayrim shaxslar, oilalar va qishloqlar kirishi kerak. Biroq alohida shaxslarning hammasi ham davlat tarkibiga taalluqli bo'lmaydi deganda, aynan qullar nazarda tutilgan. Shu bilan birga, uning fikricha, o'zligiga ega bo'lmagan kishi tabiatan quldir. U faqat jismoniy ishlarga mo'ljallangan bo'lib, xo'jayiniga itoatda bo'lmog'i lozimligini ta'kidlagan.<sup>18</sup>

Arastuning fikricha, davlat bir joyda yashovchi insonlarning o'zaro muloqoti, adolatsizlikka qarshi o'zini himoya qilish uchun tuzgan ittifoqi yoki xo'jalikdagi ayriboshlash uchungina bo'lgan muloqot emas. "Davlat shu paytdagina yuzaga keladiki, oila va urug' o'rtasida baxtli hayot uchun muomala paydo bo'lsa, ularning hayoti komil va to'liq bo'lgan sharoit va vaqtda davlat paydo bo'ladi." Arastu polisning mavjud shakllarini o'rganib, uchta to'g'ri (monarxiya, aristokratiya, politiya) va uchta noto'g'ri (tiraniya, oligarxiya, demokratiya) shakllarini alohida ko'rsatib o'tadi, hamda ularning har birini batafsil ta'riflaydi. Jumladan, monarxiya - yunoncha so'z bo'lib, yakka hokimlikdir. Arastu bunda shoh hokimligining patriarxal va mutlaq monarxiya shakllarini ko'rsatgan. Agar davlatni hammadan ustun turuvchi shaxs boshqarsa, unda mutlaq monarxiya bo'lib, bunday hukmdorga nisbatan qonun bo'lmasdan, o'z fuqarolari orasida eng ulug'vor odam darajasiga ko'tariladi va unga barcha itoatda

---

<sup>18</sup> Saidov A. va Tojixonov U. hammuallifligida. "Islom Karimov Konstitutsiya to'g'risida". Toshkent, "Akademiya", 2001. 52-bet.

bo'ladi. Aristokratik boshqaruvda esa siyosiy tuzum ozchilik tomonidan amalga oshirilib, davlatni sharaflı, olijanob ko'pchilik boshqarishini qayd etgan. Davlatning to'g'ri shakli sifatida Arastu monarxiya boshqaruvini (podshohlikni), aristokratiya va politiyani ko'rsatadi. Shunga muvofiq ravishda tiraniya, oligarxiya va demokratiyani u noto'g'ri va xato boshqaruv shakllari deb hisoblaydi. Arastu eng yaxshi va ideal davlat shakli deb politiyani ko'rsatadi. Politiyada davlatni umumiy manfaat yo'lida ko'pchilik boshqaradi. Bu boshqaruv oligarxiya va demokratiyaning uyg'unlashgan shakliga o'xshash bo'ladi. Arastu Politiya xos bo'lgan mulkdorlar va mulksizlarning, boylik va erkinlik kabi manfaatlarining bunday birlashuvi juda ko'plab davlatlarga xosligini ta'kidlaydi.

Arastu yuqori hokimiyat qonunga emas, xalqga bog'liq bo'lgan o'ta demokratiyani tanqid qilar ekan, boylar va kambag'allar murosasiga, qonun ustuvorligiga asoslangan mo'tadil demokratiyani qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ham u Solon islohotlariga yuksak baho beradi.

Arastuning politiyasi oligarxiya va demokratiyaning eng yaxshi jihatlarini o'zida ifoda etadi. Ayni chog'da bu politiya ularning kamchiliklaridan ham xolidir. Politiya - davlatchilikning "o'rta" shakli va unda "o'rtachalik" hamma narsada ko'rinadi: axloqda - mo'tadillik, mulkda - o'rtacha farovonlik, hukmdorlikda - o'rta tabaqa va hokazo. Arastu "o'rtacha" kishilardan iborat bo'lgan davlat eng yaxshi davlat tuzumiga ega bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Arastuning o'rta bo'g'inga suyangan jamiyat afzalliklari haqidagi bunday qarashlari O'zbekistonda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun harakat borayotgan hozirgi paytda ayniqsa ahamiyatlidir. «Ayni o'rta mulkdorlar sinfi shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir. Bu o'rinda gap, agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday davlatning demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi hisoblansa, real ishlab chiqarish vositalarining o'rta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlamning mavjud bo'lishi uning siyosiy asosi ekanligi haqida bormoqda. Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o'rta qatlamining ko'pchilikni tashkil etishi mamlakatda ijtimoiy-

iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi.

Shu sababli biz iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini respublikada o'rta mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani hal qilish bilan bog'lamoqdamiz. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb his etmas ekan, o'z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun mulkdor sifatida kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi».<sup>19</sup>

Zotan, Arastu fikriga ko'ra, lozim darajadagi tenglikning yo'qligi davlatni parokandalik sari yetaklaydi. Bunday hol odatda nisbiy tenglikning hamda siyosiy adolat prinsipining buzilishi oqibatida kelib chiqadi (tenglik birinchi holatda miqdor bilan o'lchansa, ikkinchisida - qadr-qimmat bilan o'lchanadi).

Aristokratiya va politiya hukmronlik qilgan tuzum- davlatning to'g'ri shakllari bo'lib, unda bitta shaxs, ozchilik yoki ko'pchilik hokimiyatdan umumiy baxtsaodat, umumiy foyda, manfaatlar yo'lida foydalanadi. U o'z davridagi mavjud davlat tuzumlarining nazariyalarini, shakllarini tanqid qilgan holda, ularga o'zining ideal davlat loyihasini qarama-qarshi qo'yadi. Uning fikricha, ideal davlat qurish uchun mavjud tuzumni ag'darish, insonni qayta tarbiyalash talab qilinmaydi.

Shunday davlat tuzumini joriy etish kerakki, u mavjud shart-sharoitda maqbul bo'lsin. Davlat tuzumini yaxshilash uni qurishdan ko'ra osondir. Bu yerda yaxshi qonunchi va haqiqiy siyosatchi davlatning muayyan sharoitlariga mos keldigan, nisbatan yaxshi shakllarini ham nazarda tutishi lozim .

Mavjud davlat tuzumining shakllarni takomillashtirishda siyosiy rahbar davlat tuzumining umuman qancha turi borligini bilishi kerak. Shuning uchun Arastu ilgari surayotgan ideal davlat loyihasida Qadimgi Yunonistonda ma'lum bo'lgan davlatning barcha tiplari ko'rib chiqilgan. Arastuning fikricha, davlatdagi siyosiy tuzumga alohida e'tibor berish zarur, chunki aynan siyosiy tuzumda

---

<sup>19</sup> Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet

davlatni boshqarish asoslari yotadi va u davlatda oliy hokimiyat deb qayd etiladi. Siyosiy tuzum qonun hukmini koʻzlaydi, qonun hukmronlik qilmagan yerda siyosiy tuzum mavjud boʻlmaydi. Hokimlar hokimiyatni boshqarishda va mazkur davlat shaklini himoya qilishda, qonunlarni buzuvchilarga qarshi kurashda qatʼiy amal qilishlari lozim. Qonun hukmron boʻlgan joydagina adolat qaror topishi mumkin. Adolat - siyosatning maqsadidir. Adolat umumiy baxt-saodat boʻlishi bilan birga umumiylikka tegishli adolatli qismlarga mos boʻlishi lozim. Teng adolatlilik butun davlatga foydali boʻlishi bilan birga, barcha fuqarolarga ham tegishli boʻladi.

Arastu adolatning ikki xil, yaʼni tenglashtiruvchi va taqsimlovchi koʻrinishini farqlaydi. Tenglashtiruvchi adolat mezoni “arifmetik tenglik” boʻlib, bu tamoyil fuqaroviy-huquqiy kelishuvlar, oldi-sotdilar, zararni qoplash, jazolash singari sohalarda qoʻllanadi. Taqsimlovchi adolat mezoni esa “geometrik tenglik”dan kelib chiqib, yetishtirilgan neʼmatlarni har kimning qoʻshgan hissasiga qarab taqsimlashni bildirgan. Bu holda tegishli narsalarga (hokimiyatga, hurmatga, moddiy boylikka) boshqalar bilan teng yoki teng boʻlmagan miqdorda egalik qilish mumkin.

Tenglashtiruvchi adolat ikki qismga boʻlinadi. Ayrim ijtimoiy munosabatlar erkin tarzda malga oshadi, masalan:, oldi-sotdi, qarz berish va shunga oʻxshash..., erkin boʻlmagan munosabatlarga -oʻgʻrilik, oʻziga ogʻdirish, shikast yetkazish, yolgʻon guvohlik berish, haqorat kabi holatlar kiradi. Shunday ekan, amaliyotchi kishilar, davlat boshliqlari har doim adolat yuzasidan ish koʻrishlari lozim. Zero, siyosat aynan yaxshi qonunlar chiqarish, davlatni boshqarishning eng yaxshi tuzilishi bilan shugʻullanishi lozim. Siyosiy boshqaruv, Arastu nuqtai nazariga koʻra, odamlar tomonidan emas, balki qonun tomonidan boshqaruvdir. Chunki odamlar, hatto eng yaxshilari ham, tuygʻu va ehtirosga moyildirlar, qonun esa birday oʻzgarmasdir. Demak, ideal davlatning asosiy jihati shundaki, bu davlatda har qanday faoliyat qonun asosida amalga oshirilishi lozim. Arastu siyosiy tuzumdagi uch huquq toʻgʻrisida fikr yuritgan: Qonun chiqaruvchi huquq, maʼmuriy huquq va sud huquqi.

Arastu o'zining huquqiy qarashlarida Suqrot va Aflotunlarning adolat va qonun aynan bir degan g'oyasiga qo'shiladi. Huquq o'zida adolatni aks ettiradi va kishilar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar me'yori bo'lib xizmat qiladi. Umuman, siyosiy ma'nodagi huquqni Arastu "siyosiy huquq" deb ataydi. Bu esa siyosiy bo'lmagan huquq yo'qligini, siyosiy bo'lmagan, ya'ni zulmga, istibdodga asoslangan boshqaruv shakllarida huquq bo'lmasligini anglatadi. Adolat haqida fikr yuritganda esa, eng avvalo, adolatni axloqiy fazilat sifatida ulug'lagan. "Adolatsizlik deb qonunni buzuvchilarga, boshqalardan ortiqroq oluvchi va boshqalarga teng munosabatda bo'lmaydiganlarga nisbatan ishlatilgan. Arastuning fikricha, "Qonunga yarasha ish qiluvchi, barchaga barobar qarovchi kishigina adolatlidir".

Fuqarolik jamiyatiga Arastu bergan ta'rif Rim respublikasiga ham to'la-to'kis taalluqlidir. Bu yerda "societaz civilaz" so'zlari ostida Rim imperiyasi hududida yashovchi qullardan shuningdek, boshqa xalqlardan farqli o'laroq rimda yashovchi to'la huquqli fuqarolar uyushmasi tushunilar edi. <sup>20</sup>Rimdagi siyosiy tuzum g'oyasi respublika g'oyasi edi, ya'ni umumiy farovonlik xususiy farovonlikka qaramaqarshi qilib qo'yilgan edi. Fuqarolik jamiyatining asosiy ma'nosi umumiy foydadan iborat edi. Antik davrda bu tushunchaning mazmunini shakllantirish jarayoni insonning fuqaro sifatidagi fe'l-atvoriga beriladigan ma'naviy-odobiy baho bilan chambarchas bog'liq edi. O'sha paytdan boshlab qaror topgan inson bilan fuqaroning qiyosi asrlar osha o'tib, Inson va fuqaro deklarasiyasiga (1798 y) va inson huquqlari umumjahon deklarasiyasiga(1948 y) kiritildi.<sup>21</sup>

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy asarlarida xalq hokimiyati va hatto demokratiya ehtimoliga ochiq-oydin shama qilinadi, chunonchi mutafakkirning uqtirishicha jaholatli shaharlarning barcha turlari orasida jamoa shahri

---

<sup>20</sup> Рукавишников В. О. Политический культуры и социальные изменения. Мировые отношения. – М., 1998. 82-бет.

<sup>21</sup> Горелов И.Н. Невербальные компоненты гражданского общества. -М., 1980, 348 с.



demokratik boshqaruvga juda yaqin turadi, bu shaharning aholisi mutlaqo teng huquqli bo'lib erkin harakat qiladi, qaramlik va tobelik munosabatlariga o'rin yo'q, yaqin va olis kishilar ustidan hukmronlikka da'vo qilmaydi. Shaharning bu turi jaholatli shaharlar orasida eng kattasidir, chunki hamma tomondan odamlar bu yerga oqib keladi, natijada unda ko'p odam to'planib qoladi, ular orasida sahovatli ahloq sohiblari ham bo'ladi. "Shu sababli, - deb uqtiradi Forobiy, - bir vaqt kelib unda eng munosib kishilar yetishib chiqishi ehtimodan holi emas... Bunday shahardan sahovatli shahar qismlari ajralib chiqishi mumkin". Forobiyning siyosiy-huquqiy qarashlaridagi demokratik unsurlarni ta'kidlash bilan birga quyidagilarni ta'kidlamoq kerak: mutafakkir "jaholatli shaharlar"da, kam rivojlangan mamlakatlarda, madaniy tamaddundan yiroq xalqlarda xalq hokimiyati mutlaqo nomaqbuldir, deb hisoblagan. Forobiydagi ziddiyat shundan iboratki, bir tomondan u yakka va shaxsiy erkinlikka xayrihoxlik bilan qaragan bo'lsa, ikkinchi tomondan adolat va teng huquqiylikka "qattiq qo'l" (ammo dono) hukmdorning qat'iy rahbarligi va rahnomoligi bilan erishishga chaqirdi. Mutafakkir nazaridagi sahovatli shaharda san'at, fan turlarini, kasb-korni, ko'ngil ochar tadbirlarni erkin tanlash imkoniyati mavjud; yaxshi xulq-atvorlar, odat va an'analar hukmron; aholi har qanday zo'ravonlikni rad etadi, eng iste'dodli, yuksak ma'naviyatli va eng maqbul kishilarni hukmdorlikka ko'taradi; fuqarolar o'z vatanini dushmandan himoya qilishga o'z yurtida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga tayyor va qodir. Forobiy erkinlik va teng huquqlikni umumbashariy qadriyatlar, deb hisobladi, ammo, yuqorida aytilganidek, boshboshdoqlikka yo'l qo'ymaydigan va ezgu fazilatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qodir bo'lgan qattiq qo'l boshqaruvisiz yalpi baxt-saodatga erishib bo'lmaydi, deb o'ylagan. U ijtimoiy adolatni ijtimoiy turmush me'yori deb, shaharning butun aholisi foydalanadigan umumiy ne'matlarni odilona taqsimlanishi deb taqsimlangan ne'matlar saqlanib qolishining garovi, deb tushungan. Shunday qilib, Forobiy ta'limotiga ko'ra adolat va imkoniyatlar va taqsimotdagi tenglikdir.

Fuqarolik jamiyatida - shahar-davlat ikki usulda boshqariladi: birinchisi,

haqiqiy boshqaruv bo'lib, unda fuqarolarning chinakam farovonligiga olib boradigan turmush, ijtimoiy harakatlar, ma'naviy me'yorlar va o'zaro hurmat qaror topgan bo'ladi, odamlarning bunday uyushmasi, aslida, mohiyati va ahamiyati jihatidan eng maqbuldir, ikkinchisi, sohita boshqaruv bo'lib, unda qaror topgan inson hayoti, ijtimoiy munosabat, ahloq odob qoidalari va ijtimoiy tabaqalanish tiplari faqat baxt-saodatga yetakchi bo'lib tuyulsada, aslida bu maqsaddan chalg'itadi. Soxta boshqaruv usuli jaholatli davlatlarga xosdir.<sup>22</sup>

Fuqarolik jamiyati, jumladan, uni boshqarish ikki xil tarzda sodir bo'ladi: birinchisi - ijtimoiy muassasalarning mavjudligi va amaliy faoliyati umumiy qonunlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirish bo'lsa, ikkinchisi - mamlakatdagi va boshqa joylardagi jamoat muassasalarining amaliy faoliyat tajribasini yig'ish, taqqoslash va targ'ib qilishdir. Forobiyning fikricha, nazariy bilimlar bilan amaliy tajribani, albatta, birga qo'shish tufayli fuqarolik jamiyatini barpo etishning oliymaqom modelini yaratish mumkin. Forobiy davlat bilan jamiyat o'rtasidagi tavofutni anglagan holda, o'z davridagi ijtimoiy tuzilmani batafsil tadqiq qiladi. U ijtimoiy tabaqalanish yashab kelayotganligi, mavjudligi va istiqbollari mutlaqo tabiiy bir hol deb hisoblab, bo'ysunduruvchilar va bo'ysunuvchilarning bir necha kategoriyasini ajratib ko'rsatagan, holda shunday yozadi: "Shaharda muayyan inson-boshliq bor va o'z tabaqalariga ko'ra shu boshliqqa yaqin boshqa kishilar ham bor, shu kishilarning har biri o'z mavqeyi, qobiliyatiga ko'ra boshliq belgilab bergan maqsadga muvofiq harakat qiladi. Bu kishilar birinchi pillapoyada turadi, ulardan keyingi kishilar birinchilarning maqsadlariga muvofiq harakat qiladilar va ikkinchi pillapoyani egallaydilar. Ulardan keyingi kishilar o'zlaridan oldingi pillapoyalarning maqsadlariga binoan harakat qiladilar. Shu tariqa shahar uyushmasining turli a'zolari o'zidan oldingilarning maqsadlariga muvofiq harakat qiladigan tartibda joylashadilar, so'ngilar faqat xizmat qiladilar, ammo ularga hech kim xizmat qilmaydi. Ular eng quyi pillapoyani egallaydilar va eng

---

<sup>22</sup> Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации //Человек, 1992, № 2, С. 51 -65.

quyi holatda turadilar”. Forobiy ta’limotida fuqarolik jamiyatining muntazam konsepsiyasi borligiga, bunday jamiyat bilan shariat davlati bir-biriga bog‘liqligiga birinchi bo‘lib arab tadqiqotchilari e’tiborni qaratdilar. Masalan, F.Z.Muhammad ta’kidlaganidek, Forobiy xalq bilan davlat boshlig‘i o‘rtasidagi kelishuvni davlat tashkilotining negizi deb hisoblagan edi. “Forobiyning nazarida jug‘rofiy va madaniy aloqalar odamlarning boyigan guruhiga birgalikda faoliyat yuritishi, tinch-totuv yashash va siyosiy tashkilot tuzish imkonini beradigan omillardir. Shunday tashkilot tuzilmaguncha, odamlarga doimo tashqaridan tahdid qilib turildi, ular bir-biri bilan adovatda bo‘ldi va adolatsizlik sharoitida yashadi”, - deb yozadi F.Z.Muhammad. Ma’lumki, arab xalifaligi juda katta hududdagi davlat bo‘lib, turli mamlakat va xalqlarni islomning yashil bayrog‘i ostida birlashtirgan edi. Tarqoq feodal yerlarini markazlashtirish, yakka xudolik dinining tamaddun uchun ustinliklari, ancha yuqori arab-fors madaniyatining hamma joyga, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida tarqatilishi nuqta nazaridan musulmon dini umuman ijobiy rol o‘ynadi. Ana shunday sharoitda Forobiyning sxolastika va aqidaparstlikka qarshi bo‘lgan nazariyasi uzoq muddat davomida jamiyatdagi aql-idrokka ta’sir o‘tkazib, chuqur va ilg‘or insoniylik mazmunini namoyon etib turdi.

Forobiyning fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi nazariyasi shu bilan farqlanadiki, avvalo u ham yunon, ham arab mutafakkirlarining juda katta ilmiy merosiga tayanadi. Forobiy mashhur iborani boshqacha tarzda ifodalab, qanday va qay tarzda yashashni bilmoq uchun, dunyoning butun majmuasini idrok etish va tadqiq qilish, insonning undagi o‘rnini aniqlash, uning yashash ma’nosini belgilash, o‘zgarishlarning nazariy asosini ta’riflash, faqat shundan keyingina barcha fuqarolarning kuchi bilan sahovatli shahar qurishga kirishishi kerak, deb hisoblagan edi. “O‘z tabiatiga ko‘ra har bir inson shunday yaratilgandirki, - deydi. Forobiy - u o‘z hayotini ta’minlash va oliy kamolotga erishish uchun ko‘pgina buyumlarga muhtoj bo‘ladi, bu buyumlarni u bir o‘zi yarata olmaydi va ularga erishmog‘i uchun har biri umumiy xazinadan o‘z ehtiyojiga kerakli qandaydir buyumni yetkazib beradigan odamlarning muayyan

hamjamiyatiga muhtoj bo'ladi. Ravshanki, Forobiy nazarida shaxs - ijtimoiy mavjudotdir; u "ko'p kishilarning bitta yashash joyida birlashuvi orqali shu uchun zarur imkoniyat olishi va oliy kamolotga erishishi mumkin". Forobiy fuqarolik jamiyatining sifat va miqdor xususiyatlarini ta'riflab berganligi, bu jamiyatni to'liq va chala jamiyatlarga ajratganligi ham ma'lum. Ikki tipning mukammalligi asosan o'zaro birlashgan kishilarning miqdori hisobiga ortib boradi. Chala jamiyat uch pog'ona: oila, qishloq, shahar mahallasidan iborat. To'liq jamiyat ham uch turni: shahar ("kichik jamiyat"), xalq ("o'rta jamiyat") va insoniyat ("buyuk jamiyat")ni o'z ichiga oladi.<sup>23</sup>

"Agar biron-bir holatda rahbarlikda donishmandlik yo'q bo'lib qolsa, - deb yozadi Forobiy, - hatto u boshqa hamma shartlarga javob berganda ham, sahovatli shahar-davlat-siz qoladi, shaharni boshqaruvchi boshliq esa hokim bo'lolmaydi, shaharning o'zi esa halokat yoqasiga borib qoladi". Fuqarolik jamiyatida turli xalqlar yashaydi, deb yozadi Forobiy, - ulardan har birining uch belgisi: "tabiiy fe'l-atvori", "tabiiy xarakter belgilari" va "tabiiy tili" bir-biridan farq qiladi. Forobiy xalqlarning bunday xilma-xilligiga asosiy sabab qilib, ajabtovur bo'lsa ham, samoviy jismlar qismlarining samodagi sferaga nisbatan, qo'zg'almas yulduzlar sferasiga nisbatan holatidagi tavofutni ko'rsatadi; og'ma sferalarning yer qismlariga nisbatan holatlarida farq bo'ladi, deb hisoblaydi. "Bunday tavofut, avvalo, yer mazkur qismlari tepasida birinchi sfera qismlarining holatidagi farq bilan, so'ngra esa ular tepasida qo'zg'almas yoritkich holatidagi farq, so'ng ularning og'ma sferalari holatidagi farq bilan bog'liqdir. Yerdan ko'tariladigan bug'lanishning farqi yer qismlarining farqi bilan bog'liq bo'ladi, yerdan chiqadigan bug'lanishlarning har biri shu yerning o'ziga o'xshaydi. Havoning farqi va suvlarning farqi bug'lanishlarning farqi bilan bog'liq bo'ladi. So'ng, aytishlaricha, yerning har bir joyidagi suv shu joyning yer ostidagi bug'lanishlardan hosil bo'ladi. Yerning har qanday joyidagi havo yerdan osmonga ko'tariladigan bug'lanishlar bilan aralashadi. Qo'zg'almas

---

<sup>23</sup> Горелов И.Н. Невербальные компоненты гражданского общества. -М., 1980, 348 с.

sayyoralar sferalarining farqi, birinchi sferadagi farq, og‘ma sferalar holatining farqi, havoning farqi, suvlarning farqi, o‘simliklarning farqi, aqlsiz jonivor turlarining farqi, xalqlarning ovqatlanishidagi farqi ham shu tartibda davom etaveradi. Ularning ovqatlanishdagi farq odamlar avloddan avlodga ko‘nikib qolgan chorva va o‘simliklarning farqi bilan bog‘liqdir. Shundan keyin fe‘l-atvorlarning farqi va tabiiy xarakter xususiyatlarning farqi keladi. Xuddi shuningdek u yoki bu xalqlar tepasidagi osmon qismlarining farqi fe‘l-atvorlardagi va xarakter xususiyatlardagi farqlarning sababidir. So‘ng mazkur farqlarning o‘zaro ta’siridan va qo‘shilishidan hosil bo‘lgan turli qorishmalar xalqlarning fe‘l-atvorlari va xarakter xususiyatlari o‘zgarishiga ko‘maklashadi. Shunday qilib, bu sohada ham mazkur tabiiy narsalarning birlashuvi, ularning bir-birlari bilan turli bosqichlardagi qo‘shilishi sodir bo‘ladi, shu yo‘l bilan samoviy jismlar ularning mukamallashuviga ko‘maklashadi”.

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy asarlarida xalq hokimiyati va hatto demokratiya ehtimoliga ochiq-oydin shama qilinadi, chunonchi mutafakkirning uqtirishicha jaholatli shaharlarning barcha turlari orasida jamoa shahri demokratik boshqaruvga juda yaqin turadi, bu shaharning aholisi mutlaqo teng huquqli bo‘lib erkin harakat qiladi, qaramlik va tobelik munosabatlariga o‘rin yo‘q, yaqin va olis kishilar ustidan hukmronlikka da’vo qilmaydi. Shaharning bu turi jaholatli shaharlar orasida eng kattasidir, chunki hamma tomondan odamlar bu yerga oqib keladi, natijada unda ko‘p odam to‘planib qoladi, ular orasida sahovatli ahloq sohiblari ham bo‘ladi. “Shu sababli, - deb uqtiradi Forobiy, - bir vaqt kelib unda eng munosib kishilar yetishib chiqishi ehtimodan holi emas... Bunday shahardan sahovatli shahar qismlari ajralib chiqishi mumkin”. Forobiyning siyosiy-huquqiy qarashlaridagi demokratik unsurlarni ta’kidlash bilan birga quyidagilarni ta’kidlamoq kerak: mutafakkir “jaholatli shaharlar”da, kam rivojlangan mamlakatlarda, madaniy tamaddundan yiroq xalqlarda xalq hokimiyati mutlaqo nomaqbuldir, deb hisoblagan edi. Forobiydagi ziddiyat shundan iboratki, bir tomondan u yakka va shaxsiy erkinlikka xayrihoxlik bilan qaragan bo‘lsa, ikkinchi tomondan adolat va teng huquqiylikka “qattiq qo‘l”

(ammo dono) hukmdorning qat'iy rahbarligi va rahnomoligi bilan erishishga chaqirdi.

Mutafakkir nazaridagi sahovatli shaharda san'at, fan turlarini, kasb-korni, ko'ngil ochar tadbirlarni erkin tanlash imkoniyati mavjud; yaxshi xulq-atvorlar, odat va an'analar hukmron; aholi har qanday zo'ravonlikni rad etadi, eng iste'dodli, yuksak ma'naviyatli va eng maqbul kishilarni hukmdorlikka ko'taradi; fuqarolar o'z vatanini dushmandan himoya qilishga o'z yurtida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga tayyor va qodir.

Forobiy erkinlik va teng huquqlikni umumbashariy qadriyatlar, deb hisobladi, ammo, yuqorida aytilganidek, boshboshdoqlikka yo'l qo'ymaydigan va ezgu fazilatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qodir bo'lgan qattiq qo'l boshqaruvisiz yalpi baxt-saodatga erishib bo'lmaydi, deb o'ylagan edi. U ijtimoiy adolatni ijtimoiy turmush me'yori deb, shaharning butun aholisi foydalanadigan umumiy ne'matlarni odilona taqsimlanishi deb taqsimlangan ne'matlar saqlanib qolishining garovi, deb tushunar edi. Shunday qilib, Forobiy ta'limotiga ko'ra adolat-imkoniyatlar va taqsimotdagi tenglikdir.<sup>24</sup>

Fuqarolik jamiyati - shahar-davlat ikki usulda boshqariladi: birinchisi, haqiqiy boshqaruv bo'lib, unda fuqarolarning chinakam farovonligiga olib boradigan turmush, ijtimoiy harakatlar, ma'naviy me'yorlar va o'zaro hurmat qaror topgan bo'ladi, odamlarning bunday uyushmasi, aslida, mohiyati va ahamiyati jihatidan eng maqbuldir, ikkinchisi, sohita boshqaruv bo'lib, unda qaror topgan inson hayoti, ijtimoiy munosabat, ahloq odob qoidalari va ijtimoiy tabaqalanish tiplari faqat baxt-saodatga yetakchi bo'lib tuyulsada, aslida bu maqsaddan chalg'itadi. Soxta boshqaruv usuli jaholatli davlatlarga xosdir.

Fuqarolik jamiyati, jumladan, uni boshqarish ikki xil tarzda sodir bo'ladi: birinchisi - ijtimoiy muassasalarning mavjudligi va amaliy faoliyati umumiy

---

<sup>24</sup> Cobley, Paul (2008-06-05), "Sivil society: Definitions and Concepts", in Donsbach, Wolfgang (ed.), *The International Encyclopedia of Communication*, Chichester, UK: John Wiley & Sons, Ltd, pp. wbiecc071, doi:10.1002/9781405186407.wbiecc071, ISBN 978-1-4051-8640-7, retrieved 2021-07-20

qonunlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirish bo'lsa, ikkinchisi - mamlakatdagi va boshqa joylardagi jamoat muassasalarining amaliy faoliyat tajribasini yig'ish, taqqoslash va targ'ib qilishdir. Forobiyning fikricha, nazariy bilimlar bilan amaliy tajribani, albatta, birga qo'shish tufayli fuqarolik jamiyatini barpo etishning oliymaqom modelini yaratish mumkin.

Forobiy davlat bilan jamiyat o'rtasidagi tavofutni anglagan holda o'z davridagi ijtimoiy tuzilmani batafsil tadqiq qiladi. U ijtimoiy tabaqalanish yashab kelayotganligi, mavjudligi va istiqbollarini mutlaqo tabiiy bir hol deb hisoblab, bo'syunduruvchilar va bo'syunuvchilarning bir necha kategoriyasini ajratib ko'rsatadi, u jumladan bunday deb yozadi: "Shaharda muayyan inson-boshliq bor va o'z tabaqalariga ko'ra shu boshliqqa yaqin boshqa kishilar ham bor, shu kishilarning har biri o'z mavqeyi, qobiliyatiga ko'ra boshliq belgilab bergan maqsadga muvofiq harakat qiladi. Bu kishilar birinchi pillapoyada turadi, ulardan keyingi kishilar birinchilarning maqsadlariga muvofiq harakat qiladilar va ikkinchi pillapoyani egallaydilar. Ulardan keyingi kishilar o'zlaridan oldingi pillapoyalarning maqsadlariga binoan harakat qiladilar. Shu tariqa shahar uyushmasining turli a'zolari o'zidan oldingilarning maqsadlariga muvofiq harakat qiladigan tartibda joylashadilar, so'ngilar faqat xizmat qiladilar, ammo ularga hech kim xizmat qilmaydi. Ular eng quyi pillapoyani egallaydilar va eng quyi holatda turadilar". Forobiyning fuqarolik jamiyati "tabiiy" sabablar bilan asoslangan bo'lishiga qaramay odamlar o'rtasidagi tabaqaviy, sinfiy tavofutlarni saqlab qoladi. Ideal sahovatli shaharda hukmdor ham, jamoat birlashmasi boshlihining roziligi bilan amaliy harakat qiladigan fuqarolar ham bor. Mazkur fuqarolar ijtimoiy tabaqaning yuqori pog'onasini egallaydilar, deb ta'kidlaydi Forobiy. Ular ketidan birinchi pog'onadagilarning maqsadlarini amalga oshiradiganlar, o'zidan yuqori pog'onadagilarning maqsadini amalga oshiradiganlar va hokazolar mavjud bo'lib oxirgilari eng past tabaqada turadigan kishilardir.<sup>25</sup>

---

<sup>25</sup> Harper, Douglas. "communication". [Online Etymology Dictionary](#). Retrieved 2013-06-23

Musulmon Sharqining boshqa ko'pgina atoqli islohotchi, ma'rifatparvarlari kabi Forobiyning ham ijtimoiy turmushni ijtimoiy utopiya (hayot) asosida qayta qurish yo'lidagi urinishlari oliy darajada maqtovg'a loyiqdir. Biz, sovet ilmiy adabiyotida qilinganidek, Forobiy ta'limotining aniq mazmunini xayoliy puch bir narsa, deb aytishga haqimiz yo'q, u ijtimoiy taraqqiyotning chuqur sabablarini hozirgidek tushunmagan, deb uning odamlar hayotini o'zgartirish yo'llari to'g'risidagi tasavvurini kamsitmoqchi emasmiz. "Aql-idrokning yalpi hukmronligi" bir orzu va oliy maqsad bo'lib, o'zidan ham dadilroq g'oyalar va yo'l-yo'riqlarga zamin yaratdi.

Forobiyning fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariyasi mutafakkirning barcha izdoshlari qarashlariga juda katta ta'sir o'tkazdi. Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd ham insonni fuqarolarga xos hislatlarga ega bo'lgan mavjudot deb tan olib, odamlarning sahovati va qobiliyatlari faqat birgalikda yashagandagina rivojlanadi, deb hisobladilar. Chunonchi, Beruniyning ta'kidlashicha, inson "Ehtiyojlari ko'pligi va sabr-qanoati kamligi oqibatida himoya vositalaridan mahrumligi va dushmanlarning ko'pligi sababli muqarrar ravishda o'zaro yordamlashish hamda o'zini va boshqalarni ta'minlaydigan ishlar bilan shug'ullanish uchun elatlari bilan bir jamiyatga birlashishga muqarrar majbur bo'lgan". Ibn Sino esa bunday deb yozgan: "Inson boshqa mavjudotlardan shu bilan farq qiladiki, agar u o'zining eng zarur ehtiyojlarini qondirishda yordam beradigan madadkorga tayanmay yakkalanib, bir o'zi yashasa, o'z ishlarini faqat o'zi bajarsa, omon-eson qola olmagan bo'ladi". Averroes asarlarida ham Forobiyning ijtimoiyotga xos ba'zi g'oyalari seziladi: "hammadan ko'ra ko'proq mukammalik birgalikda olingan ko'pgina individlarda mavjud bo'ladi, deb yozgan edi Ibn Rushd. - Ayrim individ uchun boshqalarning yordamisiz biron-bir sahovatni qo'lga kiritib bo'lmasligi ravshan. Inson sahovatga erishmoq uchun boshqa kishilarga muhtoj bo'ladi, shu sababli u o'z tabiatiga ko'ra fuqaro mavjudotdir". Forobiy ijtimoiy turmush kamchiliklari va illatlarini tanqid qilganida uni tubdan qayta qurishni aslo talab qilmaganligi, balki uni



takomillashtirish tarafdori bo'lganligi tushunarli. Forobiyning asarlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ularda asosini ideal davlat tashkil etish haqidagi qarashlar o'rin olgan, odil jamiyatning qonun-qoidalarini ishlab chiqishga katta o'rin berilgan edi. Forobiy o'z qarashlari va fikrlarining hayotiylikiga qaramai, ko'p asrlar muqaddam davlat demokratik ko'rinishini; tuzilma va mazmun sifatlarini

ilg'ab oladigan hamda ko'rsatib beradigan qator elementlarni kamrab olgan o'z fenomenining u yoki bu darajada kengaytirilgan tuzilishini nazariy jihatdan qurishga muvaffaq bo'ldi. Masalan, u sanab o'tadigan podsholik, kiborlik, diktatura kabi boshqaruv shakllari ro'yxatida demokratiyani, ya'ni "boshliq ham, tobe ham bo'lmaydigan" xalq hokimiyatini farqlab ko'rsatadi.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi davlat, uning qurilishi va boshqaruvi bilan bog'liq g'oyalari katta ahamiyatga ega. Forobiy o'z faoliyatida o'z davri uchun ilgari ketgan yuksak darajadagi (ideal) davlat qurilishi haqidagi nazariyaga tayangan holda, fozil jamiyat qurish tamoyillarini tahlil etgan.<sup>26</sup>

Mutafakkir orzusidagi ushbu ideal davlat g'oyasini nazariya sohasida o'z aqliy salohiyatining yaxlit tizimini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu fozil davlat haqidagi qarashlar, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurilishi va boshqaruvining tuzilmaviy jihatlari, mazmun va mohiyatini, hamda imkoniyatlarini ochib beruvchi qator g'oyalarni o'z ichiga olgan ta'limotligi bilan ham qimmatlidir. Bunday davlatda "aholi insonning haqiqiy turmushi, uning yashashi, taminoti va salomatligini saqlashiga daxldor eng yuksak mezonlarga erishishda "bir-biriga ko'maklashadi" va "barcha o'z xizmatlariga yarasha boylikdan ulush olishi kerak, aks holda bu adolatsizlik bo'ladi". Forobiy ta'limoti davlat va jamiyatga sharqiy utopik qarashga asos soldi va ta'limot

---

<sup>26</sup> Peters, John Durham (1999). *Speaking into the air : a history of the idea of Sivil society*. Chicago: University of Chicago Press. p. 2. ISBN 0-226-66276-4. OCLC 40452957.

keyinchaliy olimning turli sohalardagi qarashlari olimlar tomonidan o'rganilgan va tatbiq etilgan.

Ular o'z zamonlarining haqiqiy voqealari va amaliyotidan kelib chiqib, bu talimotga ko'plab yangi muhim jixatlarni, aniqliklarni kiritdilar, qator qoida va prinsiplarini oydinlashtirdilar. Masalan, Koshifiy siyosatsiz va boshqaruvsiz davlat bo'lmaydi, chunki ularsiz "dunyoning muhim ishlari tartibli olib borilmaydi. Agarda tarbiya va jazo to'grisida qonun bo'lmasa, davlatning ishlariga putur yetadi" deb xisoblanadi.

U boshqaruvning ikki turini: o'z qalbini boshqarish va tobelarni (fuqarolarni) boshqarishni farqlaydi. Davlat apparatining murakkab tuzilmasiga, uni boshqarishdagi ulkan qiyinchilikka e'tiborni qaratadi. Davoniy esa, davlatsiz jamiyatda tartib o'rnatish mumkin emas, deb hisoblaydi. Uning fikricha, boshqaruv bo'lmasa o'zaro qo'llab-quvvatlash tartibga tushmaydi, har bir kishi o'z manfaatlaridan kelib chiqib boshqa kishiga zarar yetkazadi.

Bu kelishmovchiliklarni bartaraf etish mumkin. Ammo buning uchun hokimiyat ularning tanqidiy materiallaridan vaziyatni yaxshilash yulida foydalana olishi va ular bilan kelishgan xolda ishlashi talab etiladi. Zero, bugungi kunda davlatimiz oldida turgan muhim muammolarni hal etishda sharq mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy merosidan foydalanish, o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz lozim.



## II BOB. FUQAROLIK JAMIYATI MODELLARI KLASSIFIKATSIYASI

### 2.1 FUQAROLIK JAMIYATI MODELLARI TASNIFI

Ijtimoiy fanlarda davlat va siyosiy hokimiyat tushunchalari bir butun qaraladi, negaki Fuqarolik jamiyatiga asoslandan davlat hokimiyati oliy siyosiy hokimiyat tarzida namoyon bo'ladi. Hokimiyatga doir kundalik tasavvurlar uni "boshqaruv", "davlat hokimiyati" doirasi bilan cheklaydi. Bu leksikada ham o'z ifodasini topgan: Masalan, fransuz tilida hokimiyat (le pouvoir) — markaziy hokimiyatni ham anglatadi, inglizchada (the power) — (kuchli, qudratli) davlat ma'nosida ham qo'llanadi, nemischada (die Gewalt) — qudrat, zo'rlik ma'nolarida ham keladi. Ruschada "vlast" — boshliqni, "vlasti" esa — davlatning hokimlik muassasalarini bildiradi. O'zbek tilida "hokimiyat" so'zining ma'nolaridan biri — davlat boshqarmasi va "uning organlari; hukumat, siyosiy hukmronlikni anglatadi, "hokimiyat" tushunchasi "o'z izmiga yurgizuvchi, o'z fikrini o'tkazuvchi", hukmron ma'nolarida keladi.<sup>27</sup> Bu an'ana-barcha xalqlar "tarixiy taraqqiyotining muayyan davrlarida davlat - hokimiyatni o'z qo'lida to'liq mujassam etgan tashkilot bo'lganidan kelib chiqadi.<sup>27</sup>

Ammo siyosiy hokimiyatning davlatdan tashqari boshqa institutlarda ham mujassam bo'lishini kuzatish mumkin: siyosiy partiyalar, assotsiatsiyalar, OAVlari v.h. Shuning uchun ham hokimiyat — ijtimoiy hodisa sifatida — ko'p qirrali, ko'p o'lchovlidir. Bu — uning ta'riflarining xilma — xilligida namoyon bo'ladi. Ammo siyosat nazariyasi nuqtai nazaridan bu ta'rifning o'zi yetarli emas, Negaki, "davlat hokimiyati" tushunchasi mazmunida hokimiyatning yakka markazda to'planishi nazarda tutiladi va shu tariqa siyosatning amalda ko'p omilli ekanligini inkor etish, hisobga olmaslik mavjud. Bugungi kunda ham siyosiy hokimiyat eng ko'p darajada davlatda mujassamlashgan bo'lsa — da, jamiyatda siyosiy hokimiyatga kuchli ta'sir eta oladigan, yoki uni o'zida aks etuvchi boshqa institutlar ham mavjud (partiyalar, lobbi guruhlari, OAVlari, korporativ guruhlari, ijtimoiy harakatlar

---

<sup>27</sup> ["What Is Civil society?". 2012books.lardbucket.org](http://2012books.lardbucket.org). Retrieved 2021-03-23.

elitalar v.h.). Ushbu mavzu doirasida davlatning aynan siyosiy hokimiyatga doir jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Davlatni hokimiyat namoyon bo'lishi shakli tarzida qarash — siyosat nazariyasida yakka markazli va ko'p markazli davlat modellarini ajratish imkonini beradi. Tabiiyki, ko'p markazli davlat hokimiyati modeli demokratik siyosiy tizimlarda amal qilib, uning asosiy vazifasi — turli ijtimoiy hokimiyat qo'lamiga ega siyosiy kuchlar muvozanatini ta'minlash. Siz bilasizki, demokratik tizimlarda hokimiyat "dispersiya"si— "yoyilishi" hodisasi mavjud bo'lib, bu — ko'p ta'sir markazlarining mavjudligi davlatning zaiflashuviga emas, kuchayishiga olib keladi. Shunday qilib bu o'rinda gap hokimiyatning ko'pchilik qo'lida to'planishi to'g'risida ketadi. Ammo kuchli markaziy hokimiyatsiz mamlakatda qonun ustivorligini, tinchlikni ta'minlash, butun jamiyat samarali taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin emas. Barcha rivojlangan demokratiyalar-kuchli markazlashgan davlatga modelida davlatning o'ta markazlashishiga to'sqinlik qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan va ular amalda qo'llanadi. Bu mexanizm bir necha sohada amal qiluvchi kafolatlar tizimidan iborat. Quydagi ularga qisqacha to'xtalamiz.

· Siyosiy sohada siyosiy tizimini erkinlashtirish, hokimiyat bo'linishi tamoyillarini amalga oshirish, fuqorolik jamiyatini shakllantirish va hokimiyatning mahalliy organlari vakolatlarini kengaytirish. Bu kafolatlarning "ishlay boshlashi" hokimiyatning barcha darajalaridagi o'zaro munosabatlar mohiyatini tubdan o'zgartiradi.

· Iqtisodiy sohada-jamiyat mulkning turli shakllari mavjudligi, bozor munosabatlari qaror topish-iqtisodiy mustaqilligini oshirish va siyosiy hoyeimiyatning bu sohadagi ta'sir imkoniyatlarini ancha cheklaydi.

Huquqiy sohada –hokimiyat turli darajalarning vakolatlari qonun bilan belgilanishi va qonunning jamiyatda ustuvorligi ta'minlanishi.

Ijtimoiy sohada turli ijtimoiy qatlamlarga o'z manfaatlarini ifodalash uchun barcha sharoitlarning mavjudligi, fuqorolik jamiyatining mavjudligi; 1 Davlat hokimiyatining yakka markazli modeli (manarxiya, diniy, harbiy v.h. davlat)

hokimiyatning bir markazda to'planishini aks ettiradi. Hatto eng ilg'or jamiyatlarda ham davlat hokimiyatining yakka markazda to'planishga intilishi tendensiyasi kuzatiladiburokratiya, texnokratiya, meritokratiya).

Hokimiyatning yakka markazli modeli an'anaviy davlatchilikka xos. Xususan, qadimgi Xitoyda legizm nomi bilan mashhur bo'lgan ta'limot—davlatda yagona qonunchilik amal qilishi lozimligi va shu qonun oldida jamiyatdagi barcha tabaqalar va guruhlarning tengligi tamoyilini o'rnatish orqali markaziy hokimiyat tomonidan boshqariladigan va burch hamda ijtimoiy maqsadlarga sidqidildan xizmat qilishga qaratilgan davlatni yaratishni maqsad qilib qo'ygan. Bunday davlatda barcha qonun oldida teng: "mukofotlashning yagona qoidalari" — faqat xizmat natijalariga ko'ra belgilanishini, "jazolashning yagona qoidalari" — lavozim va avvalgi xizmatlari jazodan holi qilmasligini anglatgan.<sup>28</sup>

Legistlar davlat hududlarini ma'muriy qismlarga bo'lib, ularning markaziy hokimiyatga itoat etishini talab etganlar.

Mana shu kabi g'oyalar O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida ham keng tarqalgan. Xususan, Amir Temur imperiyasining tashkiliy tuzilishi va mazmuni—adolat, qonun ustivorligiga asoslanganligini yaxshi bilamiz. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi quyidagi fikr ham har sohada qonun amal qilishiga ajdodlarimiz qanchalik katta ahamiyat berganliklarini tasdiqlaydi: "qachonki podshohlik tartibi va siyosat qoidasi bir izga solinsa, adolat ishlari ham huddi shunday bo'ladi".

Agar an'anaviy **jamiyatlar** uchun "**davlat**" va "**jamiyat**" asosan mos tushunchalar bo'lsa, zamonaviy jamiyatlar, albatta shartli ravishda, davlat va fuqarolik jamiyatiga bo'lib o'rganiladi. Lekin har ikkala holda ham davlatning tabiatini aniqlashda uning umumiyligi yoki universaligi xususiyati ta'kidlanadi. Davlat — umumiy qadriyat. Insonlar bugungi kunda davlat shaklidan boshqa tarzda o'zlarining hamkorlikdagi hayotlarini tashkil eta olmaydilar. Odamlar nazarida

---

<sup>28</sup> Peters, John Durham (1999). *Speaking into the air : a history of the idea of Sivil society*. Chicago: University of Chicago Press. p. 2. ISBN 0-226-66276-4. OCLC 40452957.

davlat- nafaqat ularni birlashtirish uchun, balki alohida xalq (millat, jamoa) ma'naviyligini saqlash uchun ham zarurdir.

Davlat ega bo'lgak muhim belgi—suverenitetdir. Davlat suvereniteti to'g'risida so'z ketganda, jamiyatdagi barcha boshqa jamoa, gyph, tashkilotlar unga nisbatan quyi, tobe vaziyatni egallashi anglashiladi. Muayyan hududda davlat hokimiyatidan ustun hokimiyat yo'q. U barcha hokimiyatlar ustidan suverendir, boshqa barcha hokimiyatlar undan o'z legitimligini oladilar. Shuning uchun davlat suvereniteti quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

hududining birligi va bo'linmasligi;

hudud chegaralarining dahlsizligi;

— ichki ishlarga aralashmaslik.

Suverenitet ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki suverenitet — milliy hududda yashovchi va ushbu davlatning fuqarosi bo'lgan (yoki fuqarosi bo'lmagan) barcha odamlar ustidan hukmronlik qilish huquqi va vakolati. Tashqi suverenitet — mamlakat hududining yaxlitligi va tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashmasligini ta'minlashni anglatadi.

Zamonaviy nazariyalarda davlat suvereniteti cheksizligig'oyasi o'zgarib, u ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar tomonidan cheklanishi tamoyili kiritildi. Eng ko'p o'zgarishlarga bu tushuncha federativ tuzilishga ega davlatlarda uchraydi.

Davlatning umumiyliigi va universalligini ta'minlovchi yana bir muhim xususiyati — "qonundir. Ma'lum ma'noda qonun suverenitet ifodasidir. Faqat davlatgina butun jamiyat uchun majburiy qonunlarni ishlab chiqish huquqiga ega. Hokimiyat qonunda va qonun orqali muhim o'zgarishlarga uchraydi: u o'zboshimchalik va zulmdan — hamma uchun majburiy qoidaga aylanadi.

Qonun davlatdan ustun turadi, uning faoliyatini me'yorga soladi. Ammo har doim ham shunday bo'lgan emas. Qadimgi davrlarda qonun siyosiy hokimiyatni ifodalar edi (legistlarni eslang), keyinroq qonun hech kim o'zgartira olmaydigan an'anaga aylandi. Bir qator muhim g'oyalari bilan davlatchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim- Monteskye: "inson jamiyat qabul qilgan qarorlarni bajarishi lozim" degan aqidani, "inson ham, jamiyat ham qonunlarni bajarishlari lozim" degan

aqidaga o'zgartirdi. Shu tariqa birinchi bor, inson qo'liga uni jamiyat, davlat zo'ravonligidan himoya etuvchi qurol-qonun berildi.

Fuqarolik jamiyatining yana bir belgisi –uning ommaviy hokimiyatga, ya'ni muayyan ma'muriy-boshqaruv apparati va huquqiy-tartibot organlariga tayanishdir.<sup>29</sup>

Davlat-kuch, zo'rlik ishlatishning legitim huquqiga ega yagona siyosiy tashkilot. Buning uchun u maxsus vositalar (qurol, qamoqxona kabi) va maxsus organlarga (armiya, politsiya, xafsizlik xizmati, sud, prokuratura) ega.

Fuqarolik jamiyati - fuqarolik institutiga tayanadi. Bu-uning yana bir belgisi. U fuqarolik hatti-harakatlarini ularning ijtimoiy, diniy, malakaviy yoki boshqa sifatlaridan qat'iy nazar umumiy o'lchov bilan boholaydi.

Davlat fuqaro bilan ish ko'radi, ular manfaatlari, huquqiy, erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlat o'z tabiati va belgilaridan kelib chiqib jamiyat oldida turgan masalalarni hal qilish borasida muayyan yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi. Uning bu faoliyati boshqa siyosiy institutlarining faoliyatidan ajralib turadi. Xususan, davlat ichki va tashqi funksiyalarini bajaradi.

Fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatning ichki funksiyalariga quydagilar kiradi.

Siyosiy funsiya siyosiy barqarorlikni ta'minlash, siyosiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishda ko'rinadi. Ko'plab empirik tadqiqotlar ko'rsatishicha, jamiyat singari murakkab tizimlarda siyosiy deyarli barcha jarayonlar va holatlar mohiyatini tashkil etadi, barcha odamlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi dunyoning murakkab, ixtilofli muomolarni faqat texnologik yangiliklar yoki iqtisodiy vositalar yordamida hal qilish mumkin emas. Zamonaviy jamiyatlarning murakkab ichki tuzilishi va manfaatlarining nihoyatda xilma-xilligi sharoitida aynan siyosat sohasida institutsionallashtirilgan kelishuvlar mavjudligini taqozo etadi.

---

<sup>29</sup> Dance, Frank E. X. (1970-06-01). "The "Concept" of Civil society". Journal of Communication. **20** (2): 201–210. doi:10.1111/j.1460-2466.1970.tb00877.x. ISSN 0021-9916.



Siyosat, birinchi navbatda, davlat siyosati, zamon talablariga muvofiq ravishda zarur yondoshuvlarni ishlab chiqadi, turli ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalardan barcha ijtimoiy sinflar va guruhlarining manfaatlarini eng ma'qul tarzda muvofiqlashtiruvchi va ularni umummilliy manfatlarga bo'ysundiruvchi strategiyani tanlaydi. Davlat oliy birlashtiruvchi kuch sifatida jamiyatda mavjud siyosiy muloqotning timsoli bo'lib chiqadi va barqarorlik tartib, rivojlanish kafili vazifasini bajaradi;

Fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlat — jamiyat miqyosida manfaatlarni amalga oshirish, ularni muvofiqlashtirish, ihtiloflarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkilotlar, muassasalar, devon va ular faoliyatini amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmlariga ega. Aslida ijtimoiy munosabatlarni tartibga - soluvchi tashkilot tarzida vujudga kelgan davlatning-siyosiy funksiyalari ortib borayotganligi va u tobora siyosiy tashkilotga aylanib borayotganligini amerikalik sotsiolog T.Parsons XX asr 70 — yillarida qayd etib o'tgan.<sup>1</sup> 2. Davlatning iqtisodiy funksiyasi iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati, iqtisodiy o'sish sharoitlarini yaratish yoki jazo choralarini qullash vositasida tartibga solishida namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodga aralashuvi me'yoriy va pozitiv tahlil qilinadi. Me'yoriy yondoshuv mamlakatda amal qilayotgan siyosiy tartib bilan belgilanadi va hukumat fuqarolarning farovonligini oshirish uchun nima qilishi kerakligini belgilab beradi. Pozitiv yondoshuv hukumatlarning amaliy hatti — harakatlarini tahlil qiladi.

Fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatning tuzilishi

Davlat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, armiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tashkil topgan. Davlatlarni turkumlashning yana bir nechta usuli mavjud: Oliy hokimiyatni tashkil etish usuli buyicha davlatlar monarxiya va respublikaga bo'linadi. O'z navbatida monarxiyalar bo'linishi quyidagicha: a) absolyut monarxiya- siyosiy hokimiyat to'laligicha bir shaxs — monarx qo'lida to'plangan bo'ladi (Saudiya Arabistoni, Katar, Omon); b) konstitutsion monarxiya: monarx hokimiyati Konstitutsiya bilan cheklangan, qonun chiqarish vazifasi parlamentga; ijro etish vazifasi — hukumatga berilgan; (G'arbiy Yevropa monarxiyalari).

**Respublikalarning** ham parlamentar, prezidentlik va aralash shakllari mavjud. Parlamentar respublikalarda saylovlarda g‘olib chiqqan partiya vakillaridan hukumat tuziladi va u parlament oldida mas‘ul hisoblanadi. Bunday Respublikalar hozirgi vaqtda Italiya, Germaniya, Xindiston, Avstriya, Shveysariya, Turkiya v.b. bir qator mamlakatlarda mavjud. Parlament respublikasida parlament — davlatda markaziy o‘rinni egallaydi. Tabaqaviy vakillik organi sifatida u Angliyada XIII asrda paydo bo‘lgan bo‘lsada, davlat hokimiyatining mustaqil, qonunchilik va vakillik tashkiloti tarzda, zamonaviy mohiyatida XVII — XIX asrlarda shakllanib bo‘ldi, hozirgi kunda parlament demokratik siyosiy tizimlarning ajralmas tarkibiy va funksional elementidir.

Parlamentlar bir yoki ikki palatali bo‘ladi. Ikki palatali parlamentning quyi palatasi va bir palatali parlament to‘g‘ridan—to‘g‘ri saylovlar natijasida shakllanadi. Yuqori palatalar esa turlicha tashkil topishi mumkin: AqShda, Italiyada to‘g‘ridan—to‘g‘ri saylovlar natijasida; GFR, Xindiston, Rossiyada — bivosita saylovlar yo‘li bilan; Buyuk Britaniya, Kanadada yuqori palataning a‘zolari vorislik yoki tayinlash natijasida o‘z o‘rinlarini egallaydilar. (U hozirgi kunda Buyuk Britaniyada ana shu qoidani qayta ko‘rib chiqish masalasi xal bo‘lyapti).

Parlament a‘zolarining mustaqilligi masalasi alohida ahamiyatga ega. Parlament a‘zolari xalq tomonidan to‘g‘ridan—to‘g‘ri saylanishining o‘zi ularning mustaqilligini ta‘minlaydi.

Prezidentlik respublikalarida odatda prezident ayni vaqtda xhkurat boshlig‘i vazifasini ham bajaradi. qonun chiqaruvchi organ parlament — alohida saylovlar natijasida, prezident — alohida saylovlar natijasida shakllanib, bir—birlaridan mustaqildirlar. Tarixan boshqaruvning bu shakli AQSH Konstitutsiyasi asosida 1787-yilda kiritilgan.

Prezidentlik instituti. Respublikamizda prezidentlik institutining kiritilishi va unda prezidentlik respublikasi boshqaruvining qaror topishi prezidentlik institutiga, turli siyosiy tizimlarda uning amal qilish xususiyatlariga e‘tiborni kuchaytirdi. Shuni ta‘kidlash. lozimki, prezident (lot. — "oldida o‘tiruvchi" ) lavozimi tarixda birinchi bor AqShda — davlat va hukumat boshlig‘i lavozimlarini bir shaxsda birlashtirish

natijasida vujudga keldi. U xuddi shu yerda davlat boshlig'ini umumiy saylovlar orqali saylash an'anasi kiritildi. Hozirgi kunda prezident — ko'pgina siyosiy tizimlarning ajralmas qismi. Ammo har bir davlat o'z prezidentining siyosiy hayotdagi o'rnini o'zi belgilaydi. Prezidentning siyosiy tizimdagi o'rni odatda Konstitutsiyada belgilab beriladi. Konstitutsiya Prezidentning maqomini belgilash bilan birga, odatda, unga xos ma'naviy — siyosiy va fuqarolik majburiyatlarini qayd etib o'tadi. Odatda davlat rahbari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz rioya etishi talab etiladi. Ayrim davlatlarning Konstitutsiyalari prezidentga jamiyatdagi turli kuchlarni birlashtiruvchi hakam vazifasini topshiradi.

Ko'pgina mamlakatlar o'z konstitutsion me'yorlarida prezident ayrim guruhlarining emas, butun jamiyat manfaatlaridan keli6 chiqib faoliyat ko'rsatish lozimligidan kelib chiqadi.<sup>30</sup>

Prezidentlikka saylashning ikki yo'li mavjud: to'g'ridan-to'g'ri va bivosita saylovlar. O'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri prezidentlik saylovlari umumiy saylovlar yoki referendumlar ko'rinishida kechishi mumkin. Bivosita prezidentlik saylovlari uch ko'rinishga ega:

- 1) prezidentni parlament saylaydi;
- 2) parlament va shtat, viloyat, turli siyosiy kuchlar vakillari saylaydi;
- 3) saylovchilar kollegiyasi saylaydi.

Odatda, prezidentlikka nomzodlarning ko'pchiligi yoki partiya yetakchilari, yoki partiyalar ilgari surgan nomzodlardir. Chunki aynan partiyalar saylovchilar bilan ishlash texnologiyalarini juda yaxshi o'zlashtirganliklari sababli g'alaba qozonishning ham eng ko'p imkoniyatlariga egalar. Lekin demokratik davlatlarda mustaqil nomzodlar ham saylovda faol ishtirok etishlari mumkin.

Ko'p mamlakatlarning Konstitutsiyalarida prezidentlik muddati alohida ko'rib chiqiladi. Odatda bu muddat 4. yoki 5 yilni tashkil etadi. Prezidentni 1 yilga

---

<sup>30</sup> Блумер Г. Коллективное поведение. /Американская социологическая мысль: тексты. М.: Изд-во МГУ, 1994. - С. 168 -215.

saylash (Shveytsariya) yoki umrbod saylash (ayrim Afrika, Osiyo mamlakatlari) tajribasi ham uchraydi.

Prezidentlikka nomzod uchun konstitutsion, va me'yoriy qoidalar mavjud. Deyarli barcha mamlakatlarning Konstitutsiyalariga prezidentlikka nomzod o'z mamlakatining fuqarosi bo'lishi lozimligini talab etuvchi, turg'unlik senzi tushunchasi kiritilgan. Masalan, AqSH prezidenti mamlakatda 14 yildan kam bo'lmagan muddat yashagan bo'lishi kerak. Meksikada bu muddat 1 yil, deb belgilangan. Bizda — nomzod mamlakat xududida kamida 10 yil yashagan bo'lishi talab etiladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda prezidentlikka nomzodlar xarbiy xizmatga aloqador bo'lmasligi talab etiladi. Nomzodlarning yoshiga qo'yiladigan talablar minimal yosh chegarasini belgilash bilan cheklanadi. Odatda bu 35 yosh. Maksimal yosh belgilanmaydi.

Prezidentlik saylovlarida g'olib chiqqan nomzodning o'z lavozimiga o'tishining ikki yo'li mavjud. Prezident umummilliy saylovlar orqali saylanganida 1 oydan (O'zbekiston) 3 oygacha (AqSH) o'tgan muddatda avvalgi rahbariyat ishining yakunlanishi va yangi prezidentning lavozimni qabul qilishi bilan bog'liq o'tish davri mavjud. Bu davrda yangi saylangan prezident davlat va hukumat boshlg'i vakolatlariga ega bo'lmagan holda yangi hukumatni tuzishga oid tashkiliy masalalarni hal qiladi.

Prezidentlik respublikalarida partiyalar va prezident o'rtasidagi munosabat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Prezidentlikning turli modellarida u turlicha namoyon bo'ladi. Osiyo — Afrika modellarida prezident ayni vaqtda hukmron partiya rahbari hamdir. Amerika modelida prezident o'z partiyasida ancha mustaqil O'zbekistonda prezident partiyalar, ittifoqlar, xarakatlardan yuqori turadi va butun jamiyat manfaatini ifodalaydi.

Prezidentning davlat appartini boshqarishdagi urni, roli va vakolatlari davlat hokimiyati tizimi bilan 6yelgilanadi.

Aralash turdagi respublikalarda kuchli prezident hokimiyati parlamentning hukumatni kuchli nazorat qila olishi bilan to'ldiriladi. YA'ni hukumat ham

prezidentga, ҳам парламентga bo'ysunadi. Bunday respublikalar Avstriya, Irlandiya, Portugaliya, Polsha, Finlyandiya, Fransiya, Bolgariyada amal qiladi. Aralash turdagi respublikalar barqaror belgilarga ega emas va saylov natijalariga ko'ra u prezidentlik yoki parlament respublikasi shakliga oson o'ta oladi.

Ma'muriy — xududiy tashkil topishiga ko'ra davlatlarning bo'linishi. Siyosat nazariyasida ma'muriy- xududiy bo'linish haqida gap ketganda, davlat hokimiyatining munosabat prinsiplari va mexanizmlari nazarda tutiladi. Amalda bu prinsiplar unitarizm, federalizm, konfederatsiyalarda o'z aksini topadi.

Aksariyat davlatlar unitar tashkilot sifatida vujudga kelgan. Ularda umummilliy va mahalliy boshqaruv darajalari mavjud. Unitar davlat demokratik yoki avtoritar, monarxiya yoki respublika bo'lishidan qat'iy nazar, hokimiyat va sudning yagona tizimi, yagona huquqiy va konstitutsion me'yorlar bilan belgilanadi. Barcha boshqaruv tashkilotlari, pastdan yuqorigacha markaziy hokimiyatga bo'ysunadi va ma'muriy bulimlar hisoblanadi. Bir qator unitar davlatlarda ba'zi xududlar ma'muriy mustaqillikka egalar (XXR, Buyuk Britaniya, Italiya). Unitar davlatlar rivojlanishida keyingi yillarda ko'zga tashlanayotgan muhim belgilar, birinchidan, mahalliy hokimiyatlar imtiyozlarining ko'payishi bo'lsa, (Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya); ikkinchidan, ba'zi ko'p millatli, lekin unitar davlatlarning federatsiyaga o'sib o'tishidir. Masalan, unitar Ispaniya 1978 yilgi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan so'ng federatsiyaga qarab rivojlanyapti: Basklar mamlakati, Kataloniya, Galisiya, Andalussiyalar avtonomiyaga ega bo'lishdi. Belgiya 30 yil (1962 — 1993) ichida federatsiyaga aylandi.<sup>31</sup>

Federatsiya — bir nechta yoki ko'p davlatlardan tarkib topgan davlatlar ittifoqidir. Federatsiya ijtimoiy hayotning iqtisodiy va siyosiy birligini ta'minlagani holda, boshqa sohalarda nisbatan mustaqillikni anglatadi. Federativ tuzilish eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan va hali tugal ishlab chiqilmagan nazariya. Undagi markaziy va eng murakkab masala — suverenitet masalasidir. U hozirgi vaqtda. Meksika, Nigeriya, AqSH, Germaniya, Rossiyalar federatsiyalar hisoblanadi.

---

<sup>31</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

Konfederatsiya — mustqil, davlatlar ittifoqi bo‘lib, har biri deyarli to‘la ko‘lamda o‘zining asosiy, belgilovchi huquqlarini va hokimiyatni saqlab qoladi. Shuning uchun markaziy hokimiyat konfederatsiya a‘zolaridan u yoki bu masalani hal qilish uchun izn so‘raydi va ular markaziy hokimiyatga qanday ko‘lamda vakolatlar berishni hal qiladi. AqSH mustaqil deb e‘lon qilinganidan (1776) to konstitutsiya qabul qilingunga qadar (1787), aniqrog‘i u amal qila boshlaguncha (1789) konfederatsiya edi. 1815—1867 yillardagi Germaniya ittifoqi — konfederatsiya edi. Shvetsariya konfederatsiyasi 1291 yilda Shved, Uri, Untervald qonunlarining ittifoqi sifatida vujudga keldi va XIX asr o‘rtalarigacha shunday bo‘lgan, hozir ko‘proq federatsiya belgilariga ega.

Ma‘muriy apparat (devon)-davlat institutlarini vertikal va gorizontal bo‘yicha bir butun qilib birlashtiruvchi asosdir. Davlat ma‘muriy apparati hukumat bilan birgalikda turli vazirliklar, idoralar, maxsus qo‘mita va komissiyalarning ulkan va qudratli tizimidir. Davlat ma‘muriy apparati — shaxssiz hokimiyatning mutlaqo yangi turi—zamonaviy byurokratik davlatni keltirib chiqardi. Byurokratiya — zamonaviy siyosiy tizimlarning ajralmas qismiga aylandi, qiyida uning M.Veberga ko‘ra belgilari keltiriladi: 1) o‘zaro itoat va mas‘uliyat iyerarxiyasi; 2) shaxssizlik, ya‘ni faoliyatning aniq belgilangan me‘yorlar va qoidalarga asosan olib borilishi; 3) doimiylik — xizmatda ko‘tarilish va imtiyozlarga ega bo‘lish kafolati asosida faoliyatning uzluksizligi; 4) malakaviy yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lish.<sup>32</sup>

Oliy hokimiyatdan farqli o‘laroq devon saylovlar va o‘zgarishlar natijalariga bog‘liq emas. Amaldorlar o‘z ishlarini hukumat inqirozlari, parlament tarqatib yuborilishi, muddatidan avvalgi saylov b.h. holatlarda ham davom ettiraveradi. Byurokratiya bilan bog‘liq, njobiy tomonlar (samaradorlik, professionalizm, intizom, tezkorlik) va salbiy tomonlar (davlat ma‘muriy apparatining doimo o‘shishga intilishi (Pareto qoidasiga ko‘ra, 20% hodimlar 80% foydali ishni bajaradi); amalda qarorlar ishlab chiqish vakolatiga ega noiblar emas, ularning yordamchilari

---

<sup>32</sup> Odilqoriyev X.T. va G‘oyibnazarov Sh.G‘. hammuallifligida. “Siyosiy madaniyat”. Toshkent, IIV Akademiyasi nashryoti, 2004 42-43 bet.

qo'liga o'tib ketgani; uyushgan qatlam sifatida byurokratiya davlat qarorlari bajarilishiga halaqit bera olishi, ularni buzib talqin eta olishi, o'z manfaatiga moslashtira ola bilishi) ma'lum va turli davlatlar faoliyatida ular doimo hicobga olib kelinadi.

Millatlar va ularning nomidan chiquvchi millatchi yetakchilar davlat singari Fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlat — sivilizatsiya tengdoshi. Uning rivojlanishi jamiyat rivojlanishi bilan barobar kechgan. Hozirgi kunda biz an'anaviy, (tabaqaviy, partikulyar), konstitutsiyaviy, huquqiy, byurokratik, korporativ, milliy kabi davlat shakllarini ajratamiz. Mavzu doirasida tabaqaviy, byurokratik davlatlar haqida qisman ma'lumotlar berildi. Hozir diqqatni konstitutsiyaviy — huquqiy davlat tushunchasiga qaratmoqchimiz. Fransuz politologi Janlui Shabo o'zining "Siyosatga kirish" (1991) ya darsligida Konstitutsiyaning amaliy va rasmiy ta'riflarini keltiradi. Unga ko'ra, amalda Konstitutsiya "siyosiy hokimiyat amalga oshirilishi va topshirilishini belgilovchi me'yorlar birligi". Demak, konstitutsiyada hokimiyatga kirish va uni amalga oshirish usullari sanab berilishi kerak, xolos. Rasmiy ta'rifga ko'ra konstitutsiya — qonunchilik holatlari birligi bo'lib, ularni qabul qilish tadbirlari ularni oddiy qonunlardan ustun qo'yadi. Bu ta'rifda konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish yoki uni qayta qabul qilish shartlarining murakkabligiga va odatdagi qonunlar albatta Konstitutsiyaga mos kelishi kerakligiga diqqat qaratilyapti. Konstitutsiyalar oddiy yoki fakti huquqiy davlatdir. Huquqiy davlatda barcha huquqiy hujjatlar asosiy qonun Konstitutsiyaga muvofiq kelishi nazarda tutiladi. "huquqiy davlat" atamasini nemis huquqshunosi Robert fon Mol (1799 — 1875) kiritgan. Huquqiy davlat formulasi Konstitutsion tarzda birinchi bor GFRning 1949 yil Konstitutsiyasida bayon etilgan. Hozirgi vaqtda uni ideal, shior, konstitutsion tamoyil sifatida qarash ma'qul, deb hisoblanadi. Negaki bu tamoyilga yaqin kelgan, shuningdek, uni endigina kiritgan davlatlar mavjud, ammo uni to'liq amalga oshirgan davlatlar yo'q.

XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy davlat g'oyasi keng tarqaldi. Ijtimoiy davlat-fuqarolari uchun munosib turmush sharoitini yaratuvchi davlat hokimiyati shakli.

Ijtimoiy davlat fuqarolarining barchasini qo'llab- quvvatlaydi, jamiyatda totuvlikni ta'minlaydi. Uning vazifasi kam ta'minlangan, qariya, nogiron, ishsizlar to'g'risida gamho'rlikdangina iborat emas, balki barcha fuqarolarning erkin va farovon turmushlarini ta'minlashdir. Ijtimoiy davlat g'oyasi Ikkinchi jahon urushidan so'ng amaliyotga tadbiiq etila boshlandi. Ijtimoiy davlat konstitutsion tamoyil sifatida 1947 yil Yaponiya Konstitutsiyasining 25 — moddasida va yana Germaniyaning 1949 yil Konstitutsiyasi 20 — moddasida bayon etildi. Keyingi yillarda bu tamoyil Italiya, Fransiya, Shvetsiya, Portugaliya, Ispaniya Konstitutsiyalarida aks etdi.

Tarix tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, hokimiyat ham, huquq ham qonunlar jamiyat tomonidan e'tirof etilmasa, qabul qilinmasa, ularning bajarilishini kafolatlamaydi. Fuqarolar yetarli darajada yuqori madaniy, iqtisodiy va ma'rifiy rivojlanish darajasida fuqarolik jamiyatiga uyushadilar va jamiyat hamda davlatning qonunlarga amal qilishini ta'minlay oladilar, jamiyat va davlat tomonidan adolatsizlik va huquqbuzarliklarning oldini ola biladilar. Shunday qilib, huquqiy davlatning birinchi va asosiy sharti fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Haqiqiy huquqiy munosabatlarni suvereniteti va unga umumiy itoat bilan birga huquqning demokratik xalqchil mazmuni ham ajratib turadi. Jamiyatda odamlar mulk egasi bo'lganliklari uchun uni ko'paytirish va himoya qilishga o'zlarini mas'ul, deb biladilar. Bu masuliyat hayot, turmush darajasini belgilovchi barcha narsani, jumladan, siyosiy huquq va kafolatlarni ham o'z ichiga oladi. Davlat bu vaziyatda umumiy xavfsizlik va barqarorlik uchun javobgar bo'lib qoladi.

Fuqarolik jamiyati odamlar o'rtasida mavjud iqtisodiy, madaniy, huquqiy, siyosiy nodavlat munosabatlari tizimi, ko'ngilli nodavlat tashkilotlari birligidir. Bu ommaviy xarakterli, partiyalar, manfaat guruhlari, sohasi. Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatining o'z—o'zini boshqarish organlariga bir qism vakolatlarini olib berish orqali uni cheklaydi. Fuqarolik jamiyati tarkibiga nodavlat ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar va institutlar (mulk, mehnat, tadbirkorlik); davlatdan mustaqil ishlab, chiqaruvchilar va tadbirkorlar (xususiy firmalar), xususiy mulkdorlar; ijtimoiy



tashkilotlar va uyushmalar; siyosiy partiyalar va xarakatlar; tarbiya va nodavlat ta'limi sohasi; ommaviy axborot vositalarining nodavlat tizimi oila; din kiradi.

Fuqarolik jamiyati demokratiya qaror topishining sharti. U demokratik jamiyatlarda tugal yaxlit tizim holida to'laqonli faoliyat ko'rsatadi. Boshqa turdagi jamiyatlarda (avtoritarizm) uning elementlari mavjud bo'lishi va u davlat hokimiyatiga ta'sir ko'rsata olishi mumkin.

Fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatning tarixiy shakllaridan yana biri — milliy davlatdir. XXR, Yaponiya, Albaniya, Germaniya, Fransiya, Portutaliya, Gretsiya, Shvetsiya — milliy davlatlardir, chunki ularda etnos va demos (aholi) deyarli mos tushadi.

Zamonaviy davlatlar shakllana boshlagan davr XV asr bilan belgilanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa xartasida 1500 yilda mavjud bo'lgan bir necha yuz siyosiy ittifoqlar soni shu jarayon tufayli 1900 yilga keli6 25 taga qisqargan. Zamonaviy davlatlarning tashkil topishi urug' qabila, qon-qarindoshlik munosabatlarining o'rnini xududiy birlashuv tamoyili olganda boshlangan. Millatlarning shakllanishi bilan davlat ko'rilishida bu masala tobora jiddiy tus olyapti. Hozirgi davlatlarning aksariyati ko'p millatli. Bir qiyosga ko'ra, zamonaviy millatlarning yer yuzida joylashishi shaxmat taxtasidagi kataklar sifatida emas, tugun holida bo'yalgan va keyin yoyib yuborilgan mato tarzida idrok etilishi haqiqatga to'g'ri. Bunday vaziyatda millat va davlat munosabatlari masalasi eng nozik, eng og'ir masalaga aylanishi shubhasiz.

Demokratik siyosiy tizimlarining alohida xususiyati – ularda xalqning siyosiy jarayonlarda ishtiroki mexanizmlari faol qo'llanishidir. Xalq saylovlarida ovoz berish referendumlarda o'z idorasini bayon etish bilan birga, kundalik hayotda o'z manfaatlarini, talablarini, takliflarini hokimiyatga yetkazish, ularni xal qilish, hokimiyatni nazorat etish kabi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni tom ma'noda siyosat subyekti tarzida faoliyat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Demokratik

jamiyatda siyosiy partiyalar bilan bir qatorda turli xil jamoat birlashmalari va ijtimoiy — siyosiy harakatlar faoliyat ko'rsatadi.<sup>33</sup>

Jamoat, birlashmalarini bir o'rinda manfaat guruhlari, boshqa bir o'rinda bosim guruhlari, deb nomlash qabul qilingan. Xush, manfaat guruhlari, deganda nimani tushunamiz?

Manfaat guruhlari — siyosat subyektlarining o'ziga xos turidir. Ular rasmiy hokimiyat tashkilotlaridan farq qiladi, ammo ushbu tuzilmalar ichida ham vujudga kelishi mumkin. Ayni vaqtda, ular partiyalar bilan ham bir narsa emas (ular siyosiy hokimiyatni egallashga intilmaydilar).

G'arb demokratik konsepsiyalarida "manfaat"ni birinchi bor shaxs bilan emas, guruh bilan bog'lagan siyosatshunoslar Jeyms Medison, Artur F.Bentli, Devid Trumenlardir. 1908 yilda nashr etilgan "Boshqaruv jarayoni" asarida A.F.Bentli XIX asr oxiri XX asr boshi ingliz faylasuflarining "guruh — jamiyatning asosiy birligi" haqidagi g'oyalarini rivojlantirib, jamiyatni turli xil manfaat guruhlari majmuasi tarzida o'rganishni taklif etdi. Unga ko'ra siyosiy tahlil obyektini — siyosiy maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy ravishda guruhlarga birlashgan odamlar faoliyati tashkil etishi kerak. Shu tariqa siyosatga "guruh" tushunchasi konseptual tarzda kirib keldi, ya'ni guruh, deganda jamiyatdagi mavxum jismoniy shaxslar birligi emas, manfaat va maqsadlar birligi bilan ajralib turuvchi fuqarolar ittifoqi nazarda tutila boshlandi.

Fuqarolar va ijtimoiy tabqalarning turli — tuman manfaatlarini ifoda etish va bu hakda hokimiyat tuzilmalarini xabardor qilish, jamiyat siyosiy tizimida manfaatli guruhlar siyosiy partiyalarning ijtimoiy rollari o'xshashligidan dalolat beradi.

Biroq, bu umumiylik, o'xshashlik ular o'rtasidagi muxim farqlarni inkor etmaydi, balki thozo etadi.

Manfaatli guruhlar siyosiy jarayonning subyektlari sifatida muayyan funksiyalarni bajaradi:

---

<sup>33</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

- Ijtimoiy manfaatlarni ifoda etish. Manfaatli guruhlar fuqarolar, aholining turli tabaqalari va qatlamlarining xususiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, asoslab berish va shakllantirishni ta'minlaydilar.

- Ijtimoiy manfaatlarga vakil bo'lish. Manfaatli guruhlar o'ziga a'zo bo'lgan fuqarolar, ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ifoda etish, aniq talablarni shakllantirish bilan cheklanib qolmaydilar. Ular bu talablarning amalda ro'yobga chiqishlarini ta'min etadilar. Manfaatli guruhlar fuqarolar, aholining turli tabaqalari bilan davlat organlari o'rtasida vositachilik rolini bajaradilar.

- Siyosiy qarorlar qabul qiladigan organlarni ogoh qilish. Manfaatli guruhlar hokimiyat tuzilmalarini fuqarolar, ijtimoiy tabaqalarning haqiqiy axvolidan, ularning muammolaridan doimo xabardor qilib turadilar.

Bu esa hokimiyat tuzilmalari faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon berishi shubhasizdir.

Shunday qilib, manfaatli guruhlar-kishilarning xususiy manfaatlarini ifoda etadigan va ularni davlat va boshqa siyosiy institutlar bilan bo'ladigan munosabatlarida himoya qiladigan ko'ngilli birlashmalardir.

Muayyan masadlarni amalga oshirishdan manfaaddor bo'lgan shaxsning ihtiyoriy a'zoliq prinsipiga tayanadigan tashkilotlar (kasaba, yoshlar va boshqalar);

Muayyan dasturlarni yoki shaxsni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuziladigan tashkilotlar.

Uyushgan tashkilotlarning ish olib borishi ularning qonun ta'sirida bo'lishini taqozo etadi. Bu – uyushgan tashkilotlarning ro'yxatdan o'tishida, ularning faoliyati ustidan davlat organlarining nazoratini amalga oshirish mumkinligida o'z ifodasini topadi.

Uyushgan tashkilotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi. Avvalo, birlashmani tuzish uchun davlat organlaridan dastlabki ruxsatnoma olinadi. Ta'sis etilgan tashkilot mavjud huquqiy me'yorlar tomonidan belgilangan tartibda davlat organlarida ro'yxatda o'tadi. Birlashmani tuzishni hohlovchi fuqarolar bu haqida davlat organlariga ariza berib xabardor qilib qo'yadilar. Manfaatli guruhlar

jamiyatning qaysi sohalarida faoliyat ko'rsatishiga qarab ham turlarga bo'linadi. Bu quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy soha mehnat munosabatlari sohasida tashkil etilgan guruhlar (tadbirkorlik uyushmalari, matbuot ittifoqlari, kasaba uyushmalari);

Ijtimoiy sohada tashkil etilgan guruhlar (qariyalarning birlashmalari, nogironlar jamiyati, mehr shavqat ittifoqlari);

Bo'sh vaqt va dam olish sohasida tashkil etilgan guruhlar (sport jamiyatlari, filatelistlar ittifoqlari va boshqalar);

Fan madaniyat, din sohasida tashkil etilgan guruhlar (ilmiy assotsiatsiyalar, rassomlar, yozuvchilar, san'atkor ittifoqlari, sektalar, cherkovlar, machitlari va boshqalar);

Siyosiy sohada tashkil etilgan guruhlar (ekologik xarakatlar, tinchlik uchun, inson huquqlari uchun kurash olib boruvchi xarakatlar va boshqalar);<sup>34</sup>

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda manfaatli guruhlariga kiruvchi tadbirkorlik ittifoqlari va birlashmalari juda muhim vazifalarni bajaradilar. Ular turli mamlayekatlarda bajaradigan funksiyalari, faoliyat metodlari, aloqa shakllari bilan bir – biridan farq qiladi.

Tadbirkorlik ittifoqlari va birlashmalari o'zining tuzilmalariga ega. Bu tuzilmalar rahbar organlarini (kengashlar, boshqaruv) turli mintaqaviybo'limlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ular davlat organlari va tashkilotlariga ishsizlik, inflyatsiya bilan kurash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqa masalalar bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar.

Fuqarolik jamiyati siyosiy tizimida muhim ijtimoiy — siyosiy vazifani mehr — shafqat jamg'armalari bajaradilar. Ular kuchli va ta'sirchan tashkilotlar qatoriga kiradilar. Mehr — shafqat jamg'armalari O'zbekiston Respubkasida ham keng tarqalgan va rivojlanib bormoqda. Ular jamiyat barcha qatlamlarining manfaatlarini ifoda etuvchi umumijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi guruhlardir. Mehr — shafqat jamg'armalari ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohalarida faoliyat

---

<sup>34</sup> Rukavishnikov V. O. Politicheskiy kulturni i sotsialniye izmeneniya. Mujdunarodniye otnosheniye. – M., 1998. 82-bet.

ko'rsatmoqdalar. Ularning faoliyati kadrlar tayyorlash, onalik va bolalikni himoya qilish, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalarni moliyaviy va boshqa yullar bilan qo'llab — quvvatlashga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyatida kasaba uyushmalari muhim vazifalarni bajaradilar. Bu uyushmalar bir xil mutaxassislikdagi yoki ishlab chiqarishning bir xil tarmog'ida band bo'lgan mehnat kishilarini birlashtiradigan tashkilotlardir.

Kasaba uyushmalari mehnatnatkashlarning ommaviy jamoat tashkilotidir. Bu tashkilot mehnatnatkashlarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga, ularning madaniy — ma'rifiy saviyasi darajasini ko'tarishga qaratilgandir. Hozirgi sharoitda milliy va xalqaro miqyosida kasaba uyushmalari mehnatnatkashlarning manfaatlarini himoya qilishning yangi yullarini, usullarini izlab topishga intilmoqdalar, iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy ziddiyatlarning yanada ko'proq chirmashib- chatishib ketishi tadbirkorlarning yirik ijtimoiy- mehnat ixtiloflaridan qochishga, kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilishning yangi yullarini izlab topishga bo'lgan intilishini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy sheriklik siyosati mehnat ixtiloflarining keskinligini kamaytirishga qaratilgandir.

Mehnat munosabatlarini sheriklik, kelishuv ruhida tartibga solishning yo'lga qo'yilgan mexanizmi O'zbekistonda ham mavjuddir. Respublikada ijtimoiy sheriklik siyosatining faol tarafdorlari sifatida kasaba uyushmalari, tadbirkorlarning uyushmalari chiqmoqdalar. Ular tomonidan tuzilgan qo'shma komissiya budjet, investitsiya, ishchi kuchlar, soliqlar, ish haki, baho va raqobat sohasida siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashmoqdalar.

Diniy uyushmalar jamiyatning kuchli va ta'sirchan tashkilotlaridan hisoblanadi. Sababi, dunyoda tinchlikni saqlash, kishilarni tarbiyalash, ular o'rtasida umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish yo'lida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlari kattadir. Diniy uyushmalar ham boshqa jamiyat tashkilotlari singari inson va jamiyatni to'g'ri yo'lga, tinch — totuvlikka, oliyjanoblikka, hamkorlik va hamjihatlikka chaqirmoqda. Ular ham ug'irlik, bosqinchilik, talonchilikni, zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralaydilar. Bu tashkilotlar ham umidsiz dillarga taskin va yupanch bagishlaydilar, umidbaxsh a'mol sifatida singan ko'ngillarni

ko'tara oladilar. Ayni paytda dinni niqob qilib olib undan g'arazli maqsadlarda foydalanuvchi, jamiyatdagi hamjihatlik, davllararo, millatlararo va dinlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi diniy ekstremistik uyushmalar ham yo'q emas. Ularning ko'rinishlari ham xilma – xildir. Bunga misol qilib: musulmon mamlakatlardagi «musulmon birodarlarini»; «toliblar harakati»; «vahobiylar harakatini» ko'rsatish mumkin. Bu ekstremistik tashkilotlar va xarakatlarning maqsadi, ular boshlagan jaholatparastlik faoliyati qanday oqibatga olib kelishi jahon jamoatchiligiga taboro ko'proq ayon bo'lmoqda. Ko'plab mamlakatlarda diniy ekstremistik guruhlarining faoliyati ta'qqlab qo'yilmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida irqiy, millatchilik, terroristik, fashistik va jinoiy guruhlar ham faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu guruhlarining faoliyati ham davlatlar va uyushgan jamoatchilik tomonidan munosib diqqat-e'tiborni qaratishni talab etmoqda.

Hozirgi vaqtda milliy va xalqaro darajada manfaatli guruhlar muhim o'zgarishlarni o'z boshlaridan kechirmoqdalar. Ular stixiyali tashkil etilgan tashkilotlardan o'zining ichki tuzilmalari to'la qaror topgan, Aniq dasturga ega bo'lgan jamiyatning siyosiy tizida o'zining munosib o'rnini topgan tashkilotlarga aylanish davrini o'tamoqdalar. Bu tashkilotlarning o'zgarishlar faoliyati o'ziga sinchkovlik Bilan diqqat e'tiborini qaratishni talab etmoqda.<sup>35</sup>

#### Ijtimoiy-siyosiy xarakatlar

Ijtimoiy-siyosiy xarakatlar- ijtimoiy taraqqiyotning asosiy xarakterlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ular siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy hayotni o'zgartiradi va rivojlantiradi. Ijtimoiy-siyosiy xarakatlar, xaddan tashqari xilma-xil siyosiy kuchlardan tashkil topadi. Ularga koalitsion prinsip asosida turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari va boshqa guruhlar kiradi. Xarakat qiluvchi tashkilotlar va guruhlardan har biri o'zining mustaqilligini saqlab qoladi. Xarakat ishtirokchilari tomonidan ilgari surilgan talablar o'zining miqyoslari, hamda ustuvorligi jihatdan bir xil emas. Ulardan ayrimlari hozirgi zamonning eng o'tkir umumbashariy muammolari — tinchlikni himoya qilish, atrof — muhitni muhofaza etishga borib taqalsa, ba'zilari

---

<sup>35</sup> Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet

esa umumilliy vazifalarni: ishsizlikni bartaraf etish, milliy ozodlik teng huquqlilik, uy — joyga ega bo'lish huquqi, unga to'lanadigan hakni kamaytirish, oziq — ovqat mahsulotlari ekologik soflik uchun, va boshqa talablarni ilgari suradilar.

Ijtimoiy — syosiy harakatlar ishtirokchilarining, maqsadi va vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish;
- u yoki bu masala buyicha hukumat siyosatiga ta'sir ko'rsatish;
- o'zlari yashab turgan jamiyatni kuch ishlatmasdan o'zgartirish;

Demokratik harakatlarning qaror topishi va mustahkamlanishi jarayonida, uning alohida bo'limlari foydalanadigan kurash shakllari va usullari yuksalib va takomillashib - boradi. Hozirgi sharoitda ham ommaviy manifestatsiya va mitinglar, imzolarni yig'ish — ilgarigidek bu chiqishlarning tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Ammo vaqt o'tishi bilan yanada ko'proq uyushgan xarakterga ega bo'lgan: tinchlik yurishlari (GFR, Daniya, Finlyandiya) tinchlik va qurolsizlanish uchun harakatlar kuni (Fransiya, Italiya, AKSH) tinchlikning bhorgi, kuzgi yurishlari katta ahamiyat kasb etmokda. Tinchlik lagerlari (Buyuk Britaniya, Italiya) tinchlik, poyezdlari, GFR korxonalaridagi amal qilayotgan tinchlik uchun kurash qo'mitalari demokratik harakatlarning noan'anaviy usullaridir.

Ijtimoiy — siyosiy harakatlar turli — tuman ko'rinishlarda namoyon bo'ladilar. Ularning asosiy ko'rinishlariga quyidagilarni kiritishi mumkin:

"Fuqarolik tashabbuslari" (volontarizm). Bu ko'ngilli harakatning negizida insonparvarlik tamoyilari yotadi. Ular xalqni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, ishsizlikni bartaraf etish, davlat funksiyalarining bir qismini aholiga berish, o'z — o'zini boshqarish kabi talablar va tashabbuslar bilan chiqadilar.

"Fuqarolik tashabbuslari" harakatining kuchayishi hozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu xarakterlik harakatlar dunyoning ko'plab mamalakatlarini, turli ijtimoiy guruhlarni o'z ichiga qamrab oldi.

«Fuqarolik tashabbuslari» xarakatida katta yoshdagi aholidan AqShda - 34mln. kishi, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Fransiyada 3mln. dan 5 mln.gacha kishi ishtirok etdilar. Bu xarakat sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, xalqaro

faoliyat sohalarida mehr-shavqat, hayri-ehsonning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Volontarizm hokimiyatini nomarkazlashtirish, davlat funksiyalarining bir qismini uyushgan aholiga berish orqali kishilarni siyosiy hayotning demokratik shakli va xalq hokimiyatiga jalb etish vositasi sifatida maydonga chiqadi.<sup>36</sup>

Muqobil turmush-tarzi uchun xarakat. Bu xarakat mamlakatning turmush ukladi Bilan hayrihoh bo'lmagan aholining katta qismini (asosan yoshlarni) o'z ichiga qamrab oladi. Uning maqsadi – atrof muhitdagi, ijtimoiy hayotdagi barcha illatlari tugatish, rivojlangan industrial va noindustrial jamiyatning insonga ta'sirining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jamiyatni pastdan turib o'zgartirishdan iboratdir.

Muqobil xarakat- bu hulq-atvorning yangi tarzini; tinchlik, adolat, birdamlik va o'z-o'zini ro'yobga chiqarish tamoyillari negizida tuziladigan ishlab chiqarish, madaniy tarbiyaviy va h.k. «muqobil» muassalarda mehnatni tashkil etishning Yangi shakllari Bilan uzviy bog'langan mayishiy va uy-joy jamoalarida oilaviy va shaxslararo munosabatlarning Yangi shakllarini izlash ham demakdir.

Ekologik xarakat. Bu xarakatning maqsadi – inson faoliyati va atrof-muhitning uyg'un munosabatlarini izlab topishdan iboratdir. Dunyoda birinchi ekologik partiya 1973 yilda Buyuk Britaniyada tuzilgan edi. Hozirgi vaqtda «yashil» deputatlar G'arb mamlakatlarning ko'plab parlamentlarida ish olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlari ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Bu yo'nalishda bir qator qonunlar, dasturlar qabul qilinadi. Hozirgi vaqtda xalqaro ekologik tashkilotlar qaror topdi. Xususan "Grinpis" (17 mamlakatdan 2.5 mln. kishini birlashtiradi), "Yer do'stlari" (34 mamlakatdan guruhar ishtirok etadilar), "AYFA" (o'monlarni muxofaza qlish yoshlar federatsiyasi), "Tabiatning yosh do'tlari" (Rarbiy Yevropa mamlakatlarida 1000 dan ortiq markazlari bor) atrof — muhitni muhofaza qilish bo'yicha hayrli va savobli ishlarni olib bormoqdalar.

---

<sup>36</sup> Блумер Г. Коллективное поведение. /Американская социологическая мысль: тексты. М.: Изд-во МГУ, 1994. - С. 168 -215.



"Yoshlar harakati". Bu harakat asosan yoshlarni qamrab oladi. Bu harakat ham yoshlarga xos bo'lgan, ham umumsiyosy, ham umumijtimoiy bo'lgan maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yadi.

Hozirgi yoshlar harakati oldingi yillardagi yoshlar harakatidan ancha farq qiladi. Bu harakatga an'anaviy xokimiyat institutlariga nisbatan chuqur tanqidiy munosabat, o'z qarashlarini ifoda etishda — mustaqillik, kengroq erkinlik, faoliyat usullarida xilma — xillik xos.

Hozir dunyoda 50 dan ortiq xalqaro yoshlar tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ulardan eng ommaviy va obro'lisi — Jahon demokratik yoshlar federatsiyasi (JDEF) va Xalqaro Talabalar Itgifoki (XTI). Bu tashkilotlarda dunyoning barcha mintaqalarida 100 dan ortiq mamlakatlardan progressiv yoshlar va talabalarning milliy uyushmalari ko'rsatilgandir. Ularning faoliyati BMT, YUNESKO va boshqa hukumatlararo tuzilmalar tomonidan tan olinadi va yuqori baholanadi.

Xotin-qizlar harakati. Hozirgi dunyodagi demokratik harakatlarning turli yo'nalishlari orasida xotin — qizlar harakati alohida ko'zga tashlanadi. Sababi, xotin — qizlar insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadi, moddiy va ma'naviy boyliklarning taxminan 1,3 qismini ishlab chiqaradilar. Insoniyatning ana shu qismining manfaatlarini xotin — qizlar harakati ifoda etadi va himoya qiladi. Xotin — qizlar harakatining maqsadi xotin — qizlarning erkaklar bilan tengligiga amalda erishishdir. Bu oliyjanob maqsadga erishish yulida turli xalqaro tashkilotlar raxnamoligida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. 1976 yildan 1985 yilgacha bo'lgan davr BMT tomonidan "Tenglik, taraqqiyot, tinchlik" shiori ostida "Xotin — qizlar o'n yilligi" deb e'lon qilingan. Bu dunyoning turli mintaqalarida yashovchi aholi tomonidan ma'qullandi va tan olindi.

O'zbekistonda, mana bir necha yildirki, "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili" dasturlari asosida hukumat ayolarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, sharoitini yaxshilash, ayollar muammolariga e'tiborni qaratish bilan jiddiy shug'ullanadi. O'zbekistonda ayollarning "To'maris" ijtimoiy harakati, "Tadbirkor ayol" nodavlat uyushmasi faoliyat ko'rsatadi.

1995 yil 27 martda Toshkentda Uzbekiston "Xalq birligi" harakati tashkil topib, uning maqsadi, O'zbekiston xalqining birligini yanada mustahkamlash, fuqarolarda mustaqil O'zbekistonning buguni, kelajagiga nisbatan mas'uliyatni oshirishdir.

Odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish va hokimiyatta erishish uchun hamma davrlarda birlashganlar. Shu ma'noda siyosiy partiyalar juda qadimdan mavjud. Zamonaviy partiyalar Angliyada XVII asrda vujudga kelgan, ammo 1832 yil saylov islohotidan keyingina hozirgi ko'rinishini olgan. AqShda partiyalar 1830-yillarda, prezident Jekson davrida, tashkil topa boshlagan. Fransiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida parlament guruhlar va siyosiy klublarning ommaviy tashkilotlarga aylanishi 1848 yil inqilobi bilan bog'liq. G'arb institutlarini birinchilardan bo'lib import qilgan Sharq mamlakatlaridan biri — Yaponiyada partiyalar birinchi jahon urushigacha bo'lmagan.<sup>37</sup>

Shu o'rinda, har bir mintaqada partiyalar tashkil topishi jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz.

AQSH avval boshdanoq burjua davlati sifatida shakllangan. Bu yerda taraqqiyot yo'li masalasida yakdillik mavjud bo'lgani holda ichki siyosatda respublikachilar fermerlarga tayansalar, federalistlar savdo — sanoat va moliya kapitaliga tayanganlar. Tashqi siyosatda respublikachilar Fransiya moyillik ko'rsatsalar, federalistlar — Angliya bilan ittifoq tarafdori edilar.

Yevropada vaziyat boshqacharoq edi: bu yerda taraqqiyot yo'li haqidagi munozaralar juda keskin kechgan, ko'tarilib kelayotgan burjua sinfiga iqtisodning feodal ukladi, feodal an'analar va kuchli hukmron elitalar qarshi turgan. Shuning uchun siyosiy hayotdagi kurash qattiq bo'lgan va mafkura juda muhim omil rolini o'ynagan.

O'zbekiston va O'rta Osiyoda partiyalar shakllanishi ham o'z yo'lida borgan. Ularning paydo bo'lishi asosan jadidlar bilan bog'liq. XX asr boshlariga kelib

---

<sup>37</sup> Бородина Т.В. Социальный диалог: коммуникативные стратегии личностной репрезентации общественных отношений. Автореф. дисс. к.ф.н., Ростов-на-Дону, 2003, 26 с.

shakllangan «Ittixod va taraqqiy», «Erk», «Birlik», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» haqidagi matbuotdagi munozaralardan shunday xulosaga kelish mumkinki, asoschilari ularni partiya sifatida qaragan taqdirda ham, ular klub bosqichidagi partiyalar edi.

«Partiya» lotinchadan «qism», “guruh” sifatida tarjimam qilinadi.

Agar qadimgi ma’nolarida partiyalar ayrim manfaat shaxs atrofida uyushgan kishilar guruhini anglatga, zamonaviy ma’nosida partiyalar ko‘proq mafkura, hokimiyat masalalarida tashkilotga birlashgan odamlar guruhini bildiradi. Shu ma’noda siyosiy partiyalar fuqarolar jamiyati negizida shakllanadi va siyosiy tizimning eng muhim elementi vazifasini o‘taydi.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatida muayyan funksiyalarni bajaradi. Siyosiy partiyalarning bosh funksiyasi – fuqarolar ijtimoiy qatlamlar, manfaat guruhlarning ko‘plab xususiy manfaatlarini yagona siyosiy manfaatga keltirishdan iborat.

Shu ma’noda ular jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanganlar. Ular mavjud siyosiy tizim doirasida jamiyat taraqqiyotiga oid raqobatlashuvchi dastur egalari sifatida chiqadilar.

Fuqarolik jamiyati siyosiy tizimida partiyalar turli ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalabgina qolmay, bu manfaatlarni shakllantirishda ham faol qatnashdilar. Partiyalar vakolat vazifasi bilan bir qatorda vositachilik vazifalarini ham bajaradilar. Ular davlat darajasida qaror qabul qilish jarayonini muvofiqlashtiruvchi va nazorat etuvchi institut sifatida shakllangan.

Partiyalar fuqarolik jamiyatini davlat bilan bog‘laydi, ular o‘rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni yumshatadi. Partiyalar vakolat tizimi orqali parlament va hukumat faoliyatida ishtirok etadi. Ta’kidlash lozimki, kuchli partiyalar jamiyat va davlat aloqalarini mustahkamlash, davlat ustidan nazoratni ko‘paytirish orqali davlatni kuchaytiradi, zaif partiyalar – davlatni ham zaiflashtirishi mumkin.<sup>38</sup>

---

<sup>38</sup> Вебер М. Харизматическое господство. 1988, №6, С.139-137.

Partiyalar jamiyatning ham vertikal, ham gorizontal bo'yicha barcha sohalarini qamrab u yerda axborot tarqatish va tashviqot faoliyatini olib boradi, tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, siyosiy arboblarni tayyorlaydi. Barcha siyosiy institutlarni qamrab olgan holda partiyalar davlat hokimiyatining barcha darajalari va shahobchalari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi, kompromissga asoslangan siyosiy qarorlarni ishlab chiqadi, o'z saylov bazalarini tashkil etgan turli ijtimoiy rypuhlar o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Ayni vaqtda, partiyalar ijtimoiy fikrni safarbar etadilar, saylov kampaniyalarini g'oyaviy va tashkiliy jihatdan ta'minlaydilar, hokimiyatning barcha darajalariga nomzodlarini ilgari suradilar.

Har bir jamiyat oldida undagi bir— biriga qarama-qarshi manfaatlarni muvofiqlashtirish vazifasi turadi. Partiyalar ana shu ziddiyatli manfaatlarni bayon etishning doimiy kanallaridan biri sifatida jamiyat barqarorligi oshishiga olib keladi.

Partiyalarni ro'yxatdan o'tkazish shartlari tufayli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida partiyalar Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladi va buning uchun ma'lum muddatgacha 8 ta viloyatda yashovchi partiya a'zolarining 5000 dan kam bo'lmagan imzosi to'planishi zarur. Ispaniya, Italiya, Fransiya kabi davlatlarda partiyalar, ichki ishlar vazirligida, Belgiya va Niderlandiyada — Adliya vazirligida, Portugaliyada — Oliy sud, Braziliyada — Oliy saylov sudida ro'yxatdan o'tadilar, v.h.

Ko'pgina mamlakatlarda mavjud ko'p partiyaviy tizimlarda bir qator partiyalar hokimiyat uchun kurashda deyarli bir xil imkoniyatlarga ega. Shuningdek, ular turli ittifoqlar, partiya bloklari tuzishlari mumkin. Bunday tizimlardagi partiyalarning sonlari turlicha bo'ladi: 3 tadan (Belgiya, Avstriya) 12 ta (Niderlandiya) va undan ortiq.

O'zbekistonda bugungi kunda ko'p partiyaviy tizim shakllanib bo'ldi. Ammo bu jarayon xali tugallangani yo'q. Iqtisodiy islohotlar, mulkchilikning turli shakllari rivojlanib borishi bilan aholining ijtimoiy mobilligi ortib boradi va, demak, bugungi partiyalar va xarakatlar tarkibi va mazmunida o'garishlar ro'y berishi muqarrar. Oliy Majlis tuzilishida belgilangan o'zgarishlar ham partiyalar va elektorat faollashishi, partiya dasturlarining konkretlashishi, partiya tayanuvchi ijtimoiy qatlamlarning

saralanishiga olib keladi, deb ehtimol kilishga imkon beredi. Garchand, O‘zbekistondagi olimlar, jamoatchilik vakillarining bir qismi mamlakatimizda ikki partiyaviy tizim amal qilishi tarafdorlari sifatida partiyalar sonining kamayishini bashorat qilsalar—da, fikrimizcha, yaqin yillar ichida O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviy tizim saqlanib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Jamoat birlashmalari" nomli XIII bobining 60 — moddasida siyosiy partiyalarga quyidagi ta’rif berilgan: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarining moliyaviy ta’minlanish manbalari hakida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organlarga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar".

Hozirgi kunda O‘zbekistonda mavjud partiyalar faoliyati, sustligini fuqarolar kam, mutaxassislar ham ta’kidlayapti. Buning bir qator obyektiv sabablari bor. Ma’ruzadan bilib olganimizdek, partiyalar fuqarolik jamiyati negizida fuqarolar, guruhlar, qatlamlar manfaatini davlatga bayon etuvchi tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ammo, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati endi shakllanyapti, xususiy mulkchilik negizida Yangi qatlamlar vujudga kelishi va manfaatlarining saralanishi hali uzoq davom etadigan jarayon. Shuning uchun ham partiyalarimiz dasturlari va tayanch bazalari o‘xshab ketadi, dasturlarda bayon etilgan maqsadlar bilan amaliy faoliyat o‘rtasida farq mavjud. Partiyalar kasaba uyushmalari yoki davlat tashkilotlariga o‘xshash vazifalarni bajarib kelyapti. Bu vaziyatda partiyalar apparatida ishlash uchun ko‘proq politolog, sotsiolog, psixologlar jalb qilinib, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, bu boradagi yuzaga kelayotgan manfaat va talablarni bayon etib, saralab, davlat hokimiyati organlariga yetkazish, aholi siyosiy madaniyatini oshirishga e’tiborini kuchaytirishlari maqsadga muvofiq, bo‘lib ko‘rinadi. Partiyalarning bugungi O‘zbekiston siyosiy tizimidagi o‘rni demokratik jamiyat qurishda davlatga yaqindan yordam berishdan iborat.

## **2.2. FUQAROLIK JAMIYATINING TARIXIY MODELLARI**

Bugungi kunga kelib dunyoning aksariyat davlatlarida huquqiy-demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi sifatida qaror topayotganligi fuqarolik jamiyatini barpo etish insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb etayotganligi fuqarolik jamiyatini fan sifatida o'rganishni taqozo etmoqda. «Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p-ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib etib kelgan, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov. – Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz» . SHuni ta'kidlash lozimki, insoniyat taraqqiyotining Aristotel, Platon, Sitseron va boshqa mutafakkirlar yashagan tarixiy bosqichida fuqarolik jamiyati deganda davlatni tushungan. Bu hol ancha uzoq vaqt mavjud bo'lgan va iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanish darajasi (mehnat taqsimotining primitiv shakllari, tovar-pul munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi, jamiyat hayotini davlat tasarruf etishi, ijtimoiy tuzilmaning tabaqaviyligi) bilan bog'liqdir. Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari antik dunyoning ayrim mamlakatlarida mavjud bo'lib (YUnoniston, Rim), bu erda hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi xususiy huquqning ayrim institutlari (ayniqsa, Rim xususiy huquqi)da mustahkamlangan tovar-pul ishlab chiqarishini vujudga keltirdi. <sup>39</sup>Biroq, holat faqat fuqarolik jamiyatining ayrim mintaqalarda vujudga kelgan va tabaqalashgan vertikal tuzilmalari va ularning bilan uyg'unlashgan unsurlaridan iborat edi, xolos. Ijtimoiy-siyosiy fanlarda fuqarolik jamiyati va «davlat» tushunchalari uzoq vaqt uchalik farqlanmay keldi, ular aynan tushunchalar sifatida qabul qilindi. Biroq, XVII asr o'rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, ularni davlat hokimiyati boshqaruvidan chiqarish, uzviy huquq va erkinliklarga ega bo'lgan erkin va mustaqil individni kamol toptirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyiliniyuzaga keltirdi va ularni ijtimoiy ong va fanda aks ettirish zarurati paydo bo'ldi. Davlatda hokimiyatning uchga bo'linishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhleri (kasaba

---

<sup>39</sup> Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации //Человек, 1992, № 2, С. 51 -65.

uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo'lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiy maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshladi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi absolyutizm ag'darilganidan so'ng shakllangan yangi hayotni, ya'ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettiradi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatda mansbdorlar fuqarolar bilan o'zaro muomalalarda qonunga qat'iy rioya qilishi g'oyalari ilgari surildi. Tarixda davlatdan mustaqil ravishdagi jamiyat amalda doimo namoyn bo'lgan davrla ham bo'lgan, biroq u doimo ham fuqarolik jamiyati mazmunini kasb etavermagan. Fuqarolik jamiyati 5 Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Тошкент, «Ўзбекистон», 1999, 7-жилд. 304-б. 12 davlatning ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, u ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqil jabhasiga aylanish natijasi o'laroq paydo bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida hozirgi davr huquqi va davlati vujudga keldi. Ko'rib turganimizdek, fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo'nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o'ziga xos mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi. Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati kategoriyasi, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, XVIII-XIX asrlarga kelib o'rganila boshlandi. Evropa va Amerika mamlakatlarining, katta mintaqalarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi yangi davrda boshlandi. Olimlar va mutaxassislar fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishda jamiyat va davlat tuzumida katta o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, sinflarning to'qnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub o'zgarishlar yuz bergan.

Birinchi bosqich shartli ravishda XVI-XVII asr.<sup>40</sup> Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovarpul munosabatlarining rivojlanishi kiritish mumkin. SHuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo'lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga e'tibor berila boshlandi. Ikkinchi bosqichi XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy yuridik tenglik va erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi. Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o'rnini erkin odamlarning huquqiy tengligi va o'zaro bitimlariga asoslangan gorizontal munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb e'tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga o'zini erkin xohish-irodaga ega bo'lgan, o'z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlari uchun javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan e'tirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga egabo'la boshladi. Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSH, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi. Jamiyat a'zolari yuridik nuqtai nazardan fuqarolik huquq va erkinliklarga ega bo'ldi. Fuqarolik - insonning muayyan davlatga barqaror tarzdagi mansubligi, inson va davlatning o'zaro huquqiy aloqasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Bu ikki tomonlama aloqalar, bir tomondan, davlat o'z fuqarolariga muayn huquq va erkinliklarni kafolatlaydi, ularning o'zini

---

<sup>40</sup> Горелов И.Н. Невербальные компоненты гражданского общества. -М., 1980, 348 с.



va mol-mulkini zo‘ravonlik va o‘zboshimchaliklardan himoya qiladi, xorijiy mamlakatlarda istiqomat qiyotgan o‘z fuqarolariga homiylik qiladi. Boshqa tomondan, fuqarolar davlat qonunlariga rioya qilishlari, u belgilagan majburiyatlarni bajarishlari, o‘z mehnati bilan davlatni mustahkamlashga ko‘maklashishlari, uning obro‘sini saqlashlari, zarur bo‘lgan holatlarda uni himoya qilishlari lozim. Bu huquq va burchlar majmui fuqarolarning siyosiy-huquqiy maqomini tashkil etadi. Fuqarolik - bu nafaqat shaxsning huquqiy maqomi, balki uning ijtimoiy holati hamdir. Jamiyatda haqiqiy erkinlikni ta‘minlash har bir inson nafaqat yuridik va siyosiy ma‘noda, balki iqtisodiy va ijtimoiy ma‘noda ham fuqaroga aylanishini nazarda tutadi. XX asrda fuqarolik jamiyati g‘oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarining paydo bo‘lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo‘ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan, demokratik jamiyatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: - fuqarolar totuvligiga erishish yo‘llarini izlash; - aholining turli guruhlari manfaatlarini hisobga olish; - qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish. Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo bo‘lishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi. SHaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi bo‘lib xizmat qiladi. SHunday qilib, “huquqiy davlat” va “fuqarolik jamiyati” tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiy ahamiyatga molik manfaatlari o‘raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro‘yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi. SHuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o‘rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko‘ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo‘lgan. Buning uchun odamlarning yuridik tengligi ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo‘li bilan tan olindi. Tabaqaviy tengsizlik o‘rnini egallagan umumiy yuridik tenglik shaxsning mutlaqo yangi ijtimoiy holatini belgilab berdi. Endi individlar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, erkin hamda ijtimoiy

hayotning to'laqonli ishtirokchilari deb e'tirof etildi. Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir. Fuqarolik jamiyati – murakkab tarkibli va plyuralistik tizim. Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm tizimning muayyan xossalari majmuiga ega bo'ladi, biroq fuqarolik jamiyatiga ularning to'liqligi, barqarorligi va samaraliligi xosdir. Rang-barang ijtimoiy shakllar va institutlar (kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar, klublar va h.k.)ning mavjudligi individlarning turli tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro'yobga chiqarish, odamzotning barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi. Fuqarolik jamiyati – o'zini o'zi rivojlantiruvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi tizim. Individlar har xil tashkilotlarga birlashib, bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan qarama-qarshi manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyat kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydilar..<sup>41</sup> Fuqarolik jamiyati – huquqiy demokratik davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu erda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish bog'lovchi omil sifatida amal qiladi. Fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va hokazolarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. SHu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni ajratish, haqiqiy

---

<sup>41</sup> Cobby, Paul (2008-06-05), "Sivil society: Definitions and Concepts", in Donsbach, Wolfgang (ed.), *The International Encyclopedia of Communication*, Chichester, UK: John Wiley & Sons, Ltd, pp. wbiecc071, doi:10.1002/9781405186407.wbiecc071, ISBN 978-1-4051-8640-7, retrieved 2021-07-20

fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyat bilan qo‘shilganida muqarrar tarzda iqtisodiy hokimiyatning bir markaz, bir odam yoki shaxslar guruhi qo‘lida jamlanishi yuz beradi. Agar siyosiy va iqtisodiy hokimiyatlar turli markazlar, qo‘llarda jamlansa, ular bir-birini cheklab turadi.<sup>42</sup> 3. Fuqarolik jamiyati - taraqqiyotning yuqori bosqichi. “Fuqarolik jamiyati” va “huquqiy davlat” tushunchasi birgalikda XVIII asrda paydo bo‘lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvori davlatning xohish-irodasiga bo‘ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalar bilan ifodalandi. Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g‘oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g‘oyalari bilan mushtarakdir. Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o‘zini o‘zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq vaqt davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Har bir davlatda bo‘lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o‘rnatishda va mustaqilligida namoyon bo‘ladi. Etuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. SHunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko‘rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatidirki, u huquq

---

<sup>42</sup> Harper, Douglas. "communication". Online Etymology Dictionary. Retrieved 2013-06-23

normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko‘radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur‘at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e‘tirof etadi. Totalitar davlatda xavfsizlikni ta‘minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvori davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta‘minlash faoliyatidan iborat bo‘ladi, davlat hokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish muammosi yuzaga kelmaydi.<sup>43</sup>

---

<sup>43</sup> ["What Is Sivil society?". 2012books.lardbucket.org](https://2012books.lardbucket.org/). Retrieved 2021-03-23.

### **III BOB FUQAROLIK JAMIYATI MODELLARI EVOLYUTSIYASI**

#### **3.1 FUQAROLIK JAMIYATINING ZAMONAVIY MODELLARI**

Fuqarolik jamiyati bu shunchaki fuqarolar o'z hokimiyatini amalga oshiradigan va butun xalq uchun hukumat organini (parlament kabi) birgalikda tashkil etadigan hukumat vakillarini saylash huquqiga ega bo'lgan boshqaruv tizimidir. Xuddi shu narsani aytishning yana bir usuli - bu fuqarolar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat a'zolari bo'lgan odamlar tomonidan boshqariladigan hukumatning bir turi. Demokratik hukumatda odamlar hukumat ulardan tortib ololmaydigan ba'zi bir asosiy huquqlarga ega va bu huquqlar xalqaro miqyosda tan olingan va kafolatlangan.

Fuqarolik jamiyatining bugungi kunda mavjud modellari

Fuqarolik jamiyatining asosiy modellari:

1. To'g'ridan-to'g'ri demokratiya
2. Vakillik demokratiyasi
3. Prezidentlik demokratiyasi
4. Parlament demokratiyasi
5. Avtoritar demokratiya
6. Hamkorlik demokratiyasi
7. Islom demokratiyasi
8. Ijtimoiy demokratiya

Har bir mamlakat demokratiya – fuqarolik jamiyatining ma'nosini o'ziga xos tarzda izohlaydi. Turli xil geosiyosiy atmosfera sharoitida biz butun dunyo bo'ylab mavjud bo'lgan demokratik hukumatlarning katta spektrini ko'ramiz.

Quyida bugun ko'rilayotgan fuqarolik jamiyatining ba'zi asosiy turlarini yoritib berishga harakat qilamiz.

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya - bu fuqarolar har qanday oraliq vakillarsiz yoki parlament palatalarisiz to'g'ridan-to'g'ri siyosat uchun ovoz berishlari. Agar hukumat ma'lum bir qonunni yoki siyosatni qabul qilishi kerak bo'lsa, u odamlarga tegishli. Ular masala bo'yicha ovoz berishadi va o'z mamlakatlari taqdirini hal

qilishadi. Bu masala bo'yicha jiddiy kelishuvga ega bo'lishlari sharti bilan, odamlar hatto o'zlari masalalarni ko'tarishlari mumkin. Hatto soliqlarni ham jamoat ko'magisiz oshirish mumkin emas!

Aholi oz bo'lsa, o'qimishli va asosan bir hil (hech bo'lmaganda siyosiy jihatdan) bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri demokratiya yomon fikrga o'xshamaydi. Masalan, Shveysariya uzoq yillik muvaffaqiyatli demokratiyaning muvaffaqiyatli tarixiga ega. Mamlakatning ba'zi joylarida ular hali ham bor *Landsgemeinde* - odamlar ma'lum bir kun ochiq havoda birlashadigan va o'z jamiyatining qonunlariga ovoz beradigan yig'ilishlar.<sup>44</sup>

Ushbu fuqarolik jamiyati modeli odamlarni o'z dasturlari uchun partiyalar tuzishga undaydi. E'tiborli tomoni shundaki, ushbu boshqaruv tizimi tufayli Shveysariyadagi siyosiy partiyalardan biri, bunga ishonasizmi yoki yo'qmi, Anti-Powerpoint partiyasi deb nomlanadi. Partiyaning yakka maqsadi - ofis taqdimotlarida Powerpoint-dan foydalanishni taqiqlash!

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya Qo'shma Shtatlarda asl shaklida mavjud bo'lmasa-da, ayrim elementlar shtat va mahalliy darajalarda referendumlar va tashabbuslar (yoki takliflar) shaklida mavjud. Oddiy fuqarolar referendumdan foydalanishi mumkin, agar fuqarolar ko'pchilik ovozga ega bo'lsalar, hukumatdan ma'lum bir qonunni bekor qilishni so'rashlari mumkin. Aksincha, tashabbus fuqarolarga ko'pchilik ovozga ega bo'lsa, qonun yaratish huquqini beradi.

Biroq, aksariyat davlatlar juda katta va juda murakkab bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri demokratiya o'z siyosiy chegaralarida ishlashga qodir emas. Bunday hollarda, odamlar har bir masala bo'yicha ovoz berishdan ko'ra, ularning nomidan vakillarni tanlashni afzal ko'rishadi.

#### Vakillik demokratiyasi

Vakillik demokratiyasi yoki bilvosita demokratiya - bu odamlar parlamentda kim vakili bo'lishiga ovoz berishni tanlashdir. Bu dunyoda keng tarqalgan

---

<sup>44</sup> Dance, Frank E. X. (1970-06-01). "The "Concept" of Sivil society". Journal of Communication. **20** (2): 201-210. doi:10.1111/j.1460-2466.1970.tb00877.x. ISSN 0021-9916.

demokratiyaning eng keng tarqalgan shakli. Bu mehnat taqsimotidan foydalanadi: kichik bir guruh vakillar siyosatni ishlab chiqishda o'zlarining tajribalaridan foydalanishlari mumkin, boshqalarni boshqa vazifalarni bajarish uchun ozod qilishlari mumkin.

Bunga qo'shimcha ravishda, u nafaqat shtatdagi aksariyat odamlarning, balki ozchiliklarning ham huquqlarini himoya qilishga urg'u beradi. Malakali vakilni saylash orqali ozchilik aholi o'z shikoyatlarini yanada samarali tarzda ovoz bilan eshitishga qodir bo'lar edi.

Fuqarolik jamiyatining ushbu shaklining salbiy tomoni shundaki, saylangan hukumat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlamasligi mumkin. Referendumlar va tashabbuslar, yuqorida muhokama qilingan to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning elementlari, vakillik demokratiyasining kasalliklarini davolash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Dunyoning aksariyat vakili demokratik davlatlari o'zlarini liberal demokratiya deb bilishadi. Buning sababi shundaki, ular o'zlarining shaxsiy fuqarolarining ehtiyojlarini butun davlatga qaraganda ko'proq qadrlashadi. Shuning uchun Hindiston va AQSh kabi mamlakatlarda favqulodda holat e'lon qilish qiyin. Biroq, ayrim davlatlar doimo begonalar yoki fuqarolik tartibsizliklari tahdidini his qilishadi. Isroil va Janubiy Koreya kabi ushbu davlatlar liberallardan ko'ra mudofaa demokratiyasini afzal ko'rishadi. Bu hukumat bir zumda armiyani marshal qilishi uchun amalga oshiriladi. Demokratiyaning boshqa bir qancha erkin bo'lmagan shakllari ham mavjud - mavjud bo'lganlardan *deyarli* diktatura bo'lishdan uyaladiganlarga nisbatan liberal tabiat. Bunday noto'g'ri demokratiya modelining klassik namunalaridan biri Singapur Respublikasidir.

Biroq, biz bu erda demokratiya haqida gapiramiz, shuning uchun liberallarga yopishib olaylik, shunday emasmi?

Liberal demokratiya har xil shakllarda bo'lishi mumkin, chunki turli mamlakatlarda ehtiyojlar va mafkuralar turlicha. Quyidagi turlar vakillik demokratiyasining bir nechta kichik to'plamlari.

## Prezidentlik demokratiyasi

Prezidentlik demokratiyasi sharoitida davlat prezidenti hukumat ustidan katta miqdordagi vakolatlarga ega. U to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita davlat fuqarolari tomonidan saylanadi.<sup>45</sup>

Prezident va hukumatning ijro etuvchi hokimiyati qonun chiqaruvchi organ oldida javobgar emas, lekin odatdagi sharoitlarda qonun chiqaruvchini butunlay ishdan bo'shata olmaydi. Xuddi shunday, qonun chiqaruvchi hokimiyat ham prezidentni o'z lavozimidan chetlashtira olmaydi, agar ish o'ta og'ir bo'lsa. Prezident qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun qonun loyihasiga veto qo'yish huquqiga ega. Biroq, agar qonun chiqaruvchi hokimiyat etarli ovoz to'play olsa, u prezidentning vetosini bekor qilishi mumkin.

Prezidentlik demokratiyasida davlat rahbari ham hukumat boshidir. AQSh, Argentina va Sudan kabi mamlakatlar ushbu turdagi demokratiyani qo'llaydilar.

## Parlament demokratiyasi

Qonun chiqaruvchi hokimiyatga ko'proq kuch beradigan demokratiya parlament demokratiyasi deb ataladi. Ijro etuvchi hokimiyat demokratik qonuniylikni faqat qonun chiqaruvchi hokimiyatdan, ya'ni parlamentdan oladi. Saylangan qonun chiqaruvchi organ (parlament) hukumat rahbarini (bosh vazirni) tanlaydi va har qanday vaqtda ishonchsizlik ovozini berish orqali bosh vazirni lavozimidan ozod qilishi mumkin.

Davlat boshlig'i (prezident) hukumat boshlig'idan (bosh vazir) farq qiladi va ikkalasi ham turli darajadagi vakolatlarga ega. Biroq, aksariyat hollarda, prezident yoki zaif monarx (masalan, Buyuk Britaniya) yoki tantanali bosh (masalan, Hindiston).

## Avtoritar demokratiya

Bu faqat elitalar parlament jarayonining bir qismi bo'lganda. Shtat shaxslari tanlagan nomzodi uchun ovoz berish huquqiga ega, ammo "oddiy odamlar" saylovga

---

<sup>45</sup> Craig, Robert T. (1999). "Sivil society Theory as a Field". *Communication Theory*. **9** (2): 119–161. doi:10.1111/j.1468-2885.1999.tb00355.x.



kira olmaydilar. Shuning uchun, oxir-oqibat, davlat aholisining turli manfaatlari to'g'risida faqat hukmron elita qaror qiladi. Vladimir Putin boshchiligidagi zamonaviy Rossiya ushbu turdagi boshqaruvning klassik namunasidir. Hatto Gonkong ham xuddi shu toifaga kiradi.<sup>46</sup>

#### Ishtirok etuvchi demokratiya

Avtoritar demokratiyaning aynan teskari tomoni - demokratiyaning ishtirok etish shakli. Ishtirok etuvchi demokratiyaning har xil turlari mavjud, ammo ularning barchasi aholining barcha a'zolari uchun qaror qabul qilish jarayoniga muhim hissa qo'shishi uchun imkoniyat yaratishni istaydi. U davlatni kichik tarmoqlarga bo'lib tashlash orqali vakolatsizlarga kuch bag'ishlaydi va jamoatchilik asosida boshlang'ich siyosatni kuchaytirishni afzal ko'radi. Bu shunchaki ovoz berishni emas, balki muhokama va muhokamani qadrlaydi.

Bugungi kunda biron bir mamlakat fuqarolik jamiyatining ushbu shaklini faol ravishda qo'llamaydi. Garchi uning asosidagi nazariyalar asosli bo'lsa-da, ushbu yondashuvni hayotda qo'llash murakkabliklar bilan to'la. Shu bilan birga, ko'plab xalqaro harakatlar, masalan, Xalqaro Occupy harakati, Venesueladagi Bolivariya harakati va Hindistondagi Narmada Bachao Andolan o'zlarini demokratiyaning ishtirok etuvchi modeli atrofida tashkil etishadi.

#### Islom demokratiyasi

Ushbu demokratiya shakli bir vaqtning o'zida demokratik asosni saqlab, Islom qonunlarini davlat siyosatiga tatbiq etishga intiladi. Islom demokratiyasi uchta asosiy xususiyatga ega. Birinchidan, rahbarlarni xalq saylaydi. Ikkinchidan, hamma shariat qonunlariga bo'ysunadi - rahbarlar ham. Uchinchidan, rahbarlar payg'ambar

---

<sup>46</sup> Littlejohn, Stephen; Foss, Karen (2009), "Definitions of Sivil society ", Encyclopedia of Communication Theory, Thousand Oaks: SAGE Publications, Inc., pp. 296–299, doi:10.4135/9781412959384, ISBN 9781412959377, retrieved 2021-07-20

Muhammad tomonidan qo'llaniladigan maslahatning maxsus shakli bo'lgan "sho'ra" ni amalda qo'llashlari kerak.<sup>47</sup>

Sho'rara siyosiy organ har qanday muammo bo'yicha maslahatlashish uchun joyida ekanligini anglatadi. Bu Islomiy siyosiy tizimning asosiy printsipli bo'lib, u Qur'onda tavsiya etilgan, ammo ba'zi klassik huquqshunoslar buni majburiy deb bilishadi va har qanday sharoitda ham unga rioya qilishlari kerak. (Manba)

Ushbu uchta xususiyatni bajaradigan mamlakatlar Afg'oniston va Pokistondir. Saudiya Arabistoni kabi ba'zi boshqa islomiy davlatlar avtoritar tuzumlarning qonunlariga, demokratik davlatlarga qaraganda yaxshiroq mos keladi.

### Ijtimoiy demokratiya

Ko'rib turganingizdek, turli xil siyosiy partiyalarning (masalan, diniy demokratiya, ya'ni o'zlarini diniy bezakni qo'llab-quvvatlovchi sifatida reklama qilayotgan siyosiy partiyalarning) individual pozitsiyalari yoki fikrlarini kiritishdan qochishga harakat qilindi. Biroq, bitta alohida pozitsiyani eslatib o'tish joiz. Bu shunchaki unga qasam ichadigan ko'plab siyosiy partiyalar - Ijtimoiy demokratiya bilan bog'liq.

Ijtimoiy demokratiya xalqaro iqtisodiyotdagi neoliberal siyosatiga reaksiya sifatida paydo bo'ldi. Neoliberalizm sharoitida ko'p millatli korporatsiyalar singari foyda keltiruvchi sub'ektlar boshqa siyosiy davlatlarga bemalol kirib borishi mumkin. Ular hech qanday hukumat qarshi tura olmaydigan suverenitet va harakatchanlik darajasini saqlab qolishadi. Siyosiy davlatning kuchi taqqoslaganda noaniq ko'rinadi.

Ijtimoiy demokratiya davlatni neoliberal bozorning shunchaki injiqliklari ustidan hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan. Davlat o'z narxini oshirib yuborishi mumkin, bu esa ortiqcha narxga ega bo'lgan xususiy korxonalariga bepul alternatalarni taqdim etadi. Odamlar foyda keltiradigan korporatsiyalarga bog'liq

---

<sup>47</sup> Peters, John Durham (1986). "Institutional Sources of Intellectual Poverty in Civil society Research". Research. **13** (4): 527–559. doi:10.1177/009365086013004002. ISSN 0093-6502. S2CID 145639228.

bo'lmaliklari uchun, bu bepul ta'lim yoki bepul sog'liqni saqlashni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu ro'yxat, shubhasiz, bugungi kunda mavjud bo'lgan Fuqarolik jamiyatining har xil turlari atrofida to'liq muhokamani talab qilmaydi. Dunyoda qancha hukumat bo'lsa, shuncha demokratiya bilan bog'liq nazariyalar mavjud! Shunga qaramay, fuqarolik jamiyati modellari turlicha bo'lishiga qaramay, dunyoning deyarli har bir burchagida demokratiya ruhi saqlanib qolmoqda.

### **3.2. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish O'zbekiston jamiyatini tubdan isloh qilish jarayonining strategik maqsadlaridan biridir. Bu ma'noda fuqarolik jamiyati O'zbekistonning rivojlanish yo'lini ko'p jihatdan belgilaydigan ijtimoiy buyurtma hisoblanadi.

Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlardagi siyosatshunos, huquqshunos, sotsiolog, faylasuf va jamiyatshunos olimlarning diqqat markazida turgan fuqarolik jamiyati muammosi O'zbekiston uchun alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda respublikamizda fuqarolik jamiyatini qurish imkoniyatlari va buning o'ziga xos jihatlari muhokama qilinadi.<sup>48</sup>

Mamlakatda fuqarolik jamiyati tashabbuslarining uyg'onishi ijo-biy o'zgarishlar sodir bo'lishiga umid qilish imkonini beradi. Ayrim skeptiklar O'zbekiston o'z rivojlanishida G'arb mamlakatlaridan ketgani va unda fuqarolik jamiyati mavjud emasligini qayd etgan bo'lsalar-da, mamlakatimizda bunday jamiyatning shakllanayotganini ko'rsatuvchi belgilar tobora yaqqol ko'zga tashlanib bormoqsa.

Birinchidan, «**fuqarolik jamiyati**» va «**siyosiy madaniyat**» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq: «Yuksak siyosiy madaniyatga erishish —

---

<sup>48</sup> Boboyev X.B. va Odilqoriyev X. T. Umumiy tahriri ostida. "Davlat va huquq nazariyasi". "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. 34-bet.

fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning muhim va zarur shartlaridan biridir».

Ikkinchidan, hozirgi O‘zbekiston jamiyati ma’lum siyosiy darajasiga ega bo‘lgani tufayli, respublikada fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari ham mavjud, deb aytish mumkin

Umuman olganda, fuqarolik jamiyati deganda, «davlatning tazyiqsiz, qonun doirasida vujudga kelgan muayyan kishilik hamjamiyatining ixtiyoriy o‘zini o‘zi uyushtirish shakli» tushuniladi. «Bu davlatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan, ammo mamlakat doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi va hokimiyatga ta’sir etuvchi mustaqil jamoat, nohukumat tashkilotlarining majmuidir». Ya’ni fuqarolik jamiyati davlat va shaxs o‘rtasida o‘ziga xos «vositachi»dir. Aynan fuqarolik jamiyatini shakllantirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarnin; vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonda hozirgi kunda to‘rt mingga yaqin nohukumat va jamoat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Fuqarolik jamiyati birlashmalari orasida ikki avlod, ikki to‘lqin mavjud. Ulardan biri — sovet davrida o‘z faoliyatini boshlagan nohukumat tashkilotlari, ikkinchisi — bunday tashkilotlarning taxminan uchdan ikki qismi – mustaqilik davrida ish boshlagan nohukumat tashkilotlaridir.<sup>49</sup>

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining quyidagi institutlari shakllanib bormoqda:

- 1) siyosiy partiyalar;
- 2) ijtimoiy-siyosiy harakatlar;
- 3) demokratik saylov tizimi;
- 4) jamoat birlashmalari;
- 5) nodavlat notijorat tashkilotlar;
- 6) ommaviy axborot vositalari;
- 7) oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar;
- 8) ta’lim-tarbiya muassasalari;

---

<sup>49</sup> “O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi”. Mualliflar jamoasi. Toshkent, “Moliya”, 2002. 72-73 bet.

- 9) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- 10) diniy tashkilotlar;
- 11) milliy-madaniy markazlar;
- 12) jamoatchilik fikrini o'rganish institutlari.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati mamlakatda hali yaxshi ri-vojlantirilmagan, uning ichki aloqalari takomildan yiroq. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati tashkilotlarining assambleyasini tashkil etish zarur. Davlat hokimiyati bilan nohukumat tashkilotlarning hamkorligi masalasiga kelsak, bu yerda ikki xil munosabatga duch kelish mumkin. Bir tomondan, ular davlat o'ziga e'tibor berganini olqishlarsa, ikkinchi tomondan, o'zining o'tmish tajribasidan kelib chiqib, ular bunday hamkorlikka ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi va o'z mustaqilligini yo'qotmasligi kerak.<sup>50</sup>

So'nggi yillarda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati funksiyalarini amalga oshiruvchi ko'plab harakatlar va tashkilotlar, huquqni himoya qilish tashkilotlari, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish jamiyatlari, ekologik tashkilotlar, fan, madaniyat va ta'lim sohasidagi birlashmalar, xotin-qizlarning tashkilotlari va boshqa tuzilmalar tashkil topdi va rivojlanmoqsa. Ammo ularning ish ko'lami fuqarolik jamiyatini shakllantirishning real talablariga ham to'liq javob bermaydi.

Islohot yillarida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'nalishida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bozor infratuzilmasi, avvalambor, bank va savdo infratuzilmasining elementlari vujudga keldi, tovar taqchilligi tugatildi, narx-navoning jadal ko'tarilishi to'xtatildi.

Jamiyatimizda o'rta tabaqa, mulkdorlar sinfi vujudga kelmoqda. Agar O'zbekistonda islohotlar jarayoni maqbul yo'nalishda davom etsa, iqtisod tuzilishida sodir bo'lgan o'zgarishlar natijasida o'rta tabaqaning rivojlanishi yanada jadallashib, u muhim ijtimoiy kuchga aylanadi va respublikamizning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

---

<sup>50</sup> Odilqoriyev X.T. va G'oyibnazarov Sh.G'. hammuallifligida. "Siyosiy madaniyat". Toshkent, IIV Akademiyasi nashryoti, 2004 42-43 bet.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi erkin, iqtisodiy mustaqil mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavjudligini nazarda tutadi.

Huquqning ustuvorligi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllan-tirishning muhim elementidir. Bu huquqiy davlat g‘oyasidan ham kengroqdir. **Huquqiy davlat** g‘oyasi nemis siyosiy va huquqiy nazariyasidan kirib kelgan bo‘lib, dastlab davlat ma‘muriyatini huquq, qonun bilan cheklashni anglatgan. Ammo davlatning o‘zi avtoritar bo‘lishi mumkin bo‘lgan, zotan huquqiy davlat konsepsiyasi qonun qabul qiluvchi organni mazkur qonunlar qanday bo‘lishi kerakligi va inson huquqlariga nisbatan ular qaysi chegaralargacha amal qilishi mumkinligi jihatidan cheklaydi. Binobarin, huquqiy davlat qonun chiqaruvchi organ demokratik yo‘l bilan saylangan bo‘lmasa, avtoritar qonunlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha jihatlarini qamrab olgan taqdirda esa, hatto totalitar bo‘lishi mumkin.<sup>51</sup>

**Jamiyatning erkinligi** — fuqarolik jamiyatining muhim elementi. U jamiyat hayotining turli sohalari va tegishli uyushmalari: iqtisod, ya‘ni keng ma‘noda ishlab chiqarish, uning tashkiliy shakllari, kasaba uyushma-lari, universitetlar, matbuot, fan, jamoat birlashmalari, masjid, diniy tashkilotlar va hokazolarning mustaqilligi va tashabbuskor-ligini bildiradi. Mazkur jamoat birlashmalariga nisbatan davlatning vazifasi jamiyatning barcha a‘zolarining huquq va erkinliklarini himoyalash uchun rioya qilinishi lozim bo‘lgan o‘yin qoidalarini tartibga soluvchi qonun ko‘rinishida eng umumiy chegaralarni o‘rnatishdan iborat bo‘lishi kerak. **Fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy plyuralizm ijtimoiy tuzilmalar mustaqilligi, shaxs va fuqaro huquklari hamda erkinliklari asosida o‘rnatiladi.**

**Fuqarolar madaniyati** fuqarolik jamiyatining muhim elementi bo‘lib, uning negizini demokratik siyosiy va huquqiy madaniyat tashkil etadi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida avtoritar siyosiy madaniyatda namoyon bo‘luvchi avtoritar mentalitet yetakchilik qiladi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti

---

<sup>51</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

bo'lgan asosiy ijtimoiy qadriyatlar yuzasidan hanuz murosaga kelingani yo'q. Bu «**anomiya**» deb ataluvchi vaziyatning yuzaga kelishiga olib keldi. Anomiya deganda bir normativ qadriyatlar tizimi buzilgan, ammo uning o'rnida yangi normativ qadriyatlar tizimi hali vujudga kelmagan vaziyat tushuniladi. Bu ma'noda Prezidentimiz I. A. Karimovning: «Yangi uyni qurmasdan, eski uyni buzmag», degan so'zlari ramziy yangraydi.

**Liberalizm institutlari** (erkinlik, qonunning ustuvorligi va h.k.) hamda insoniylikning ayrim an'anaviy talablari (fuqarolarning farovonligi haqida g'amxo'rlik, ularga munosib yashash sharoitlarini yaratib berish, muayyan ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va h.k.) ni sintez qilish maqsadida huquqiy va ijtimoiy davlatni birlashtirish g'oyasi so'nggi davrda yetakchi o'ringa chiqmoqsa.

Hozirgi kunda huquqiy davlat konsepsiyasi hech bo'lmaganda ijtimoiy davlat elementlari bilan to'ldirilishi lozim, zotan, ijtimoiy-iqtisodiy huquklar va erkinliklarning kafolatlari qabul qilingan yondashuvlar va ilgari surilgan prinsiplargagina emas, davlatning real imkoniyatlariga ham bog'liq.

Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tashkiliy-tuzilmaviy shaklga egalik qilish huquqiy davlat haqida gapirish imkonini beradi. Joriy vaziyat shu bilan ta'riflanadiki, hokimiyat mazkur hokimiyatni qonuniylashtirish uchun fuqarolar hamjamiyati ularning qo'llab-quvvatlashiga muxtoj bo'ladi. Jamiyatni isloh qilii fuqarolik jamiyati yetakchilik qilishi lozim. Hokimiyat esa, hamisha o'ziga nisbatan tanqidiy fikrlar aytilishiga tayyor bo'lishi kerak.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi bir vaqtda huquqiy demokratik davlat ham rivojlanib borishini, shaxs va davlat hokimiya huquqning teng subyektlari sifatida maydonga chiqishini taqozo etadi.

Davlat ma'lum kafolatlar tizimini tashkil etganligi tufayli fuqarolik jamiyati faoliyat yuritish va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning o'zaro bog'liqligi ana shunda. Demokratik tuzumning zarur sharti hisoblangan huquqiy davlatning asta-sekin rivojlanishida hokimiyatning an'anaviy tarzda uch bo'g'inga taqsimlanishigina emas, balki ularni to'ldiruvchi

hokimiyatning fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasida taqsimlanishida namoyon bo'ladi.<sup>52</sup>

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi. Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviyaxloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.<sup>53</sup>

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri - bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi printsiptial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor

---

<sup>52</sup> Rukavishnikov V. O. Politicheskiy kulturni i sotsialniye izmeneniya. Mujdunarodniye otnosheniye. – M., 1998..82-bet.

<sup>53</sup> Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации //Человек, 1992, № 2, С. 51 -65.



shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsiplarga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilmaxilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy printsiplari masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy printsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadbiriy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan uch bosqichga bo'lib tahlil qilish tavsiya etiladi. Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining shakllanishining asoslari yaratildi Ikkinchi bosqich (2000-2010 yillar) damamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi. 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Mamlakatda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontsepsiyasi e'lon qilindi.

Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va yana – uchinchi bosqichni boshlab berdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarining mazmun mohiyatidan kelib chiqib fuqarolik jamiyati tushunchasiga turli xil darajada tariflar berilmoqda. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan

fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: Fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan mustaqil qva barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir. Yurtimizdagi jamiyatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini —..... bu - erkin, demokratik, huquqiy tsivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lib, unda yakka hokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlik qilishga o'rin yo'q, Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi. Bu jamiyatda ko'p ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashshabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini muvozanatga keltirib turiladi yoki — Fuqarolar o'rtasidagi muaayyan kompromiss, davlat va nodavlat tashkilotlpr o'rtasida konsensus madaniyati vudulga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro ta'sirga kirishishga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin deya tariflaydi <sup>54</sup>.

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida Konstitutsiya huquqi tizimining birlamchi asosidir. U huquq tarmoqlari birligini, o'zaro muvofiqligini hamda harakatlanish prinsplarining yagonaligini ta'minlaydi. Huquqiy davlat yaratish sari rivojlanib borayotgan davlatimizda huquq ustuvorligini ta'minlab borish muhim vazifalardan sanaladi. Konstitutsiyamizning ustuvorligi esa har birimizdan ulkan huquqiy mas'uliyatni talab qiladi. Ya'ni bu mas'uliyat konstitutsiya va qonunlarni bilishni, ularga amal qilib yashashni taqozo etadi. Bu esa konstitutsiyani o'rganish zarurligini bildiradi.

---

<sup>54</sup> Littlejohn, Stephen; Foss, Karen (2009), "Definitions of Sivil society ", Encyclopedia of Communication Theory, Thousand Oaks: SAGE Publications, Inc., pp. 296–299, doi:10.4135/9781412959384, ISBN 9781412959377, retrieved 2021-07-20

O`z huquq, erkinlik va burchlarimizni yanada chuqurroq anglashda qonunlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya huquq va erkinliklarni mustahkamlash bilan birga fuqarolar zimmasiga burch va mas`uliyatlar yuklaydi. Burch degani, avvalo Konstitutsiyani o`qib o`rganishdan boshlanadi.

Konstitutsiyani bilgan kishi o`z hatti-harakatini qonun doirasi ichida amalga oshiradi. Boshqa kishilarning hamda jamiyat va davlatning huquqi va erkini hurmat qiladi. Konstitutsiyani bilish asosida sizda shakllangan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotining qudratli kuchiga aylanadi. Qonunlarni bilishning muhimligi oqibat natijada ana shunday maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois ajdodlarimiz qonunga hurmat va unda itoat qilishni qadrlaganlar.

„Qonunni bilganga keng dunyo, qonunni bilmaganga tor dunyo” , „Qonunning kaliti adolat, adolat kaliti sahova t”, „Qonunbuzar-elbuzar, elbuzarni qonun tutar” va shu kabi hikmatli so`zlar ham qonunga bo`lgan ongli munosabatning mahsulidir.

Hayotimizning asosiy qonuni bo`lgan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalqimiz, jamiyatimiz va davlatimiz hayotida tutgan o`rni va ahamiyati beqiyosdir.<sup>55</sup>

Konstitutsiyada davlatimizning demok- ratik mohiyatidan kelib chiqqan holda asosiy inson huquqlari va erkinliklari huquqiy kafolati qo`yilgan. Konstitutsiyada O`z bekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya`ni xalqning o`zi bevosita boshqariladigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo`yadi. Unda “Jamiki nematlar orasida eng ulug`i-inson” ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Inson ni ulug`lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiya mizning asosiy g`oyasiga aylantirilgan. Zero, Konstitutsiyamizning eng katta va muhim qismi „Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan II bo`limdir.

---

<sup>55</sup> Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbekistane. – T., 2002 101-bet

Konstitutsiyada davlat inson va jamiyat farovonligini ko`zlab ijtimoiy adolat va huquqiylik prinsplari asosida o`z faoliyatini amalga oshirishi belgilab qo`yilgan. Shu bois ham insonga munosib hayotni va uning rivojlanishini ta`minlash umumdavlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. O`zbekiston ijtimoiy adolatga asoslangan davlatdir. Shuning uchun u fuqarolarni, ayniqsa eng noxir qatlamlari bo`lmish nogironlarni, ko`p bolali oilalarni, yetim-yesirlarni ijtimoiy jihatdan har taraflama qo`llab quvvalamoqda. O`zbekiston Respublikasi 21-23 moddalari “fuqarolik” deb atalib, ushbu moddalarda O`zbekiston Respublikasida fuqarolikka oid qoidalar bayo etilgan.

Fuqarolik masalasi siyosiy masaladir. Ibtidoiy jamiyatda fuqarolik tushunchasi bo`lmagan, chunki unda davlat singari tashkilot ham bo`lmagan. Fuqarolik tartiblari, davlat va huquq kabi ijtimoiy hodisalar paydo bo`lishi natijasida shakllanib, unda davlat qonunlar vositasida, odamlarini o`z fuqarosi sifatida tan olish asoslarini belgilay boshlagan. Shaxs va davlat o`rtasidagi o`zaro munosabat fuqarolik tartiblari bilan belgilanadi.

Fuqarolik-bu shaxsning muayyan davlatga mansubligini bildiruvchi, shaxs bilan davlat o`rtasidagi barqaror, doimiy siyosiy, huquqiy aloqalarini aniqlovchi tushunchadir. Bu aloqalar davlat va shaxsning o`zaro huquq va burchlarini aniqlashda namoyon bo`ladi. Ya`ni, davlat shaxsni o`zining fuqarosi deb tan olarkan, uning Konstitutsiyada ko`rsatilgan fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilaydi, uning huquqlari va erkinliklarini ushbu davlat ichida hamda tashqarisida muhofaza qiladi. Shaxs ham jamiyat va davlat oldidagi burchlarini bajarishga majbur.

O`zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni qayta tiklash, fuqarolikdan chiqish va uni yo`qotish masalalari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan rasmiylashtiriladi. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonning tabiiy, asosiy ajralmas huquqlaridir. Ular tabiiy yashash huquqidan va erkinlikardan kelib chiqqan, har bir kishi tug`ilgandayoq shunday huquqqa ega bo`ladi. Ular kishining shaxsiy erkinligiga kafolat beradi, davlatning va boshqa kishilarning o`zvoshimchaligidan himoya qilinadi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari tizimining asosini tashkil qiluvchi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VVI bobida mustahkamlangan bo`lib, ular halqaro huquqning barcha hujjatlari talablariga mos keladi. Shaxsni himoya qilish, shuningdek, uning hayotini ijtimoiy havfl tajovuzdan muhofaza qilish har bir demokratik davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Halqaro huquqning insonparvarlik qoidalaridan kelib chiqib, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonning yashash huquqini uzviy va ajralmas deb q`lon qiladi hamda kafolatlaydi.

Bizda insonning yashash huquqi qonunlardagina e`lon qilinib qolmasdan, balki juda ko`p vositalar bilan ta`minlanadi. Birinchidan O`zbekiston va uning hukumati tomonidan olib borilayotgan barqarorlik va tinchlikni saqlash siyosati, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik insonning yashash huquqini ta`minlovchi eng muhim garovdir.

Ikkinchidan O`zbekistonda yashash huquqining muhim kafolatlaridan yana bir inson umrini uzaytirish, o`limni kamaytirish, qulay va munosib turmush sharoitini vujudga keltirish kabi maqsadlarini nazarda tutuvchi kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish hisoblanadi.

Uchinchidan O`zbekistonda insonning yashash huquqi turli qonunlar bilan muhofaza qilinadi. Bular ichida ayniqsa O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi muhim o`rin tutadi. Unda inson hayotiga suiqasd qilish, hayotga qarshi jinoyatlar eng og`ir jinoyat sifatida qaralib, buning uchun qattiq jazo choralari belgilangan.

Fuqarolarning sud tomonidan himoyalaniishi huquqining mazmuni O`zbekiston Respublikasi „Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to`g`risida” gi 1995 - yil 30-avgust qonunida bayon etilgan. Ushbu Qonun O`zbekiston Respublikasi fuqarolarinigina emas, balki chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarning ham O`zbekiston Respublikasi sud organlariga murojaat qilish

huquqini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ning sakkizinchi bobi siyosiy huquqlarga bag'ishlangan bo'lib, bu huquqlarni kafolatlaydi. Bu huquqlar quyidagilardan iborat: Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi (32-modda), ijtimoiy faollikni mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi (33 -modda).

Siyosiy huquqlar - bu odatda, faqat shu davlat fuqarolari huquqlaridir. Ular davlat hayotida, davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqlarini beradi. Tabiiyki bunday huquqlarda mamlakat hududida yashayotgan yoki hozir bo'lgan barcha odamlar davo qilishi mumkin emas. bu - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tegishli moddalarda berilgan qoidalardan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi muhim siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi. Chunki-bu jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlarning asosiy maqsadi fuqarolarning siyosi sohadagi huquqlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi da 2 mingdan ziyod nomdagi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, fuqarolarning turli sohadagi huquq va erkinliklarini amalga oshirish imkonini bermoqda. Jamoat birlashmalari tizimida siyosiy partiyalar muhim o'rin tutadi. Chunki siyosiy partiyalarda jamiyatimizning eng ilg'or, siyosiy barkamol fuqarolari birlashib davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashadi. Kuchli davlatda kuchli jamiyat sari borishimizga xizmat qiladi. <sup>56</sup>

Istiqlol tufayli O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, shu kunlarda O'zbekiston kasaba uyushmalari turli kasb egalari bo'lgan mehnatkashlarni jinsi, diniy e'tiqodi, irqiy va milliy mansublikdan qat'iy nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Kasaba uyushmasining tashkiliy tuzilishi va

---

<sup>56</sup> "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi". Mualliflar jamoasi. Toshkent, "Moliya", 2002. 72-73 bet.

faoliyati mazmuni o`zgaradi. Uning asosini jahon kasaba uyushmalari amaliyoti andozalariga mos keladigan federalizm, demokratiya, mustaqillik va ixtiyoriylik tamoyillari, tashkil eta boshladi. Kasaba uyushmalarining har bir a`zosi saylash va saylanish, yig`ilishlar, matbuot va boshqa vositalar orqali kasaba uyushmalari hamda ma`muriy organlar faoliyatiga ta`alluqli masalalarni qo`yishi mumkin.<sup>57</sup>

Demokratik taraqqiyot yo`lini tanlagan har qanday jamiyat oldida, avvalo, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ular qalbida Konstitutsiya va qonunlar asosida yashash tuyg`usini shakllantirish vazifasi turadi. Asosiy qonunimiz qabul qilinganidan buyon unda belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy g`oyalar jamiyatimiz hayotida bosqichma-bosqich o`zining amaliy ifodasini topmoqda. Mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan bunday o`zgarishlar, xoh u iqtisodiy, xoh siyosiy yo`nalishda bo`lsin, barchasi yagona maqsad — har jihatdan rivojlangan demokratik davlat barpo etish, xalqimiz turmush darajasini yaxshilash, eng muhimi, o`zimizga xos taraqqiyot yo`lining huquqiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgandir. Bu bir tomondan, Konstitutsiyamiz bugungi va ertangi taraqqiyot yo`limizning huquqiy asosi bo`lib xizmat qilayotganini ko`rsatsa, boshqa tomondan, uning zamon bilan hamnafas, xalqaro huquqning umume`tirof etilgan tamoyillari bilan uyg`un, bir so`z bilan aytganda, xalqchil qomus ekanidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, Konstitutsiya jamiyat va davlat, qolaversa, har bir inson, har qaysi oila hayotida muhim o`rin tutadi. Hech bir fuqaro o`z hayoti va kelajagini Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi. Bosh qomusimizda belgilangan huquqiy kafolatlar samarasi o`laroq, bugun O`zbekiston yoshlari dunyo ko`z o`ngida yuksak dovonlarni zabt etmoqda. Yana ham aniqrog`i, yoshlarni moddiy va ma`naviy jihatdan qo`llab-quvvatlash, ularning zamonaviy ilmlarni chuqur egallashi, yetuk kasb-hunar egasi, kelajakning munosib vorisi bo`lishi yo`lida amalga oshirilgan ishlar, yaratilgan imkoniyatlarga Konstitutsiya huquqiy poydevor vazifasini bajarib kelmoqda.

---

<sup>57</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

Jahonning biron-bir mamlakatida Prezident tashabbusi bilan u yoki bu yilning «Sogʻlom avlod yili», «Yoshlar yili» yoki «Barka mol avlod yili» deb eʼlon qilinganini, shu munosabat bilan maxsus davlat dast urlari hayotga tatbiq etilganini eshitganmisiz? Mubolagʻa qilayapti, demang-u, bugun bu ezgu anʻana haqli ravishda mustaqil Oʻzbekiston taraqqiyotining, uning demokratik siyosatining muhim jihatiga aylandi.<sup>58</sup>

Shuni aytish kerakki, bugun yurtimizning chekka-chekka joylarida yashovchi yoshlar ham zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan shinam oʻquv maskanlarida taʼlim olmoqda. Konstitutsiyada har qaysi fuqaroning bilim olish va mehnat qilish huquqi kafolatlangan. Bugun chuqur bilim va malakaga ega boʻlishni istagan yoshlar nafaqat yurtimizda, balki xorijning eng nufuzli oliy oʻquv yurtlarida turli sohalar boʻyicha tahsil olmoqda. Quvonarlisi, Oʻzbekiston yoshlari oʻzi oʻqiyotgan joyda turib, Garvard, Oksford, Kembrij, Nagoya singari dunyoning mashhur universitetlari bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa qilayotir, u yerda tahsil olayotgan talabalar bilan oʻzaro tajriba almashayotir. Mana shu misollarning oʻziyoq, jamiyatimizda yoshlarga, ularning taqdiriga, orzu-intilishlariga boʻlgan eʼtibor davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylanganidan, bu borada oʻziga xos huquqiy taraqqiyotga erishilganidan dalolat beradi. Albatta, bugun yoshlarimizning xalqaro miqyosda qoʻlga kiritayotgan yutuqlari haqida har qancha gapirsak, oz. Lekin nazarimizda, ayni payt da mustaqillikni mustahkamlash, tinch va osuda hayotimizni qadriga yetib yashash, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish har birimizning oldimizdagi masʼuliyatli burchdir.

Shu maʼnoda, xoʻsh, bugungi yoshlar Konstitutsiyada belgilab qoʻyilgan kafolatlardan bir xilda foydalanayaptimi, oʻzlariga bildirilgan umid va ishonchni oqlayaptimi, degan koʻpdan-koʻp savollar tugʻilishi tabiiy. Hayot bugun har bir kishidan, ayniqsa, yoshlardan bildirilgan ishonchni oqlashni, mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida faol boʻlishni,

---

<sup>58</sup> Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet



shijoat va fidoyilikni talab etmoqda. Vaholanki, har qanday davlatning huquqiy taraqqiyoti ko'p jihatdan fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligi yuksalgani, ular qalbida vatanparvarlik t uyg'usining ustuvor g'oyaga aylangani bilan bog'liq ekanini jahon mamlakatlari tarixidan yaxshi bilamiz.

Konstitutsiyamizning qadr-qimmatini hech narsa bilan o'lchab, tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki unda mustahkamlangan qoidalar zamirida xalqning, millatning, qolaversa, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari mujassam. Konstitutsiyani aziz va muqaddas deb bilib, undagi qoidalar asosida yashash hozirgi avlodning bugungi va kelgusi hayoti adolatli bo'lishini har jihatdan kafolatlaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquqiy davlat barpo etish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda huquq ustuvorligini ta'minlash muhim vazifadir. Konstitutsiyaning ustuvorligi esa har birimizdan, ayniqsa, yoshlardan ulkan mas'uliyat talab etadi. Bu mas'uliyat — Konstitutsiya va qonunlarni bilishdan, ularga qat'iy amal qilib yashashdan iborat. Bu esa voya ga yetayotgan avlod Konstitutsiyani chuqur o'rganishi zarurligini taqozo etadi. Ze ro, Konstitutsiyani o'rganish, uning mazmunini ifodalovchi huquqiy me'yorlar mohiyatini terananglash, ularga ongli ravishda amal qilib yashash — qonun ustuvorligiga erishishning muhim shartidir. Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishida ko'zda tutilganidek, Konstitutsiyamizning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini teran anglash har bir o'g'il-qizning fuqarolik urchiga aylanmog'i lozim.<sup>59</sup>

Boshqacha aytganda, ertaga kim bo'lishidan, qaysi kasbni egallashidan qat'i nazar, bugungi yosh avlodning huquqiy barkamol bo'lib voyaga yetishining eng muhim sharti — Konstitutsiya va qonunlar asosida yashash tuyg'usini hayot mezoniga aylantirishdan iborat.

---

<sup>59</sup> Boboyev X.B. va Odilqoriyev X. T. Umumiy tahriri ostida. "Davlat va huquq nazariyasi". "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. 34-bet.

Barchamizga ma'lumki, har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush kechirishi, xo xish-irodasini amalga oshirilishi, ezgu niyat-maqсадlarini huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Shu kafolat Vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini millatlararo hamjihatligu do'stligini, erishilgan mustaqillikning barqarorligini uzoq yillar davomida ta'minlashga shart-sharoit hamda kafolatlar muqaddas qonunimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Xalqimiz muxtaram Prezidentimiz boshchiligida va raxnamoligida mustaqillikka erishib, o'zligini anglab, o'z taqdirini o'z qo'liga olib, mamlakatimizning beqiyos boylik va imkoniyatlaridan foydalanib, erkin va farovon hayot qurish yo'lidan qat'iyat bilan ilgarilab bormoqda.<sup>60</sup>

Hech shubhasiz, xalqimiz ana shunday taraqqiyotga erishishda 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Biz ona yurtimizning mustaqilligini e'lon qilish bilan o'zimizning davlatchiligimizga xos bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot yo'limizni belgilab oldik. Shu bilan birga har-hil larzalarsiz, barqaror kechadigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlatni, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z oldimizga oliy maqsad qilib qo'yganmiz.

Ma'lum bir davlat hududida yashab turgan inson uchun qaysi davlatga mansubligi muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning huquqiy maqomi uning qaerda yashayotganligi, qaysi davlat fuqarosi ekanligi kabi holatlarga bog'liq holda shakllanadi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib, unda "inson" va "fuqaro" maqomi alohida ta'riflanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining huquq va erkinliklariga bag'ishlangan normalari, agarda inson huquqlarini mustahkamlayotgan bo'lsa, odatda "har kim", "hech kim", "har bir shaxs" kabi iboralardan foydalanilgan. Agar

---

<sup>60</sup> Odilqoriyev X.T. va G'oyibnazarov Sh.G'. hammuallifligida. "Siyosiy madaniyat". Toshkent, IIV Akademiyasi nashryoti, 2004 42-43 bet.

O‘zbekiston fuqarosi huquqlari va majburiyatlari mustahkamlanayotgan bo‘lsa, “O‘zbekiston fuqarolari” degan atamadan foydalanilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonunida davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashi e‘tirof etiladi. Uning 128 ta moddasidan 60 tadan ziyodi shaxsning huquqiy maqomiga va fuqarolarning huquq va erkinliklariga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insoniyatning uzoq davom etgan erkinlik va tenglik uchun kurashi jarayonida shakllangan umuminsoniy siyosiy huquqiy qadriyatlarga bo‘lgan e‘tiqodi va sodiqligini namoyish etib, inson va fuqaro huquq va erkinliklarini tizimli ravishda mustahkamlaydi. Konstitutsiyamizda shaxsiy huquq va erkinliklar inson hayotining mazmuni bo‘lib, kishining jamiyatdagi turmushi, yashash tarzi va faoliyat ko‘rsatish asoslarini ifodalaydi, uning shaxsiy hayotini, xususiy erkinliklarini turli xildagi tajovuzlardan himoya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyamizda “Jamiki dunyoviy ne‘matlar ichida eng ulug‘i-inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda “fuqaro-jamiyat-davlat” o‘rtasidaga o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik”, deb ta‘kidlashga to‘la asos mavjud. Insonni ulug‘lash, fuqarolarning huquq va erkinliklari O‘zbekiston Konstitutsiyasining butun mazmun- mohiyatini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarining mazmuni 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga to‘liq mos keladi. Prezidentimiz Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma‘ruzasida ta‘kidlaganidek “Bizning Qomusimiz demokratik konstitutsiyalarga qo‘yiladigan yuksak talablarga javob beradigan, inson hamda fuqarolarning barcha huquqlari va erkinliklarni kafolatlaydi”.

Demokratik jamiyatda qabul qilinayotgan qonunlar, albatta adolatli bo‘lishi va o‘zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Mana shunday qonunlarga og‘ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo‘ladi. Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri – shu jamiyat

fuqarolarining qonun oldidagi tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidadir. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Mamlakatimizda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarni mustahkamlash bilan birga sud-huquq sohasini isloh qilishga katta e'tibor berilayotir. Bu yo'nalishdagi dastlabki qadam sifatida sud jarayonida ayblov va himoyaning amalda tengligini ta'minlash va buning uchun advokatura idoralarining mavqeini ko'tarish, sud islohotini o'tkazish jarayonida jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudyalarning ixtisoslashuvini amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Shuningdek jinoyat va jinoyat protsessual qonun xujjatlarini liberallashtirish hamda demokratlashtirish yo'lida muhim qadam tashlandi.

Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Konstitutsiyamizda oila – alohida bob qilib belgilangan. Oila – jamiyatning o'zagi, bo'g'inidir. Davlat, jamiyat – inson va fuqarosiz mavjud emas. Davlatning tub ma'nosi xalq. Har bir inson eng avvalo oilada tarbiya oladi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat zimmasiga yuklangan. Voyaga yetgan farzandlar esa ota-onalarini kasal bo'lgan, mehnatga qobiliyatini yo'qotgan, ularga qaram bo'lib qolgan hollarda yordam berishlari shart.

Shuni alohida ta'kidlash joizki Konstitutsiyamiz o'zining xalqchilligi, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligi uchun ham muqaddasdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat ekanini xalqimizga tushunarli tarzda yetkazib berishni bugun davrning o'zi taqozo etayotir.<sup>61</sup>

---

<sup>61</sup> Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'ravonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi. Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab bo'ladi.<sup>62</sup> Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi. Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ma'rifiy bo'la olmaydi. Demokratik jamiyatda esa fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular: a) avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish; b) davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish; v) ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish; g) jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi. O'zbekiston mustaqillik tufayli, fuqarolarning so'z, majlislar va vijdon erkinligini ham yangicha asoslarga qo'ydi. Bu daxlsiz huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini milliy qadriyatlar va an'analar, respublikaning milliy tarkibi xususiyatlari, polietnik davlat talablaridan kelib

---

<sup>62</sup> Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet

chiqqan holda amalga oshira boshladi. Bu har bir insonga, 104 uning millati, dini, jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqaro sifatida ham huquqlarini teng amalga oshirish uchun demokratik asoslar yaratib berildi. Bu Respublikada yashayotgan har bir fuqaroning mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida erkin faoliyatini amalda ta'minlab bermoqda.

## XULOSA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat ekanini xalqimizga tushunarli tarzda yetkazib berishni bugun davrning o'zi taqozo etayotir.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'ravonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi. Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab bo'ladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi. Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ma'rifiy bo'la olmaydi. Demokratik jamiyatda esa fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular: a) avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish; b) davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish; v) ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish; g) jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi. O'zbekiston mustaqillik tufayli, fuqarolarning so'z,

majlislar va vijdon erkinligini ham yangicha asoslarga qo'ydi. Bu daxlsiz huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini milliy qadriyatlar va an'analar, respublikaning milliy tarkibi xususiyatlari, polietnik davlat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshira boshladi. Bu har bir insonga, uning millati, dini, jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqaro sifatida ham huquqlarini teng amalga oshirish uchun demokratik asoslar yaratib berildi. Bu Respublikada yashayotgan har bir fuqaroning mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida erkin faoliyatini amalda ta'minlab bermoqda.

**Tadqiqot yakunida qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

Yoshlardagi yuqori huquqiy savodxonlik demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda, bugungi islohotlarning mohiyatini tushunishda, ularni amalga oshirishda yoshlarning yanada faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu darajaga esa tizimli va doimiy huquqiy tarbiya orqali erishish mumkin.

1. Avvalo, shunga e'tibor qaratish kerakki, yetarli huquqiy ta'lim-tarbiyagina huquqiy savodxonlikka olib boradi. Shu boisdan, pedagogika oliygohlarida "huquqshunoslik pedagogikasi" fakultetlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. O'z navbatida esa, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida "Huquqshunoslik", "Sotsiologiya" va yana shu kabi ijtimoiy fanlar dars soatlarini optimal darajada ko'paytirish ham lozim.

2. Shu bilan birga huquqiy ta'lim-tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlash samarali bo'ladi, degan fikrdamiz. Zero, bu yoshdan boshlab bolalarga konstitutsiya, qonun, fuqarolik, huquq, majburiyat kabi tushunchalarni singdirish lozim. Huquqiy ta'limning bunday izchilligi shunisi bilan ahamiyatliki, bunda doimiy auditoriya mavjud bo'lib, huquqiy savodxonlikka erishishning tadrijiyligi ta'minlanadi.

3. Shu qatorda, yoshlarning huquqiy ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishning hududiy dasturlarini yaratish davri keldi, deb hisoblaymiz. Viloyat va tumanlar



miqyosidagi, o‘ziga xos dasturlarning bo‘lishi yoshlar orasida huquqiy savodxonlik ko‘lamining oshishiga olib keladi, degan fikrdamiz. Masalan, “Yosh huquqshunos” nomli tuman hokimi mukofoti, “Konstitutsiya bilimdonlari” nomli viloyat hokimi kubogi kabi yangicha tadbirlar yoshlar orasida huquqiy bilimlarga qiziqishning yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

4. Keyingi taklifimiz shundan iboratki, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga “davlat – ota-ona – maktab – huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tizimini joriy qilish lozim. Bunda davlat tomonidan joylarda shart-sharoit yaratib berilsa, o‘quv muassalari tadbirlarni tashkillashtiradi va ota-onalar bolalarni jalb qilishadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari esa tizimli tarzda yoshlarni o‘z huquqlarini himoya qilishda kerak bo‘ladigan huquqiy bilimlar bilan tanishtirib boradilar. Bu tadbirlar suhbat, munozara, taqdimotlar, filmlar namoyish qilish kabi ko‘rinishlarda o‘tkazilishi mumkin.

5. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yanada mustahkam qaror toptirish yo‘lida o‘quvchi yoshlarga yetarlicha ma’lumot bera oladigan, ularni faollikka chaqiradigan mazmundagi fundamental tadqiqot yaratish lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

**1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlari**

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2020.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni – PF-4947, 07.02.2017
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida” farmoni – PF-5953, 02.03.2020
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni - PF-5349, 19.02.2018
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy Ta‘limning davlat Ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-son qarori, – T: O‘zbekiston, 2020

**2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma‘ruzalari**

- 2.1. Sh.M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat‘iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017, 107 bet.
- 2.2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017, 491 bet.
- 2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T: “O‘zbekiston” NMIU, 2018, 80 bet.
- 2.4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2016, 56 bet.

- 2.5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: “O‘zbekiston”, 2017, 48 bet
- 2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so‘zi gazetasi, 29.12. 2020 y.

### **3. Asosiy adabiyotlar**

- 3.1. Boboyev X.B. va Odilqoriyev X. T. Umumiy tahriri ostida. “Davlat va huquq nazariyasi”. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2000.
- 3.2. “O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi”. Mualliflar jamoasi. Toshkent, “Moliya”, 2002.
- 3.3. Odilqoriyev X.T. va G‘oyibnazarov Sh.G‘. hammuallifligida. “Siyosiy madaniyat”. Toshkent, IIV Akademiyasi nashryoti, 2004
- 3.4. Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati. – T., 2002.
- 3.5. Saidov A. va Tojixonov U. hammuallifligida. “Islom Karimov Konstitutsiya to‘g‘risida”. Toshkent, “Akademiya”, 2001.
- 3.6. Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbekistane. – T., 2002
- 3.7. Rukavishnikov V. O.Politicheskiy kulturi i sotsialniye izmeneniya. Mejdunarodniye otnosheniye. – M., 1998.
- 3.8. Блумер Г. Коллективное поведение. /Американская социологическая мысль: тексты. М.: Изд-во МГУ, 1994. - С. 168 -215.
- 3.9. Бородина Т.В. Социальный диалог: коммуникативные стратегии личностной репрезентации общественных отношений. Автореф. дисс. к.ф.н., Ростов-на-Дону, 2003, 26 с.
- 3.10. Вебер М. Харизматическое господство. 1988, №6, С.139-137.
- 3.11. Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. -М., 1980, 348 с.
- 3.12. Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации //Человек, 1992, № 2, С. 51 -65.

#### 4. Xorijiy adabiyotlar

- 4.1. Copley, Paul (2008-06-05), "Sivil society: Definitions and Concepts", in Donsbach, Wolfgang (ed.), *The International Encyclopedia of Communication*, Chichester, UK: John Wiley & Sons, Ltd, pp. wbiecc071, doi:10.1002/9781405186407.wbiecc071, ISBN 978-1-4051-8640-7, retrieved 2021-07-20
- 4.2. Harper, Douglas. "communication". *Online Etymology Dictionary*. Retrieved 2013-06-23
- 4.3. "What Is Sivil society?". 2012books.lardbucket.org. Retrieved 2021-03-23.
- 4.4. Peters, John Durham (1999). *Speaking into the air : a history of the idea of Sivil society* . Chicago: University of Chicago Press. p. 2. ISBN 0-226-66276-4. OCLC 40452957.
- 4.5. Dance, Frank E. X. (1970-06-01). "The "Concept" of Sivil society ". *Journal of Communication*. **20** (2): 201–210. doi:10.1111/j.1460-2466.1970.tb00877.x. ISSN 0021-9916.
- 4.6. Craig, Robert T. (1999). " Sivil society Theory as a Field". *Communication Theory*. **9** (2): 119–161. doi:10.1111/j.1468-2885.1999.tb00355.x.
- 4.7. Littlejohn, Stephen; Foss, Karen (2009), "Definitions of Sivil society", *Encyclopedia of Communication Theory*, Thousand Oaks: SAGE Publications, Inc., pp. 296–299, doi:10.4135/9781412959384, ISBN 9781412959377, retrieved 2021-07-20
- 4.8. Peters, John Durham (1986). "Institutional Sources of Intellectual Poverty in Sivil society Research". *Research*. **13** (4): 527–559. doi:10.1177/009365086013004002. ISSN 0093-6502. S2CID 145639228.
- 4.9. Miller, Gerald R. (1966-06-01). "On Defining Communication: Another Stab". *Journal of Communication*. **16** (2): 88–98. doi:10.1111/j.1460-2466.1966.tb00020.x. ISSN 0021-9916. PMID 5941548.

- 4.10. Fiske, John (1982): Introduction to Communication Studies. London: Routledge
- 4.11. Chandler, Daniel (18 September 1995). "The Transmission Model of Communication". Archived from the original on 2021-05-06.
- 4.12. Jump up to:<sup>a b</sup> Rommetveit, Ragnar (1974). On Message Structure: A Framework for the Study of Language and Communication. London: John Wiley & Sons. ISBN 0-471-73295-8.
- 4.13. Witte, Stephen P. (1992). "Context, Text, Intertext: Toward a Constructivist Semiotic of Writing". *Written Communication*. **9** (2): 237–308. doi:10.1177/0741088392009002003. S2CID 143717668.
- 4.14. (Burgoon, J., Guerrero, L., Floyd, K., (2010). *Nonverbal Communication*, Taylor & Francis. p. 3)
- 4.15. Ferguson, Sherry Devereaux; Lennox-Terrion, Jenepher; Ahmed, Rukhsana; Jaya, Peruvemba (2014). *Communication in Everyday Life: Personal and Professional Contexts*. Canada: Oxford University Press. p. 464. ISBN 9780195449280.

## 5. Internet manbalari

- 5.1. <http://www.lex.uz>
- 5.2. <http://www.prezident.uz>
- 5.3. <http://www.eua.be>
- 5.4. <http://www.hrk.de>
- 5.5. <http://www.library.ziyonet.uz>
- 5.6. <http://www.erasmusplus.uz/>
- 5.7. <http://eacea.ec.europa.eu>
- 5.8. <http://www.oak.uz>
- 5.9. <http://www.edu.uz>

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Ijtimoiy-  
gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) mutaxassisligi  
magistranti Toshpo'latov Mamadali Zayniddin o'g'ling "Fuqarolik  
jamiyati: tarixiy va zamonaviy modellari" mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

**X U L O S A S I**

Bugungi kunga kelib dunyoning aksariyat davlatlarida huquqiy-demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi sifatida qaror topayotganligi fuqarolik jamiyatini barpo etish insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb etayotganligi fuqarolik jamiyatini chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi.

"Ijtimoi –gumanitar o'qitish metodikasi" (tarix) mutaxassisligi 2-kurs talabasi Toshpo'latov Mamadali o'z dissertatsiyasida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish O'zbekiston jamiyatini tubdan isloh qilish jarayonining strategik maqsadlaridan biri ekanligi va shu ma'noda fuqarolik jamiyati O'zbekistonning rivojlanish yo'lini ko'p jihatdan belgilaydigan ijtimoiy buyurtma hisoblanadi degan fikrni olga surmoqda. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat ekanini talabalarga tushunarli tarzda yetkazib berish yo'llarini batafsil ko'rsatib o'tgan.



Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Mavzu reja asosida yoritilgan bo'lib, tegishli manba va adabiyotlardan samarali foydalanilgan. Dissertatsiya kirish qismida mavzuning asosiy maqsadi sifatida fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishi va uning turli – tarixiy va zamonaviy shakllarini to'g'ri ochib berish va tahlil qilish imkonini beradigan fuqarolik jamiyati tarixi va shakllarini o'rganishning eng maqbul metodologik yondashuvini yoritib berish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Magistrlik dissertatsiyaning birinchi bobi “Fuqarolik jamiyati genezisi”, deb nomlanib, ushbu bobda fuqarolik jamiyati tarixi, Qadimgi g'arb va sharq mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari bilan bog'liq masalalar ochib berilgan.

“Fuqarolik jamiyati modellari klassifikatsiyasi” deb nomlangan ikkinchi bobda fuqarolik jamiyati modellari tasnifi, tarixiy modellari kabi jihatlar yoritishga xarakat qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Fuqarolik jamiyati modellari evolyutsiyasi” deb nomlanilib unda fuqarolik jamiyatining zamonaviy modellari va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish istiqbollari haqida yozib o'ttgan.

Tadqiqotchi rejadagi savollarni atroflicha yoritishga uringan. Har bir bobdagi savollar zamonaviy tarix fanida ko'tarilgan yoki mavjud ilmiy metodologik muammoning tahliliga bag'ishlangan. Mavzuni yoritishda mavjud talablarga rioya qilingan va ish tugallangan.

Toshpo'latov Mamadalining magistr akademik darajasini olish uchun “Fuqarolik jamiyati: tarixiy va zamonaviy modellari” mavzusida tayorlagan magistrlik dissertatsiyasi Ta'lim standartlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va ijobiy baholab himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**  
**siyosiy fanlar doktori, dotsent**



**J.Mavlonov**

**“Fuqarolik jamiyati: tarixiy va zamonaviy modellari” mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasi  
ANNOTATSIYASI**

**Tayanch soʻzlar:** fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati modellari, fuqarolik jamiyatining tarixiy modellari, fuqarolik jamiyatining zamonaviy modellari, siyosiy madaniyat, davlat, jamiyat, Huquqlar haqidagi bill.

**Tadqiqot ishining obyekti** sifatida fuqarolik jamiyati shakllarining vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni olindi.

**Tadqiqot ishida qoʻllanilgan metodlar.** Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida tarixiylik, tizimlashtirish, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.** Tadqiqot ishining ilmiy yangilik xususiyatlariga ega jihatlari quyidagilarda oʻz aksini topadi:

- 1) Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning kelib chiqish tarixini yoritib berilgan;
- 2) Fuqarolik jamiyati borasida qadimgi gʻarb va sharq mutafakkirlari qarashlarini tavsiflab berilgan;
- 3) Fuqarolik jamiyati modellari klassifikatsiyasini ochib berish, tarixiy va zamonaviy modellarni tahlil qilingan;
- 4) Bugungi kunda mamlakatni taraqqiy ettirishda toʻgʻri qaror toptirilgan fuqarolik jamiyatining rolini izohlab berilgan;
- 5) Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini tizimli tahlil qilib, bu borada takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati.** Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda va bu borada zamonaviy texnologiyalarni qoʻllashga qaratilgan turli xildagi qoʻllanma va adabiyotlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.



**АННОТАЦИЯ**  
**Магистерской диссертации на тему**  
**«Гражданское общество: историческая и современная модели»**

**Ключевые слова:** гражданское общество, модели гражданского общества, исторические модели гражданского общества, современные модели гражданского общества, политическая культура, государство, общество, Билль о правах.

**Объект исследования** - процесс формирования и развития форм гражданского общества

**Методы исследования.** В процессе написания магистерской диссертации использовались принципы историчности, систематизации, объективности, а также цивилизационный подход к проблеме, сравнительный и проблемно-хронологический анализ и другие методы научного исследования.

**Научная новизна исследовательской работы.** Аспекты научно-исследовательской работы, обладающие признаками научной инновации, отражаются в следующем:

- 1) разъясняется понятие гражданского общества и история его возникновения;
- 2) Описаны взгляды древних западных и восточных мыслителей на гражданское общество;
- 3) раскрытие классификации моделей гражданского общества, анализ исторических и современных моделей;
- 4) Сегодня разъяснена правильно определенная роль гражданского общества в развитии страны;
- 5) Системный анализ современных технологий развития гражданского общества и выработаны предложения в связи с этим.

**Практическое значение исследовательской работы.** Исследования могут быть использованы в развитии гражданского общества и в разработке различных пособий и литературы, направленных на использование современных технологий в этой связи.

**ANNOTATION**  
**Master's dissertation on the topic**  
**“Civil society: historical and modern models”**

**Key words:** civil society, models of civil society, historical models of civil society, modern models of civil society, political culture, state, society, Bill of Rights.

**The object of the research** is the process of emergence and development of forms of civil society

**Research methods.** In the process of writing the master's thesis, the principles of historicity, systematization, objectivity, as well as the civilizational approach to the problem, comparative and problem-chronological analysis, and other scientific research methods were used.

**Scientific novelty of research work.** Aspects of the research work with the characteristics of scientific innovation are reflected in the following:

- 1) The concept of civil society and the history of its origin are explained;
- 2) The views of ancient western and eastern thinkers regarding civil society are described;
- 3) Revealing the classification of civil society models, analyzing historical and modern models;
- 4) The role of civil society, which has been correctly decided in the development of the country today, has been explained;
- 5) Systematic analysis of modern technologies of development of civil society and suggestions have been developed in this regard.

**The practical value of research work.** research can be used in the development of civil society and in the development of various manuals and literature aimed at the use of modern technologies in this regard.



# SERTIFIKAT

Tekshirish sanasi  
Raqami

15.06.2023  
138203

## *Toshpo'latov Mamadali Zayniddin o'g'li*

Muallif

Ish turi

Fayl nomi

Iqtiboslar

O'z-o'ziga iqtibos

O'zlashtirish

**Originallik**

Qidiruv modullari

Toshpo'latov Mamadali Zayniddin o'g'li

belgilanmagan

Fuqarolik jamiyati\_ Mamadali dissertatsiya.pdf

0%

0%

8.24%

**91.76%**

Milliy reestr, Internet plyus, Shablon iboralar, eLIBRARY.RU, Bibliografiya, BMK dissertatsiyalari, Viley nashriyoti, Universitetlar halqasi, IPS Adilet, Tabobat, Tarjimali matnlar qidiruv moduli, Patentlar, Tarjima tekshiruvi uz-ru, Tarjima tekshiruvi uz-ru, parafraz matnlarni tekshirish, RDK to'plami, Rossiya va MDH OAVlari, Elektron-kutubxona tizimlari, Garant AHT, Iqtibos keltirish, SPS Garant



© 2021-2023, XK "Perspective Team". Barcha huquqlar himoyalangan.

Ma'lumotnomaning haqiqiyligini tekshirish uchun sertifikatdagi QR kodidan foydalaning.